



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI



MUNIS
World Bank
Projects



***NOGIRONLIK: JAMIYAT VA HUQUQ
ILMIY JURNAL***

TOSHKENT - 2025

NOGIRONLIK: JAMIYAT VA HUQUQ

ILMIY JURNAL

1-SON

Tahririyat kengashi raisi:

Akmal SAIDOV –

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi akademigi

Bosh muharrir:

Murodjon TURG'UNOV –

Davlat va huquq instituti direktori

Xalqaro tahririyat kengashi a'zolari:

Taliya XABRIEVA

(Rossiya Federatsiyasi)

Aslan ABASHIDZE

(Rossiya Federatsiyasi)

Rustam O'RINBOEV

Shvesiya Qirolligi

Magomed GULUZADE

Ozarbayjon Respublikasi

Adel ABDULLIN

Rossiya Federatsiyasi

Nikita MOLCHAKOV

Rossiya Federatsiyasi

Ubaydulla MINGBOEV

O'zbekiston

Qalandar ABDURAXMONOV

O'zbekiston

Bahrom ABDUHALIMOV

O'zbekiston

Rustam XATAMOV

O'zbekiston

Murodjon Turg'unov. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi

Konvensiyaning o'ziga xos xususiyatlari.....3

Luqmonjon Isoqov. "Marokashda nogironligi bo'lgan

immigrantlar: Rabot shahri va viloyati misolida"

nomli asarga ayrim chizgilar.....8

Mirodiljon Baratov. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nogironligi

bo'lgan shaxslar huquqlari himoyasi.....13

Aziz Abdullayev. Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat mashg'ulotlarida

kamsitishni taqiqlash.....21

Umida Sharahmetova. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning

huquqiy kafolatlari.....26

Зарифа Кабирова. Смешанное обучение для всех:

технологии в инклюзивном образовании.....33

Ongrabay Utegenov. Persons with disabilities: rights,

social-philosophical aspects, and inclusive education.....37

Saodat Gulyamova. The Work Productivity and Activity

Impairment (WPAI) Instrument and Employees with Disabilities:

A Systematic Literature Review43

Shuhrat Hikmatov. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda

prokuror nazorati: milliy amaliyot va xorijiy tajriba.....55

Abdumannop Tulyaganov, Sardor Tursunboev,

Arslon O'ngboev. Ijtimoiy davlat g'oyasi hamda nogironligi

bo'lgan shaxslar huquqlarining kafolatlari.....61

Sardor Djalilov. Rights of persons with disabilities:

a national legal analysis.....66

Yulduz Rahmatova. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini

himoya qilishda Amerika Qo'Shma Shtatlari tajribasi.....73

Ibratjon Aliev, Nomonjon Sultonov, Boxodir Karimov, Zokir Mirzajonov,

Sherzod Karimov. Исследование радиационной стойкости кремниевых

фотоэлементов для систем энергоснабжения медицинской электроники

для людей с ограниченными возможностями в условиях воздействия

ионизирующего излучения.....77

Tillabek Xujanov. Yangi O'zbekiston qonunchiligida

nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim olishga bo'lgan huquqi

kafolatlari.....83

Maftuna Xudayberdieva. Инклюзиуа и право: гарантии длуа лиц с

ограниченными возможностями в Узбекистане.....86

Marjona Nosirova. The Importance of the World Health Organization

in protecting the rights of people with disabilities.....92

Jasurbek Begatov. Mehnat munosabatlari sohasida nogironligi bo'lgan

shaxslarni huquqlarini muhofaza qilishning tashkiliy- huquqiy asoslari.....96

Laylo Nurullayeva. Har kim uchun teng imkoniyatlar:

inklyuziv jamiyat va ijtimoiy adolat.....101

Turg'unpo'lat Jovlijev. Nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi va

uning huquqda tutgan o'rni va roli.....106

Saidakmal Mamasoliyev. Nogironlar huquqlari: qonunchilik

transformatsiyasi.....114

MUASSIS:



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI

HAMMUASSISLAR:



MUNIS
World Bank
Projects



TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI

НОГИРОНЛАР ҲУҚУҚЛАРИ ТЎҒРИСИДАГИ КОНВЕНЦИЯНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Муроджон Тургунов
Давлат ва ҳуқуқ институти
директори

АННОТАТСИЯ

Ушбу мақолада БМТнинг 2006 йилда қабул қилинган “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция”си ногоиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини халқаро миқёсда таъминловчи асосий ҳуқуқий ҳужжат сифатида илмий-таҳлилий нуқтаи назардан ўрганилади. Тадқиқотда Конвенциянинг ҳуқуқий табиати, унинг халқаро инсон ҳуқуқлари тизимидаги ўрни, шунингдек, ногоиронликни тиббий моделдан ижтимоий-моделга ўтказган ҳуқуқий инқилобий аҳамияти асослаб берилган. Мақолада Конвенцияда белгиланган давлатлар зиммасидаги ҳуқуқий мажбуриятлар – камситишнинг ҳар қандай шаклини таъқиқлаш, тенглик ва табиий ҳуқуқларни қафолатлаш, адлия, таълим, инфратузилма, соғлиқни сақлаш, ахборот ва меҳнат муносабатларида ногоиронларнинг тўлақонли иштирокини таъминлаш каби йўналишлар чуқур таҳлил этилган.

Калит сўзлар: БМТ Конвенцияси, тенглик принципи, инсон ҳуқуқлари, инклюзив таълим, миллий институтлар, ҳуқуқий қафолатлар, давлат ҳисобдорлиги.

ОСОБЕННОСТИ КОНВЕНЦИИ О ПРАВАХ ИНВАЛИДОВ

Муроджон Тургунов
Институт государства и права
директор

АННОТАТСИЯ

В данной статье с научно-аналитической точки зрения рассматривается Конвенция ООН о правах инвалидов, принятая в 2006 году, как основной правовой документ, обеспечивающий права и свободы лиц с инвалидностью на международном уровне. В исследовании обоснованы правовая природа Конвенции, ее место в международной системе прав человека, а также революционное правовое значение перехода от медицинской модели инвалидности к социальной модели. В статье подробно анализируются правовые обязательства государств, закрепленные в Конвенции, такие как запрет любых форм дискриминации, гарантии равенства и естественных прав, а также обеспечение полноценного участия лиц с инвалидностью в сферах правосудия, образования, инфраструктуры, здравоохранения, информации и трудовых отношений.

Ключевые слова: Конвенция ООН, принцип равенства, права человека, инклюзивное образование, национальные институты, правовые гарантии, государственная подотчетность.

FEATURES OF THE CONVENTION ON THE RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES

Murodjon Turgunov
Institute of State and Law
director

ABSTRACT

This article examines, from a scientific and analytical perspective, the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities, adopted in 2006, as the primary legal document safeguarding the rights and freedoms of persons with disabilities at the international level. The study substantiates the legal nature of the Convention, its place in the international human rights system, and the revolutionary legal significance of the shift from a medical model of disability to a social model. The article provides a detailed analysis of the legal obligations of states enshrined in the Convention, such as the prohibition of all forms of discrimination, guarantees of equality and inalienable rights, as well as ensuring the full participation of persons with disabilities in the areas of justice, education, infrastructure, healthcare, information, and labor relations.

Keywords: UN Convention, principle of equality, human rights, inclusive education, national institutions, legal guarantees, state accountability.

Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш масаласи XXI асрда халқаро ҳуқуқнинг энг долзарб йўналишларидан

бирига айланди. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон тизимида аввалдан мавжуд бўлган қонунчилик базага қарамасдан, ногоирон шахслар амалда тенгликка эришиши учун махсус халқаро ҳуқуқий

хужжатнинг зарурлиги аниқ бўлди. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини халқаро даражада ҳимоя қилиш соҳасида БМТнинг 2006 йил 13 декабрда қабул қилинган “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция”си жаҳон ҳуқуқий амалиётида туб бурилиш ясаган ҳужжат ҳисобланади. Эътибор беринг, БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси инсон ҳуқуқлари тўғрисида XXI асрда қабул қилинган биринчи шартномадир[1.]. Мазкур Конвенция инсон ҳуқуқлари таълимотини замонавий босқичга олиб чиққан илғор халқаро нормаларни ўз ичига олган бўлиб, ногиронликка нисбатан анъанавий тиббий ёндашувдан воз кечиб, уни ижтимоий-ҳуқуқий категория сифатида талкин этиши билан ўзига хосдир.

Конвенцияда ногирон шахс жамиятдаги пассив ижтимоий ёрдам объекти эмас, балки “қадр-қиммат, тенг ҳуқуқ ва имкониятларга эга тўлақонли фуқаро” сифатида тан олинади. Унинг ҳуқуқлари ҳимояси хайрия ёки ижтимоий нафақаларга эмас, балки ҳуқуқий кафолатлар, жавобгарлик механизмлари ва давлатнинг аниқ мажбуриятларига асосланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ҳисоб-китобларига кўра, дунё аҳолисининг 15 фоизини ногиронлиги бўлган шахслар ташкил қилади, бугунги кунда уларнинг сони 1 миллиардга етган[2.]. Шу боис Конвенция халқаро инсон ҳуқуқлари тизимининг янги стандартларини белгилаб, ногиронликни бартараф этиш эмас, балки жамиятдаги тўсиқларни йўқ қилишни асосий ҳуқуқий ва ижтимоий вазифа сифатида белгилайди.

Конвенциянинг яна бир муҳим жиҳати – инсон ҳаётининг барча йўналишларини қамраб олишидир. Унда таълим, инсон кадр-қиммати, эркин ҳаракатланиш, соғлиқни сақлаш, меҳнат муносабатлари, сиёсий иштирок, ахборотга кириш, адлия тизимида тенг муносабат, инфратузилма стандарти, маданий ҳаёт ва спорт каби соҳалар миқёсида ҳуқуқларни мустаҳкамловчи муфассал меъёрлар жой олган. Бунда “универсал дизайн”, “оқилона мослаштириш”, “барьерсиз муҳит”, “инклюзив таълим” каби ҳуқуқий атамалар Конвенциянинг фундаментал норматив асосларини ташкил этиб, ногиронликни барча соҳаларда ҳисобга олишни таъминлайди[3.].

Шунингдек, Конвенция нафақат ҳуқуқий нормаларни белгилаб қўяди, балки уларнинг бажарилишини таъминловчи механизмни ҳам яратади. Яъни, Ногиронлар ҳуқуқлари қўмитаси орқали давлатлардан мунтазам ҳисобот талаб этилади, миллий мониторинг институтлари шакллантирилади ва инсон ҳуқуқлари соҳасида ҳисобдорлик, очиклик ва демократик назорат таъминлари мустаҳкамланади.

Умуман олганда, Конвенция ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилишда халқаро ҳуқуқнинг энг илғор босқичини ифода этувчи, инсон кадрини улуғловчи ва жамиятни барча учун очик, инклюзив ва тенг имкониятли тизимга айлантиришни кўзда тутувчи универсал ҳужжат сифатида аҳамият касб этади.

Конвенциянинг энг муҳим жиҳатларидан бири шундаки, у ногиронликни анъанавий тиббий моделдан воз кечиб, ижтимоий-ҳуқуқий категория сифатида талкин этди. Тиббий модел инсон саломатлигидаги чекловларни ногиронлик манбаи сифатида изоҳлаган бўлса, Конвенция жамиятдаги инфратузилмавий, ҳуқуқий, маданий ва ахборот тўсиқларини ногиронликни келтириб чиқарадиган асосий омил сифатида эътироф этди. Демак, ногиронлиги бўлган шахслар муаммоларининг манбаи инсоннинг ўзи эмас, балки жамиятнинг уларга нисбатан мослашмаганлиги, неғизланган тасаввурлар ва ҳуқуқий механизмларнинг самарасизлигидир. Бу ёндашув инсон ҳуқуқлари таълимотини янада демократик, инклюзив ва тенгликка қаратилган принциплар асосида ривожлантирди.

Шу муносабат билан Конвенцияда ногиронлар ҳуқуқларининг амалий кафолатларини таъминлайдиган бир қатор асосий принциплар мустаҳкамланган. Жумладан, инсон кадрининг дахлсизлиги, камситишни таъқиқлаш, тенг имкониятлар, жамият ҳаётида фаол иштирок этиш, ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкам ҳимояга эга бўлиш шулар жумласидандир.

Конвенциянинг яна бир ўзига хос хусусияти шундаки, у фақат умумий ҳуқуқий нормаларни белгилантириб қолмастан, давлат зиммасига аниқ, ҳуқуқий мажбуриятлар юклайди. Давлатлардан қуйидагилар талаб этилади:

- барча соҳаларда ногиронларни камситишнинг ҳар қандай шаклини таъқиқлаш;
- инфратузилмани “барьерсиз муҳит” стандартларига мослаштириш;
- “оқилона мослаштириш” (реасонабле ассомодатион) механизмларини қонун даражасида жорий этиш;
- инклюзив таълим тизимини босқичма-босқич татбиқ этиш;
- сиёсий, маданий, иқтисодий ва ижтимоий ҳаётда ногиронларнинг тўсиқсиз иштирокини таъминлаш;
- адлия ва давлат хизматларига тенг киришни кафолатлаш шулар жумласидандир[4.].

Шунингдек, Конвенция халқаро ҳисобдорлик ва очиклик механизмлари билан ҳам ажралиб туради. Унга кўра, давлатлар ўз мажбуриятларининг бажарилиши юзасидан

БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари қўмитасига мунтазам равишда ҳисобот топширади ва қўмитадан тавсиялар олади. Шу билан бирга, ҳар бир давлатда мустақил миллий мониторинг институтларини ташкил этиш талаби ҳам белгиланган. Мазкур механизм инсон ҳуқуқлари соҳасидаги халқаро ҳуқуқий назоратнинг мукамал тизимини вужудга келтиради.

Умуман олганда, “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” инсон кадрини улуғловчи, ногиронликка муносабатни тубдан ўзгартирган, ҳуқуқий таълимотни инклюзив ва тенгликка қаратилган йўналишда ривожлантирган, жамиятни барча учун очиқ ва тенг имкониятли муҳитга айлантиришни мақсад қилган универсал халқаро ҳуқуқий ҳужжат сифатида алоҳида аҳамиятга эгадир.

Конвенциянинг мақсади дунёдаги энг кўп сонли озчиликка – ҳозирда дунёда бир миллиарддан ортиқ ногиронлар яшайди – инсониятнинг қолган қисми билан бир хил ҳуқуқ ва имкониятларни кафолатлашдан иборат. Халқаро ҳамжамият адолатсизлик ва камситишларга, ногиронлиги бўлган фуқаролар ҳуқуқларининг бузилишига барҳам бериш мақсадида давлатлар ихтиёрига самарали халқаро-ҳуқуқий ҳужжатни тақдим этиш учун бирлашди.

Конвенцияни имзолаган мамлакатлар амал қилиши лозим бўлган асосий тамойиллар:

- инсонга хос бўлган кадр-қимматни, унинг мустақиллигини, шахсий эркинлигини, шу жумладан ўз танловини амалга ошириш ҳуқуқини ҳурмат қилиш, камситишнинг йўқлиги;

- жамият ҳаётига, унинг сиёсий, иқтисодий, маданий ва ижтимоий фаолиятига тўлиқ ва самарали жалб этиш ҳамда қўшиш;

- ногиронларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳурмат қилиш, уларни инсон хилма-хиллигининг таркибий қисми ва инсониятнинг бир бўлаги сифатида қабул қилиш;

- соғлиқни сақлашда, таълим олишда, ахборотдан фойдаланишда, сиёсий ва ижтимоий ҳаётда, меҳнатда, дам олишда, маданий ҳаётда иштирок этишда, оила қуришда, тўлақонли ҳаёт кечиришда имкониятлар тенглиги;

- ногиронларнинг ўз ҳуқуқларидан фойдаланишига тўсқинлик қилувчи тўсиқларни бартараф этиш сифатида қулайлик тамойили[5].

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” мавжуд халқаро шартномалар, хусусан, “Фуқаролик ва сиёсий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (ФСХХП)” [6.], “Иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқлар тўғрисидаги халқаро пакт (ИИМХП)” [7.], “Ирқий камситишнинг барча шаклларида барҳам бериш тўғрисидаги конвенция (ИКББК)” [8.], “Аёлларга нисбатан камситишнинг барча

шаклларида қарши конвенция (АКҚК) [9.]” ва “Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция (БХТК) [10.]” кабилар асосида ишлаб чиқилган. Дастлабки икки шартнома “Инсон ҳуқуқлари тўғрисидаги халқаро билл” [11.] деб аталадиган ҳужжатга тегишли бўлиб, инсон ҳуқуқларининг бутун дунёда тан олинган асосий рўйхатини ташкил этса, кейингилари маълум гуруҳларга қаратилган ва турли ҳуқуқий хусусиятларга эга. 2002 ва 2006 йиллар оралиғида “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” бўйича музокаралар олиб борилганда, унинг ҳуқуқий хусусияти иккала моделнинг уйғунлашуви бўлиши кераклиги ҳақида дастлабки келишув мавжуд эди. Шу боис, “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” иштирокчи давлатлардан инфратузилма, халқаро ҳамкорлик ва фавқулодда вазиятлар, инклюзив таълим ва бандлик, яшаш шароитлари, ҳаракатчанлик ва кундалик ҳаётда қарор қабул қилиш каби жамоат ва шахсий ҳаётнинг кўплаб соҳаларида ижобий чоралар қўришни талаб қилади. Бироқ, шубҳасиз, Конвенциянинг асосини тенглик ва камситишга қарши кураш ташкил этади. Ҳар бир мазмунли модда тенглик ёки камситишга қарши ҳаволани ўз ичига олади, энг кўп учрайдиган ибора “бошқалар билан тенг асосда”дир деб номланиши алоҳида аҳамиятга эгадир. Бундан ташқари, айнан тенглик ва камситмаслик ҳуқуқи билан боғлиқ иккита алоҳида модда мавжуд. Шунингдек, тенглик ва камситиш тушунчалари муқаддимада, Конвенциянинг умумий тамойилларида ва таърифлар моддасида ҳам учрайди. Конвенцияда тенглик ва камситишга йўл қўймасликка кучли урғу берилишининг камида иккита сабаби бор.

Биринчидан, “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” ногиронлиги бўлган шахслар учун янги инсон ҳуқуқлари ёки махсус ҳуқуқларни яратмаслиги, балки уларнинг ҳуқуқларини ҳар бир аъзо давлатда умумий аҳоли билан тенг равишда таъминлаш мақсад қилиб олинган.

Иккинчидан, камситишга йўл қўймаслик ва тенгликка эътибор қаратиш тиббий моделдан ижтимоий моделга ўтишни акс эттиради. Ногиронликни ижтимоий ҳодиса сифатида тан олиш, унинг ижтимоий шаклланишига ҳисса қўшадиган омилларга эътиборни қаратади. Камситиш, шубҳасиз, бу борадаги асосий омиллардан биридир.

“Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” фақатгина камситмаслик ва тенглик тамойилларини қабул қилиш ва уларни ногиронлик контекстига мослаштириш билан чекланиб қолмади. У инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро ҳуқуққа янги тенглик ва камситмаслик тушунчаларини ҳамда камситишнинг янги таърифини киритди. Бундан ташқари, тенглик ва камситиш муқаддимада ([12],

преамбула, пара. (а), (с), (е), (h) (f), (к), (р), (г) ва (й)), Конвенциянинг умумий принципларида ([13], Арт. 3 (б), (э) ва (г)) ва таърифлаш моддасида ([14], Арт. Конвенцияда тенглик ва камситишга йўл қўймасликка кучли урғу берилишининг камида иккита сабаби бор. “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” ногиронлиги бўлган шахслар учун янги инсон ҳуқуқлари ёки махсус ҳуқуқларни яратмаслиги кераклиги тўғрисида консенсус мавжуд эди ва шунинг учун ҳар бир аъзо давлатда ногиронлиги бўлган шахсларнинг инсон ҳуқуқларини умумий аҳоли билан тенг равишда таъминлаш мақсади эди.

Учинчидан, дискриминацияга йўл қўймаслик ва тенгликка ўтиш тиббий моделнинг ижтимоий моделдан устунлигини акс эттиради. Ногиронликни ижтимоий тузилма сифатида тан олиш бизнинг дунёмиздаги ногиронликнинг ижтимоий тузилишига ҳисса қўшадиган элементларга эътибор қаратади. Дискриминация бу борадаги асосий омиллардан бири, албатта. Бироқ, “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” камситмаслик ва тенглик тамойилларини қабул қилиш ва уларни ногиронлик билан боғлаш билан чекланиб қолмади.

ХУЛОСА

БМТнинг “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция”си ногиронликка нисбатан анъанавий тиббий ёндашувдан воз кечиб, инсон ҳуқуқларига асосланган янги халқаро ҳуқуқий стандартни шакллантирди. Конвенцияда ногиронлик жамиятдаги ҳуқуқий ва ижтимоий барьерлар натижаси сифатида талқин қилиниб, давлатлар зиммасига камситишни бартараф этиш, тенг ҳуқуқ ва имкониятлар яратиш, инклюзив сиёсат юритиш, универсал дизайн ва оқилона мослаштиришни таъминлаш мажбурияти юкланди. Конвенция ногирон шахсларни тўлақонли ҳуқуқий субъект сифатида тан олиб, уларнинг таълим, меҳнат, сиёсий иштирок, ижтимоий ҳимоя ва шахсий мустақилликка оид ҳуқуқларини халқаро стандарт даражасида кафолатлайди. Таъкидлаш жоизки, “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция” нафақат ҳуқуқий ҳужжат, балки давлат сиёсатини, қонунчилик тизимини ва ижтимоий муносабатларни ўзгартиришга қодир амалиётга йўналтирилган универсал механизм сифатида аҳамият касб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Акмал САИДОВ. Ўзбекистон ва ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция // <http://pravacheloveka.uz/uz/news/ozbekiston-va-nogironlar-huquqlari-togrisidagi-konvensiya>
2. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти // статистик маълумотлар баъзаси. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/disability-and-health>

Интернет манбалари

1. United Nations. “Convention on the Rights of Persons with Disabilities.” United Nations Treaties Series. 2008, vol. 2515, p. 3. Available online: <https://treaties.un.org/doc/publication/unts/volume%202515/v2515.pdf>
2. Alison Kafer. Feminist, Queer, Crip. Bloomington and Indianapolis: Indiana University Press, 2013. [Google Scholar]
3. Barbara Altmann. “Disability Definitions, Models, Classification Schemes, and Application.” In Handbook of Disability Studies. Thousand Oaks: Sage Publication, 2001, pp. 97–122. [Google Scholar]
4. Quinn, G., & Flynn, E. (2012). “Transatlantic Dialogue on Disability Rights: Moving Toward a More Holistic Approach” European Yearbook of Disability Law, Vol. 4.
5. United Nations (2008). “Implementation Handbook for the Convention on the Rights of Persons with Disabilities” Geneva.
6. United Nations. “International Covenant on Civil and Political Rights.” United Nations Treaties Series. 1976, vol. 999, p. 171. Available online: <https://treaties.un.org/doc/Publication/UNTS/Volume%20999/volume-999-I-14668-English.pdf> (accessed on 19 August 2016).
7. United Nations. “International Covenant on Social, Economic and Cultural Rights.” United Nations Treaties Series. 1966, vol. 993, p. 3. Available online: <http://www.refworld.org/docid/3ae6b36c0.html> (accessed on 19 August 2016).
8. United Nations. “Convention on the Elimination of all Form of Racial Discrimination.” United Nations Treaties Series. 1965, vol. 160, p. 195. Available online: <http://www.un-documents.net/icerd.htm> (accessed on 19 August 2016).
9. United Nations General Assembly. “Convention on the Elimination of All Forms Elimination of Discrimination against Women.” United Nations Treaties Series. 1979, vol. 1249, p. 13. Available online: <http://www.refworld.org/docid/3ae6b3970.html> (accessed on 19 August 2016).
10. United Nations. “Convention on the Rights of the Child.” United Nations Treaties Series. 1999, vol. 1577, p. 3. Available online: <https://treaties.un.org/doc/Publication/UNTS/Volume%201577/v1577.pdf> (accessed on 19 August 2016).
11. Together with the Universal Declaration of Human Rights of 1948
12. United Nations. “Convention on the Rights of Persons with Disabilities.” United Nations Treaties Series. 2008, vol. 2515, p. 3. Available online: <https://treaties.un.org/doc/publication/unts/volume%202515/v2515.pdf> (accessed on 19 August 2016).
13. Stefan Trömel. “A Personal Perspective on the Drafting History of the United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities.” In European Yearbook of Disability Law. Edited by Gerard Quinn and Lisa Waddington. Antwerpen: Intesentia, 2009, pp. 115–38. [Google Scholar]
14. Gerard Quinn, and Theresia Degener. Human Rights and Disability. New York and Geneva: United Nations, 2002, p. 14. [Google Scholar]
15. Rannveig Traustadottir. “Disability Studies, the Social Model and Legal Developments.” In The UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Edited by Oddný Mjöll Arnadóttir and Gerard Quinn. Leiden: Martinus Nijhoff, 2009, pp. 3–16. [Google Scholar]

“МАРОКАШДА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ИММИГРАНТЛАР: РАБОТ ШАХРИ ВА ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА” НОМЛИ АСАРГА АЙРИМ ЧИЗГИЛАР

ИСОҚОВ Лукмонжон Холбоевич,

*Ўзбекистон Республикаси Хуқуқни муҳофаза қилиш академияси
Халқаро ҳуқуқ ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш кафедраси бошлиғи,
юримдик фанлар доктори, профессор*

АННОТАЦИЯ:

Ушбу мақола Ҳадича Элмадмаднинг Марокашдаги ногиронлиги бўлган иммигрантлар ҳақидаги илмий ишини чуқур таҳлил қилади, Работ шаҳри ва минтақаси мисолида миграция ва ногиронлик ўртасидаги ўзаро боғлиқликни ёритади. Муаллиф олима билан шахсий танишувдан келиб чиқиб, унинг халқаро ҳуқуқ, инсон ҳуқуқлари ва миграция соҳасидаги ҳиссасини таъкидлайди. Тадқиқот эмпирик маълумотлар (сўровлар, интервьюлар, дала ишлари) асосида ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий муаммоларини, шунингдек, сиёсий тавсияларни кўриб чиқади. Асосий эътибор қўшалок заифлик, интеграция тўсиқлари ва инклюзив сиёсат заруратига қаратилган.

Калит сўзлар: ногиронлик, миграция, иммигрантлар, Марокаш, Работ минтақаси, инсон ҳуқуқлари, ижтимоий интеграция, ҳуқуқий ҳимоя, эмпирик тадқиқот, сиёсий тавсиялар.

НЕСКОЛЬКО СТРОК О РАБОТЕ «ИММИГРАНТЫ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В МАРОККО: НА ПРИМЕРЕ ГОРОДА РАБАТ И ЕГО РЕГИОНА»

ИСОҚОВ Лукмонжон Холбоевич,

*Начальник кафедры международного права и защиты прав человека
Правоохранительной академии Республики Узбекистан,
доктор юридических наук, профессор*

АННОТАЦИЯ:

Эта статья глубоко анализирует научную работу Хадиджи Эльмадмад о иммигрантах с инвалидностью в Марокко, на примере города Рабат и его региона, освещая взаимосвязь между миграцией и инвалидностью. Автор, исходя из личного знакомства с ученой, подчеркивает ее вклад в международное право, права человека и миграцию. Исследование на основе эмпирических данных (опросы, интервью, полевые работы) рассматривает социальные, экономические и правовые проблемы мигрантов с инвалидностью, а также политические рекомендации. Основное внимание уделяется двойной уязвимости, барьерам интеграции и необходимости инклюзивной политики.

Ключевые слова: инвалидность, миграция, иммигранты, Марокко, регион Рабат, права человека, социальная интеграция, правовая защита, эмпирическое исследование, политические рекомендации.

SOME LINES ON THE WORK “IMMIGRANTS WITH DISABILITIES IN MOROCCO: THE CASE OF THE CITY OF RABAT AND ITS REGION”

ISOKOV Lukhmonjon Kholboevich,

*Head of the Department of International Law and Human Rights Protection,
Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan,
Doctor of Law, Professor*

ANNOTATION:

This article provides a deep analysis of Khadija Elmadmad's scholarly work on disabled immigrants in Morocco, using the case of Rabat city and its region to explore the intersection of migration and disability. Drawing from the author's personal encounter with the scholar, it highlights her contributions to international law, human rights, and migration. The study, based on empirical data (surveys, interviews, field research), examines the social, economic, and legal challenges faced by disabled migrants, along with policy recommendations. Key focus is on double vulnerability, integration barriers, and the need for inclusive policies.

Keywords: disability, migration, immigrants, Morocco, Rabat region, human rights, social integration, legal protection, empirical research, policy recommendations.

Ўзбекистон Республикаси Хуқуқни муҳофаза қилиш академияси томонидан ўтказилган халқаро илмий-амалий конференцияда камина таниқли олима, Ғарбий Европада, хусусан, франкофон мамлакатларда замонавий миграция

ҳуқуқининг асосчиларидан бири Ҳадича Элмадмад билан шахсан танишишга муяссар бўлдим.

Ҳадича Элмадмад халқаро ҳуқуқ, инсон ҳуқуқлари, мигрантлар ва қочкинлар ҳуқуқи соҳасида мутахассисликка эга, кенг халқаро таърибага эга академик ва ҳуқуқшунос бўлиб, ўз

илмий ва амалий фаолияти орқали миграция ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ҳамда тинчлик ва музокара усулларини ривожлантиришда халқаро даражада катта ҳисса қўшган шахс ҳисобланади. Унинг фаолияти таълим, илм-фан, ҳуқуқий маслаҳат, халқаро ва минтақавий ташкилотларда экспертлик ҳамда медиация ва тинчлик жараёнларида иштирок этиш каби бир қатор йўналишларни қамраб олади.

Хусусан, Элмадмаднинг фаолияти миграция, қочкинлар ҳуқуқи, аёл ва болалар ҳуқуқлари, инсон ҳуқуқлари, халқаро гуманитар ҳуқуқ, маданий ва трансмиллий таҳлиллар, илмий тадқиқот усуллари ҳамда медиация соҳаларини бирлаштириб, уларни ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан ривожлантиришга қаратилган. Унинг илмий ишлари, нашрлари ва халқаро ҳамкорликлари миграция ва инсон ҳуқуқлари соҳасида қонунчиликни такомиллаштириш, ҳуқуқий маданиятни ошириш ва қочкинлар ва мигрантларнинг ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Шу билан бирга, унинг фаолияти замонавий халқаро стандартлар ва миллий ҳуқуқий мажмуалар орасида интеграцияни таъминлаш, аёллар ва заиф гуруҳлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва маданий муносабатларнинг турли жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда ҳуқуқий ва медиация амалиётини ривожлантиришга қаратилганлигини кўрсатади.

Профессор Элмадмад каминанинг айрим илмий ишларимни, жумладан, “Миграция ва ногиронликнинг ҳуқуқий нисбати”¹ номли мақоламни инглиз тилига таржима қилиш орқадли танишганлигини билиб, фахрландим. Фурсатдан фойдаланган ҳолда, олима ўзининг янги чиққан тадқиқот натижаларини ўзининг дастхати билан тўхфа қилди. Ушбу илмий изланишлар билан яқиндан танишиб чиқиб, куйидаги фикр-мулоҳазаларим билан ўртоқлашишга қарор қилдим.

Ҳадича Элмадмаднинг тадқиқоти² Марокашдаги ногиронлиги бўлган мигрантлар масаласини аниқ ва тизимли тарзда ўрганишга бағишланган бўлиб, тадқиқотда асосий эътибор Работ шахри ва унинг атроф ҳудудларида яшовчи ногиронлиги бўлган мигрантлар аҳволига қаратилган бўлиб, муаллиф бу фойдаланувчи гуруҳнинг ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий шароитларини тадқиқот объект сифатида белгилайди. Тадқиқот долзарблиги Марокашда миграция жараёни йилдан-йилга ўсиб бораётган бир пайтда, ногиронлиги бўлган шахсларнинг интеграция масалалари

кўпчилик илмий тадқиқотларда назардан четда қолаётганлиги билан изоҳланади.

Ушбу тадқиқот ижтимоий-ҳуқуқий хусусиятга эга бўлиб, илмий адабиётда нисбатан кам ёритилган мавзудир. Ушбу тоифа мигрантлари илмий тадқиқотларнинг «унитилганлари» сифатида баҳоланади, айрим маъноларда эса миграция ва соғлиқни сақлашга доир амалий сиёсатларда четда қолдирилган («left behind») гуруҳлар қаторига киради.

Мазкур тадқиқотнинг мақсади ногиронлиги бўлган мигрантларнинг Рабат ва атроф ҳудудлардаги турмуш шароитини аниқлаш, уларнинг ижтимоий хизматларга, тиббий ёрдам ва таълим имкониятларидан фойдалана олишларини таҳлил қилиш ҳамда мавжуд давлат ва маҳаллий сиёсий механизмларни баҳолаш ҳисобланади. Шунингдек, муаллиф тадқиқотда келтирилган статистик маълумотлар асосида ногиронлиги бўлган мигрантлар орасидаги ижтимоий тенгсизлик ва қонуний ҳимоянинг етишмаслиги масаласини илмий жиҳатдан очиб беради.

Тадқиқот предмети сифатида муаллиф ногиронлик ҳолати ва миграция ҳолатини биргаликда ўрганади, бу эса тадқиқотнинг назарий ва амалий аҳамиятини оширади. Мақолада келтирилган рақамлар, масалан, Работ шахридаги ногиронлиги бўлган мигрантлар сони ва уларнинг ижтимоий хизматлардан фойдалан олиш имкониятлари билан боғлиқ статистика тадқиқотнинг эмпирик асосини ташкил этади. Шу орқали муаллиф ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамиятдаги интеграция даражаси ва турли тоифадаги ижтимоий хавфлар орасидаги боғлиқликни кўрсатади.

Маълумки, Работ-Сале-Кенитра минтақаси Марокашдаги иккинчи йирик агломерация бўлиб, Касабланкадан кейинги ўринни эгаллайди. У учта префектура ва тўртта провинциядан ташкил топган (Работ префектураси, Сале префектураси, Схирати-Темара префектураси, Сиди Касем провинцияси, Сиди Слимани провинцияси, Кенитра провинцияси ва Хемиссет провинцияси).

Соғлиқ билан боғлиқ муаммолар мигрант шахсларнинг заифлигини кескин оширади ва уларнинг ҳуқуқий ҳамда ижтимоий ҳимояси учун жиддий қийинчиликлар туғдиради. Айниқса, мазкур шахслар ногиронлик ҳолатида бўлсалар, ушбу муаммолар янада кучаяди.

Муаллифнинг таъкидлашича, Мигрантлар турли тоифаларга бўлинади ва улар турлича ҳуқуқий мақомга эга. Жумладан:

¹ Исоков Л.Х. Миграция ва ногиронликнинг ҳуқуқий нисбати // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2024). – 92-101-бетлар.

² Elmadmad, K. (2024). Les immigrés en situation de handicap au Maroc : le cas de la ville de Rabat et sa région. Dans S. Iorio & M. Tofani (dir.), Éthique globale : collaboration pour la santé et les réfugiés à travers la Méditerranée (pp. 35-76).

ўз ватанидаги ҳудудни тарк этувчи эмигрантлар;

фуқаролиги бўлмаган мамлакатда жойлашувчи иммигрантлар;

ўз хоҳиши билан ватанини тарк этувчи ихтиёрий мигрантлар;

мажбурий равишда ўз ҳудудини ёки мамлакатини тарк этувчи ва бошқа ерда ҳимоя ва паноҳ изловчи мажбурий мигрантлар;

ҳалқаро чегараларни ҳужжатлар билан кесиб ўтувчи қонуний мақомдаги мигрантлар;

ҳужжатсиз ёки сохталаштирилган ҳужжатлар билан ҳаракатланувчи қонуний мақомсиз мигрантлар ва ҳ.к.

Геостратегик жойлашуви, яъни Африка, Европа ва Араб дунёси чорраҳасида жойлашгани туфайли, Марокаш ҳар доим турли миграция жараёнларининг маркази ва барча тоифадаги мигрантларнинг манзили бўлиб келган. Марокашда ногиронлиги бўлган шахслар расман 6% дан ортиқ деб баҳоланади. Аммо бошқа манбалар бу кўрсаткични 9,5% деб белгилайди.

Марокашдаги миграция жараёни вақт ўтиши билан ривожланиб, мамлакат тарихи давомида ўзгариб борган. Ҳозирги кунда мамлакатда истиқомат қилаётган мигрантларнинг аниқ статистик кўрсаткичлари мавжуд эмас. Бироқ ишончли маълумотларга кўра, Марокашда 2013–2014 ва 2016–2017 йилларда амалга оширилган қонунийлаштириш кампаниялари доирасида тахминан 50 минг нафар ноқонуний мақомда бўлган мигрант расмий тарзда рўйхатдан ўтказилган. Ушбу кампаниялар Марокашнинг «Миллий миграция ва бошпана сиёсати» (NPMIA) қабул қилинганидан сўнг ташкил этилган.

Ногиронлиги бўлган мигрантлар икки қарра ёки қўшалоқ хавф остида бўлиб, улар ҳам мигрант, ҳам ногиронлиги бўлган шахсдир. Улар махсус ҳимоя чораларидан деярли фойдаланмайди ва «ҳеч кимнинг эътиборида бўлмаган» тоифага айланиб қолмоқдалар. Улар учун махсус ишлаб чиқилган дастурлар амалий жиҳатдан мавжуд эмас, ҳолбуки уларда бошқаларга нисбатан алоҳида ҳуқуқлар бўлиши керак. Ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ҳуқуқлари инсон ҳуқуқларининг бир қисми ҳисобланади. Инсон ҳуқуқларига асосланган ёндашувга кўра, Марокашнинг халқаро мажбуриятларига мувофиқ, мамлакат ҳудудида яшовчи ҳар қандай шахс, унинг ҳуқуқий мақоми ёки маъмурий ҳолатидан қатъи назар (фуқаро, чет эл фуқароси ёки фуқаролиги бўлмаган шахс, қонуний ёки ноқонуний мигрант), муайян асосий ҳуқуқлар билан таъминланиши шарт.

Соғлиқни сақлаш вазирлиги мигрантларни тиббий хизматландан фойдалан олиш имкониятини

енгиллаштириш ва уларга тўсқинлик қилаётган асосий тўсиқларни аниқлашга қаратилган бир қатор дастурларни амалга ошириб келмоқда. 2021–2025 йилларга мўлжалланган «Саломатлик ва миграция» миллий стратегияси мамлакатнинг миграция соҳасидаги сиёсатини, халқаро мажбуриятларини ва мигрантлар соғлиғини муҳофаза қилишга қаратилган амалий дастурларни батафсил ёритади. Бироқ мазкур чора-тадбирлар умумий хусусиятга эга бўлиб, ногирон мигрантларга махсус равишда йўналтирилган ёки уларга хос бўлган дастурларни ўз ичига олмайди.

Шу билан бирга, тадқиқот узоқ муддатли сиёсий ва ижтимоий режалаштиришда фойдаланиш мумкин бўлган аниқ ва амалий тавсияларни ҳам ўз ичига олади. Ушбу илмий ишнинг аҳамияти шу билан изоҳланадики, у ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ижтимоий хизматларни такомиллаштириш ва миграция сиёсатида инклюзия принципларини жорий қилишга қаратилган тадқиқотлар орасида устувор ўрин эгаллайди.

Ҳадича Элмадмаднинг тадқиқоти Марокашдаги ногиронлиги бўлган мигрантлар масаласини ўрганишда илмий-назарий усуллардан кенг фойдаланади. Муаллиф биринчи навбатда ногиронлик ва миграция тушунчаларини белгилаб, уларнинг ўзаро муносабатини тушунтиришга уринган. Бу борадаги назарий ёндашувлар ногиронлиги бўлган шахслар ҳаётидаги ижтимоий, иқтисодий ва ҳуқуқий механизмларни таҳлил қилиш учун фундамент вазифасини бажаради.

Элмадмаднинг тадқиқотида Марокашдаги мигрантлар, айниқса ногиронлиги бўлган шахслар ҳаёти ҳақидаги илмий ёзувлар ва статистик таҳлиллар алоҳида аҳамиятга эга. Мақолада муаллиф Марокашдаги тадқиқотлар доирасида Работ ва унинг атроф ҳудудларидаги эмпирик маълумотларни тақдим этади, шунингдек, ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ижтимоий интеграция даражаси ва мавжуд давлат дастурлари орасидаги боғлиқликни аниқлайди. Мақолада келтирилган рақамлар ва аниқ фактлар, масалан, ногиронлиги бўлган мигрантлар орасида тиббий ёрдамга ва таълим имкониятларидан фойдалан олиш даражаси тадқиқотнинг назарий базасини мустаҳкамлайди.

Шу билан бирга, муаллиф тадқиқотда илмий адабиётни синтез қилиш орқали ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳаётидаги ижтимоий тенгсизлик масаласини ҳам кенг қамровли таҳлил қилади. Элмадмаднинг фикрича, мавжуд тадқиқотлар кўпинча ногиронлиги бўлган шахсларнинг миграция жараёнидаги муаммоларини чеклаб кўрсатади ва уларнинг интеграция жараёнидаги тўсиқларини тўлиқ ёритмайди. Шу боис, муаллифнинг иши фақат эмпирик маълумотлар билан чекланмай, балки

назарий жиҳатдан ҳам янги ёндашувларни таклиф этади.

Муаллифнинг назарий ёндашуви асосан икки устувор йўналишга таянган: биринчи навбатда, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ижтимоий ҳимоя ва ҳуқуқий механизмлар орқали интеграциясини таҳлил қилиш; иккинчи навбатда, Марокашдаги маҳаллий ва миллий сиёсий дастурлар билан боғлиқ барча механизмларни ўрганиш. Бу ёндашув тадқиқотга амалиёт билан узвий боғлиқлик ва илмий асослиликини таъминлайди.

Шу тариқа, Элмадмаднинг тадқиқот ишидаги теория ва адабиёт шарҳи ногиронлиги бўлган мигрантлар масаласини кенг қамровли таҳлил қилиш учун асос бўлиб хизмат қилади. Ушбу қисм тадқиқотнинг илмий янгилик даражасини ҳамда Марокашдаги ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳаётини тушуниш учун зарур назарий воситаларни тақдим этади.

Ҳадича Элмадмад тадқиқотида методологик ёндашув аниқ ва тўлиқ баён қилинган бўлиб, у эмпирик ва сифатли таҳлил усуллари уйғунлаштириш орқали Марокашдаги ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳаётини кенг қамровли таҳлил қилиш имконини беради. Мақолада таъкидланишича, тадқиқот асосан Работ ва унинг атроф ҳудудларида амалга оширилган эмпирик сўров ва кузатувларга таянади. Бу жойлардаги ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ижтимоий интеграция ва ҳуқуқий имкониятлари таҳлил қилиниши тадқиқотнинг асосий мақсади билан узвий боғланган.

Муаллиф эмпирик маълумотларни йиғишда анкеталар, интервьюлар ва дала тадқиқотларининг бошқа усуллари билан фойдаланган. Анкеталар орқали ногиронлиги бўлган мигрантларнинг соҳа бўйича ҳуқуқий, иқтисодий ва ижтимоий ҳолати аниқланади, интервьюлар эса уларнинг шахсий тажрибалари ва интеграция жараёнидаги тўсиқларни чуқурроқ тушуниш имконини беради. Дала тадқиқоти эса тадқиқотни контекстга боғлаб, эмпирик маълумотларнинг аниқ ва ишончли бўлишини таъминлайди.

Масалан, тадқиқотнинг илк босқичи 2023 йил 11 февраль куни мигрантлар саломатлиги бўйича ўтказилган хабардорлик семинарида иштирок этиш билан бошланди. Ушбу семинар «Қандли диабет ва юрак-қон томир касалликлари ўртасидаги боғлиқлик» мавзусига бағишланган бўлиб, уни Работдаги Конголик мигрантлар ассоциацияси — DICOMA ташкил этган. Семинар Марокашдаги мигрантлар билан ишловчи «Orient-Occident» жамғармаси биноларида ўтказилди. Марказий маърузачи — Работда фаолият юритувчи конголик кардиолог доктор Жозеф Тиенда бўлди. Семинар якунида мигрантлар ўртасида диабет бўйича

скрининг ҳам ўтказилган. Ушбу тадбир Работ ва минтақа мигрантлари билан танишиш, уларнинг ҳуқуқий мақоми, ижтимоий ва иқтисодий ҳолатини билиш, шунингдек миграция ва ногиронлик масалалари билан шуғулланувчи ННТ ва халқаро ташкилотлар билан алоқа ўрнатиш учун муҳим имконият бўлди. Шунингдек, ногиронлиги бўлган бир қатор субсахро мигрантлари билан Вашингтон гуруҳи саволномаси асосида суҳбатлар ўтказилган.

Жумладан, Вашингтон гуруҳи саволномасидан фойдаланган ҳолда бир қатор ногиронлиги бўлган мигрантлар билан интервьюлар ўтказилиб, уларнинг аксарияти Камерун, Кот-д’Ивуар, Конго-Браззавиль, Конго-Киншаса, Жибути, Марказий Африка Республикаси, Нигерия, Сенегал, Судан ва Сурия каби давлатлардан бўлган. Уларнинг катта қисми (67%) ўз мамлакатларидаги можаролар ва зўравонликлар туфайли Марокашга келган қочқинлар ва бошпана изловчилардир. Қолган қисми (33%) Марокашга таҳсил олиш ёки Марокашда ёки Европада яхшироқ ҳаёт излаб келган мигрантлардир. Ёш тоифаси 14 ёшдан 64 ёшгача. Улар орасида 60% эркаклар ва 40% аёллардир.

Методологик жиҳатдан, Элмадмаднинг тадқиқоти сифатли ва миқдорий маълумотларни уйғунлаштиришга асосланади. Бу ёндашув ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳаётини нафақат статистик рақамлар орқали, балки уларнинг ижтимоий ва шахсий ҳолатларини ҳам тушуниш имконини беради. Шунингдек, тадқиқотда фокус-гурҳлар орқали аниқланган муаммолар ва интеграция тўсиқлари таҳлил қилинади, бу эса тадқиқотнинг илмий асослилигини мустаҳкамлайди.

Бундан ташқари, аёллар, айниқса, ногирон мигрант аёллар (аёл сифатида, мигрант сифатида ва ногирон шахс сифатида) уч карра заиф тоифани ташкил этади. Камерунлик ногирон мигрант аёл Сандриннинг Кенитрадаги ҳолати ногирон мигрант аёлларнинг қай даражада оғир шароитда яшашини яққол кўрсатади. У 41 ёшда, уч фарзанднинг онаси, ногиронликка эса Жазоир-Марокаш чегарасини ноқонуний кесиб ўтиш пайтида электр токига урилиб қолгач, икки оёғининг олд қисмлари ва икки қўли бармоқлари кесиб ташланган. У жуда қийин ҳаракатланади, қайчувчилик ва баъзан ҳатто фоҳишалар орқали тирикчилик қилишга мажбур. У ўзининг марокашлик қашшоқ қўшнилари билан сахийлигини, камеруналик мигрантлар ва марокашлик хайриячилар ёрдамларини миннатдорлик билан тилга олади. Работ яқинидаги Темара шахрида яшовчи ногиронлиги бўлган суриялик боланинг ҳолати ҳам ўта ўзига хосдир. Унинг ота-онаси Марокашда қочқин мақомига эга. Отасининг маълум қилишича, бола уй шароитида бутунлай ёмон аҳволда яшайди, оила БМТнинг

Қочқинлар Олий Комиссарлиги ёрдамидан фойдаланади, аммо бу ёрдам етарли эмас. Оила Европага ёки Канадага қайта жойлаштириш бўйича ариза берган ва жавобни кутмоқда.

Шу тариқа, методология қисми тадқиқотнинг эмпирик ва назарий асосини уйғунлаштириб, ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳаётини кенг камровда ва аниқ контекстда таҳлил қилиш имконини беради. Ушбу қисм тадқиқотнинг илмий жиҳатдан ишончли ва амалий аҳамиятга эга бўлишини таъминлайди.

Ҳадича Элмадмад ўз тадқиқотининг хулосасида Марокашдаги ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳолатининг комплекс ва кўпқирралилигини таъкидлайди. Муаллифнинг фикрича, ногиронлик ва миграциянинг ўзаро таъсири ижтимоий тенгсизлик ва ҳуқуқий чекловларни кучайтиради.

Муаллиф шу билан бирга маҳаллий ҳукумат ва нодавлат ташкилотлар ногиронлиги бўлган мигрантлар учун махсус қўллаб-қувватлаш хизматларини ривожлантиришлари зарурлигини таъкидлайди. Бу тавсиялар ичида ҳуқуқий маслаҳат, тибий махсус хизматлар, таълим ва касбга тайёрлаш курслари, шунингдек, ижтимоий интеграцияни рағбатлантирувчи дастурлар алоҳида аҳамиятга эга. Элмадмаднинг назариясига кўра, бу каби чоралар ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ўз ҳуқуқлари ва имкониятларидан тўлиқ фойдаланишини таъминлайди ҳамда уларнинг ижтимоий ва иқтисодий ҳаётда тенг иштирокини мустаҳкамлайди.

Шу билан бирга, муаллиф тадқиқот натижалари асосида ижтимоий сиёсат соҳасида

қарор қабул қилишда эмпирик маълумотларга таянган ёндашув муҳимлигини таъкидлайди. Мақолада илова қилинган рақамлар, интервьюлар ва сўров натижалари ногиронлиги бўлган мигрантлар ҳаётининг реал муаммолари ва эҳтиёжларини очиб бериши билан аҳамиятлидир. Бу эса фақат илмий таҳлил учун эмас, балки сиёсат ва қонунчиликни такомиллаштириш учун ҳам асосий йўналишлар тақдим қилади.

Ҳадича Элмадмаднинг «Les immigrés en situation de handicap au Maroc: Le cas de la ville de Rabat et sa région» номли мақоласи ногиронлиги бўлган мигрантлар масаласини илмий ва амалий жиҳатдан чуқур таҳлил қилишда муҳим аҳамият касб этади. Мақола ҳозирги ижтимоий ва ҳуқуқий контекстда ногиронлик ва миграция ўртасидаги ўзаро боғлиқликни очиб берувчи илмий тадқиқот сифатида диққатга сазовор.

Хулоса қилиб айтганда, Ҳадича Элмадмад мақоласи ногиронлиги бўлган мигрантлар масаласини илмий асосда таҳлил қилишда муҳим аҳамиятга эга. Мақола фақат Марокаш мисоли билан чегараланиб қолмай, балки кенгроқ минтақада ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ижтимоий интеграцияси ва ҳуқуқий муҳофазаси масаласини ўрганишда ҳам қимматли илмий манба сифатида хизмат қилади. Муаллифнинг эмпирик таҳлили, ҳуқуқий ва ижтимоий тавсиялари маҳаллий сиёсатни такомиллаштириш ва ногиронлиги бўлган мигрантларнинг ҳаётини яхшилашда амалий йўналишларни белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Исоқов Л.Х. Миграция ва ногиронликнинг ҳуқуқий нисбати // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 2 (2024). – 92-101-бетлар.
2. Elmadmad, K. (2024). Les immigrés en situation de handicap au Maroc : le cas de la ville de Rabat et sa région. Dans S. Iorio & M. Tofani (dir.), Éthique globale : collaboration pour la santé et les réfugiés à travers la Méditerranée (pp. 35-76).

BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISHDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI HIMOYASI

Mirodiljon Xomudjonovich Baratov,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq institute
bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor
Elektron pochta: mirodil707@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishning o'рни va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi xalqaro- huquqiy asoslar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyasi hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan milliy normativ-huquqiy hujjatlar o'rganilgan. Maqolada O'zbekistonning ijtimoiy siyosatida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ularning ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlarida to'liq ishtirokini ta'minlash yo'nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritib berilgan. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotiga integratsiya qilishda duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot natijalari nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilish orqali inklyuziv jamiyatni shakllantirish, barqaror ijtimoiy rivojlanishga erishish va inson salohiyatidan to'liq foydalanishni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Barqaror rivojlanish maqsadlari, nogironligi bo'lgan shaxslar, inson huquqlari, inklyuziya, ijtimoiy himoya, O'zbekiston.

ЗАЩИТА ПРАВ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В ДОСТИЖЕНИИ ЦЕЛЕЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье проанализирована роль и значение защиты прав лиц с инвалидностью в достижении Целей устойчивого развития. В исследовании рассмотрены международно-правовые основы обеспечения прав инвалидов, в частности Конвенция Организации Объединённых Наций о правах инвалидов, а также национальные нормативно-правовые акты, принятые в Республике Узбекистан. В статье освещаются реформы, проводимые в социальной политике Узбекистана, направленные на создание равных возможностей для лиц с инвалидностью и обеспечение их полного участия в системах образования, занятости, здравоохранения и социальной защиты. Кроме того, выявлены проблемы, возникающие при интеграции лиц с инвалидностью в общественную жизнь, и предложены пути их решения. Результаты исследования показывают, что защита прав инвалидов является важным условием формирования инклюзивного общества, достижения устойчивого социального развития и полного раскрытия человеческого потенциала.

Ключевые слова: Цели устойчивого развития, лица с инвалидностью, права человека, инклюзия, социальная защита, Узбекистан.

PROTECTING THE RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES IN ACHIEVING THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS

ANNOTATION

This article analyzes the role and significance of protecting the rights of persons with disabilities in achieving the Sustainable Development Goals. The study examines the international legal framework for ensuring the rights of persons with disabilities, particularly the United Nations Convention on the Rights of Persons with Disabilities, as well as national legislative and regulatory acts adopted in the Republic of Uzbekistan. The article highlights the reforms implemented in Uzbekistan's social policy aimed at creating equal opportunities for persons with disabilities and ensuring their full participation in the systems of education, employment, healthcare, and social protection. Furthermore, the challenges faced in integrating persons with disabilities into public life are identified, and practical recommendations for overcoming them are proposed. The research findings emphasize that protecting the rights of persons with disabilities is essential for building an inclusive society, achieving sustainable social development, and fully realizing human potential.

Keywords: Sustainable Development Goals, persons with disabilities, human rights, inclusion, social protection, Uzbekistan.

Bugungi kunda va istiqbolda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) global kun tartibining markazida turibdi va 2030-yilga qadar hech bir inson e'tibordan chetda qolmasligi tamoyiliga asoslanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar (NBS) ushbu umumiy maqsadlarga erishishda ajralmas qismidir. Ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotda to'liq ishtirok etishini ta'minlash inklyuziv jamiyat qurishning asosiy shartidir. Ushbu maqola BRM doirasida nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasini (2020) ratifikatsiya qilishi bilan nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda yangi bosqichga qadam qo'ydi. BRM kontekstida O'zbekiston o'z zimmasiga Kambag'allikka barham berish (BRM-1), Sifatli ta'lim (BRM-4), Munosib ish va iqtisodiy o'sish (BRM-8) kabi bir qator maqsadlarga erishish majburiyatini olgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning teng imkoniyatlardan foydalana olishi ushbu maqsadlarga erishishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Mamlakatda "Inson qadri uchun" tamoyili amalga oshirilayotgan bir sharoitda, nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy himoyasidan faol ishtirokchiga aylanishini ta'minlash ustuvor vazifadir. Ularning ta'lim, bandlik va sog'liqni saqlash sohalarida to'siqlarga duch kelishi ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirib, BRMga erishish sur'atini sekinlashtiradi. Shu bois, mavzuning dolzarbligi huquqiy islohotlarni amaliy inklyuziya mexanizmlari bilan bog'lash zarurati bilan belgilanadi.

A.Sen o'z tadqiqotlarida inson-ning imkoniyatlari yondashuvi (The capabilities approach) nogironlik va adolat masalalarini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, nogironligi bo'lgan shaxslarning farovonligi – ularning amalga oshirish imkoniyatlari bilan belgilanadi [1]. "Egalik"dan – "amalga oshirish imkoniyati"ga o'tish: A.Sen tovarlar va resurslarga (masalan, pul yoki yordamchi uskunaga) egalik qilishning o'zini farovonlik, deb bilmaydi. Aksincha, ushbu resurslar yordamida inson hayotida nimalarni qila olishi (funktsiyalar) va u o'zi uchun qadrlı bo'lgan

hayotni qanday yashay olishi (imkoniyatlar) muhim. Bu nogironligi bo'lgan shaxslar uchun nihoyatda muhim. Chunki oddiy shaxsga berilgan bir xil miqdordagi pul yoki o'quv materiallari nogironligi bo'lgan shaxs uchun aynan o'sha natijaga erishish imkoniyatini bermasligi mumkin (masalan, zinapoyali binoga kirish uchun ko'p pul ham, oddiy eshik ham yetmaydi, pandus kerak). A.Sen nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha shaxsiy xususiyatlari (nogironlik turi) va jamiyatdagi to'siqlar tufayli, resurslarni farovonlikka aylantirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishini ko'rsatadi. Uning fikri bizni shunchaki "yordam" berishdan, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning teng darajada "faoliyat yuritishi" uchun to'siqlarni (jismoniy, ijtimoiy, institutsional) olib tashlashga undaydi. Ushbu yondashuv Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) falsafasining markazida turadi: agar biz hech kim e'tibordan chetda qolmasin desak, nogironligi bo'lgan shaxslarning BRMni o'z hayotlarida to'liq amalga oshirish imkoniyatini yaratishimiz shart. Ya'ni, ta'lim, bandlik va sog'liqni saqlashga rasmiy ruxsat berish emas, balki ularning bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishini ta'minlash lozim.

R.Rieser integratsiyadan inklyuzi-yaga o'tishda jamiyatning nogironlikka bo'lgan munosabatini o'zgartirish zarur-ligini ta'kidlaydi. U nogironlikning ijtimo-y modelini BRM uchun asos qilib oladi [2]. Integratsiya va inklyuziya farqi – R.Rieser aynan mana shu farqni ajratib ko'rsatgani muhim. Integratsiyada nogironligi bo'lgan shaxs mavjud tizimga moslashishga majbur bo'ladi (ya'ni, maktabga kirishi uchun qo'shimcha xizmatlar topishga harakat qiladi). Bu nogironlikning tibbiy modeliga yaqin turadi. Inklyuziyada esa, tizimning o'zi shaxsning ehtiyojiga mos ravishda o'zgaradi (ya'ni, maktab o'quvchi qabul qilingandan keyin pandus o'rnatadi, o'quv dasturini moslashtiradi). Bu nogironlikning ijtimoiy modeliga asoslanadi. R.Rieserning nogironlikning ijtimoiy modelini BRM uchun asos qilib olishi to'g'ri yondashuvdir. Ijtimoiy model nogironlikning sababini shaxsning kasalligida emas, balki jamiyat tomonidan yaratilgan to'siqlarda (masalan, zinapoyalar,

moslashmagan ta'lim usullari, kamsituvchi qonunlar) ko'radi. BRMning maqsadi tenglik va barqarorlik bo'lgani uchun, muammoni nogironligi bo'lgan shaxsdan olib, jamiyatning tuzilishiga yuklash (ijtimoiy model) BRM ruhiga to'liq mos keladi. O'zbekiston kabi BRMni joriy qilayotgan mamlakatlarda R.Rieserning bu chaqirig'i juda dolzarb. Nogironligi bo'lgan shaxslarni shunchaki ijtimoiy himoya obyekti deb bilishdan voz kechib, ularni jamiyatning faol, teng huquqli ishtirokchisi sifatida qabul qilish lozim. Bu nafaqat qonunlarni o'zgartirish, balki mahalliy darajadagi munosabatni, stereotiplarni va qarashlarni tubdan isloh qilishni talab qiladi.

T.Shakespeare nogironlik nazariyasiga doir tanqidiy yondashuvni rivojlantirib, huquqlar himoyasini kuchaytirishda o'z-o'zini himoya qilish harakatlarining rolini muhim, deb biladi[3]. T.Shakespeare nogironligi bo'lgan shaxslarni passiv yordam oluvchilar yoki faqatgina davlat himoyasiga muhtoj shaxslar sifatida ko'rishdan voz kechishni talab qiladi. Aksincha, ularni o'z hayotiy qarorlarini qabul qiluvchi, o'z huquqlari uchun kurashuvchi subyektlar (agentlar) sifatida tan olish kerak. Bu Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning ishtirokchilik va egalik tamoyiliga to'liq mos keladi. Siyosatning legitimligi: o'z-o'zini himoya qilish harakatlari qanchalik kuchli bo'lsa, davlat tomonidan qabul qilinayotgan qonun va siyosatning nogironligi bo'lgan shaxslarning haqiqiy ehtiyojlariga mos kelishi shunchalik ta'minlanadi. Agar siyosat faqat tepadan ishlab chiqilsa, u odatda amalda samarasiz bo'lib qoladi. Shuning uchun, O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning nodavlat tashkilotlari (NNT) va jamoat birlashmalarini qo'llab-quvvatlash huquqiy himoyani kuchaytirishning asosiy strategiyasi hisoblanadi.

Harakatning transformatsion kuchi: o'z-o'zini himoya qilish nogironligi bo'lgan shaxslarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularga o'z qadr-qimmatini anglashga yordam beradi. Bu esa, ularning jamiyatda to'liq va samarali ishtirok etishi uchun zarur bo'lgan psixologik va ijtimoiy kapitalni yaratadi. T.Shakespearening fikri huquqiy himoyani shunchaki qonunlarni qabul qilish bilan cheklamasdan, balki

nogironligi bo'lgan shaxslarning o'z ovozigaga ega bo'lishi va o'z taqdirini o'zlari belgilash kuchini ta'minlash orqali demokratik inklyuziyani chuqurlashtirishga chaqiradi. BRM tasnifida bu huquqiy islohotlarning barqaror va amaliy bo'lishining kalitidir.

S.Mitra BRM va nogironlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga jalb qilish muhimligini ko'rsatadi [4]. Shahra Mitraning bu tahlili BRMga erishishning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy zaruriyat ekanini ta'kidlashi bilan juda muhim. U nogironlik masalasini xayriya yoki ijtimoiy himoya doirasidan olib chiqib, milliy iqtisodiy strategiya darajasiga ko'taradi. Iqtisodiy mantiqiy asos: S.Mitra asosan shuni ko'rsatadiki, nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy jarayonlardan chetda qoldirish nafaqat adolatsizlik, balki milliy yalpi ichki mahsulot (YaIM) uchun katta yo'qotishdir. Ular ish bilan band bo'lsa, iste'molchi bo'ladi, soliq to'laydi va iqtisodiy yuk bo'lish o'rniga, iqtisodiy faollikka hissa qo'shadi. O'zbekiston uchun bu, ayniqsa, BRM-8 (Munosib ish va iqtisodiy o'sish) maqsadiga erishishda markaziy yondashuv bo'lishi kerak. BRMning to'liq imkoniyati: BRM "hech kimni e'tibordan chetda qoldirmaslik"ka asoslangan. Agar nogironligi bo'lgan shaxslar iqtisodiy rivojlanish jarayoniga faol jalb etilsa, bu kambag'allikni qisqartirish (BRM-1) va tengsizlikni kamaytirish (BRM-10) maqsadlariga erishishni keskin tezlashtiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning oilalari ko'pincha qashshoqlik darajasida yashaydi, ularning ish bilan ta'minlanishi butun oilaning iqtisodiy holatini o'zgartiradi. Inklyuzivlikka investitsiya: S.Mitraning ishi bizni inklyuziv ta'lim, qulay infratuzilma va moslashgan ish joylariga qilingan investitsiyalar shunchaki xarajat emas, balki yuqori daromad keltiruvchi sarmoya ekaniga ishonтиради. Chunki bu sarmoya jamiyatning to'liq salohiyatidan foydalanish imkonini beradi. Xulosa: S.Mitraning yondashuvi nogironlikni inson huquqlari nuqtai nazaridan himoya qilish bilan birga, iqtisodiy foydalilik nuqtai nazaridan ham muhim ekanini isbotlaydi. O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasida nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy

integratsiyasini ustuvor yo'nalishga aylantirish BRMga erishishning samarali va barqaror yo'li hisoblanadi.

A.Kanter BMT Konvensiyasini amalga oshirish jarayonida milliy qonunchilik va amaliyotlarni uyg'unlashtirishning ahamiyatiga urg'u beradi [5]. Kanterning bu fikri, ayniqsa, O'zbekiston kabi xalqaro shartnomalarni nisbatan yaqinda ratifikatsiya qilgan mamlakatlar uchun katta amaliy ahamiyatga ega. U huquqiy islohotlarning samaradorligini ta'minlashning asosiy shartini ko'rsatib beradi. Huquqiy bo'shliqlarni to'ldirish: Normativ-huquqiy kafolatlar tizimi kompleksi (NHKTK) global minimal standartlarni belgilaydi, biroq uni har bir mamlakatning o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga moslashtirish talab etiladi. Agar milliy qonunchilik, masalan, nogironlikning tibbiy modeliga asoslanishda davom etsa, Konvensiyaning ijtimoiy modelga asoslangan ruhi amalda ro'yobga chiqmaydi. A.Kanterning urg'usi aynan mana shu konseptual uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan. Amaliyotning muhimligi: Qonunlarni qabul qilish bir masala, lekin ularni amalga bajarish – butunlay boshqa masala. Muallif, ehtimol, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda qonunlar mavjud bo'lsa-da, amaliyotda byurokratik to'siqlar, mablag' yetishmasligi yoki xabardorlikning pastligi sababli ularning ishlamasligini nazarda tutgandir. O'zbekiston sharoitida inklyuziv ta'lim, qulay infratuzilma va bandlik kvotalari kabi masalalarda qonunlar qabul qilinganidan keyin, ijro mexanizmlari va monitoring kuchaytirilishi kerak. BRM bilan aloqa: BRMga erishish uchun bu uyg'unlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy qonunchilik Konvensiya tamoyillariga to'liq mos bo'lsa, BRM-10 (Tengsizlikni kamaytirish) va BRM-16 (Adolat va tinchlik) kabi maqsadlar uchun mustahkam asos yaratiladi. Qonunlar, amaliyot va BRM maqsadlari o'rtasidagi uyg'unlik davlat siyosatining izchilligini ta'minlaydi. Xulosa: A.Kanterning fikri shunchaki huquqiy bo'lish bilan kifoyalanmasdan, balki siyosatni amaliy, izchil va Konvensiya ruhiga mos tarzda amalga oshirishga da'vat etadi. O'zbekistonda BRM doirasida nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda bu – qog'ozdagi

islohotlardan real ijtimoiy o'zgarishlarga o'tishning asosiy shartidir.

N.Groce sog'liqni saqlash sohasida nogironligi bo'lgan shaxslarning cheklolarga uchrashi BRM-3 (Yaxshi sog'liq)ga erishishga to'sqinlik qilishini isbotlaydi[6]. N.Groce'ning ishi BRMning muhim, ammo ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan jihatiga – sog'liqni saqlashda tengsizlik masalasiga urg'u beradi. Uning xulosasi nogironlikni ijtimoiy himoya doirasidan olib chiqib, umumiy sog'liqni saqlash siyosati markaziga qo'yish zarurligini ko'rsatadi. BRM-3ning inklyuzivligi: BRM-3 maqsadida "barcha yoshdagi barcha odamlar uchun sog'lom turmush tarzini ta'minlash va farovonlikni rag'batlantirish" nazarda tutilgan. N.Groce nogironligi bo'lgan shaxslar tibbiy xizmatlardan foydalanishda jismoniy (qulaylik), moliyaviy (arzonlik) va munosabatga oid (diskriminatsiya) to'siqlarga duch kelishi sababli, bu maqsadga to'liq erishib bo'lmazligini isbotlaydi. Kaskadli ta'sir (Cascade Effect): Nogironligi bo'lgan shaxslarning sifatli sog'liqni saqlash xizmatlariga cheklangan kirishi ularning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'liqning yomonlashuvi ta'lim olish (BRM-4), ish bilan bandlik (BRM-8) va kambag'allikdan chiqish (BRM-1) imkoniyatlarini pasaytiradi. Shu tariqa, N.Groce BRM-3 muvaffaqiyatsizligi boshqa barcha BRMlarga xavf solishini ko'rsatadi. O'zbekiston sharoiti: O'zbekistonda tibbiyot muassasalarining qulayligi, tibbiyot xodimlarining nogironlik masalalarida inklyuziv bilim va ko'nikmalari hamda dori vositalarining arzonligi masalalarida to'siqlar mavjud. N.Groce O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini nogironlikka sezgir tahlil asosida isloh qilish zarurligini jiddiy dalillaydi. Tibbiy xizmatlar faqat davolashga emas, balki reabilitatsiya va yordamchi texnologiyalarni o'z ichiga olgan keng qamrovli xizmatlarga yo'naltirilishi lozim. Xulosa: N.Groce'ning tahlili shuni ko'rsatadiki, BRM-3ga erishishning yagona yo'li – nogironligi bo'lgan shaxslarning sog'liqni saqlash huquqlarini ustuvor va majburiy, deb bilishdir. Sog'liqni saqlash tizimini inklyuziv qilish butun jamiyatning farovonligiga xizmat qiladi.

A.X.Saidov O'zbekistonda inson huquqlari sohasidagi islohotlar va BMT Konvensiyasining milliy qonunchilikka implementatsiyasi masalalarini yoritadi[7]. A.X.Saidovning ishi O'zbekistonda NHKTKning ratifikatsiya qilinishi bilan boshlangan huquqiy o'zgarishlar davrining asosiy xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslab beradi. Bu ish BRM kesimida mamlakatdagi o'zgarishlarni tushunish uchun nihoyatda muhim. Huquqiy transformatsiyaning e'tirofi: A.X.Saidov O'zbekistonda "Inson qadri uchun" degan ustuvor tamoyil amalga oshirilayotgan bir sharoitda, NHKTK ratifikatsiyasi milliy qonunchilikni tibbiy modeldan ijtimoiy modelga o'tkazish uchun huquqiy zamin yaratganini ta'kidlaydi. Bu shuni anglatadiki, nogironlik masalasi endi shunchaki ijtimoiy nafaqa to'lash emas, balki to'liq huquqiy tenglikni ta'minlash masalasiga aylandi. Implementatsiyaning murakkabligi: Uning ishida Konvensiyani milliy qonunchilikka implementatsiya (joriy etish) masalalari yoritilishi dolzarbdir. Chunki xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilishning o'zi yetarli emas. Eng katta qiyinchilik amaldagi kodekslar, qonunosti hujjatlar va jamoat amaliyotini Konvensiya ruhiga mos ravishda to'liq qayta ko'rib chiqishda yotadi. Ayniqsa, ta'lim, mehnat, sog'liqni saqlash va sud-huquq sohalarida aniq mexanizmlar va javobgarlikni belgilash talab etiladi. BRM uchun nazariy asos: A.X.Saidovning ishi BRMning

10-maqsadi (Tengsizlikni kamaytirish) va 16-maqsadi (Adolatli institutlar) uchun O'zbekistonda yaratilgan nazariy asosdir. Huquqiy islohotlar qanchalik mustahkam bo'lsa, inklyuziv ta'lim (BRM-4) yoki munosib ish (BRM-8) kabi ijtimoiy maqsadlarga erishish shunchalik osonlashadi. Xulosa: A.X.Saidovning tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini himoya qilishda siyosiy iroda va huquqiy bazaga ega. Endilikda ustuvor vazifa huquqiy uyg'unlikni amaliyotga to'liq tatbiq etish, ya'ni qonunlarni kundalik ijtimoiy va iqtisodiy hayotga singdirish hisoblanadi.

I.A.Karimov nogironligi bo'lgan shaxslarni kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlashning

ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilgan [8]. I.A.Karimovning ushbu mavzuni tahlil qilishi BRM yo'nalishida, xususan, BRM-8 (Munosib ish va iqtisodiy o'sish) maqsadiga erishish uchun juda asosiy va amaliy ahamiyatga ega. U nogironligi bo'lgan shaxslarni nafaqaxo'r emas, balki iqtisodiy resurs sifatida ko'rish muhimligini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvning muhimligi: muallifning yondashuvi masalani faqatgina ijtimoiy himoya yoki xayriya doirasida cheklamasdan, balki uni mehnat bozori va iqtisodiy samaradorlik bilan bog'laydi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlash nafaqat ularning shaxsiy qadr-qimmatini oshiradi, balki davlatning ijtimoiy yordamga sarflanadigan xarajatlarini kamaytiradi va soliq tushumlarini ko'paytiradi. Bu S.Mitranning iqtisodiy inklyuziya haqidagi fikrlariga to'liq mos keladi [4]. Mexanizmlarning dolzarbligi: I.A.Karimov aynan mexanizmlarni tahlil qilgani amaliy jihatdan foydali. O'zbekiston sharoitida bu mexanizmlar quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

Kasbga moslashtirilgan ta'lim: nogironlik turiga va zamonaviy bozor talablariga mos kasb-hunar o'rgatish.

Ish joylarini moslashtirish (reasonable accommodation): ish beruvchilar uchun moliyaviy rag'batlar yaratish.

I.A.Karimovning tahlili BRMga erishishda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga to'liq integratsiyasini ta'minlash eng samarali yo'l ekanini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston uchun nafaqat ijtimoiy siyosat, balki strategik iqtisodiy rivojlanish masalasidir.

G.N.Yusupova inklyuziv ta'limning O'zbekiston maktablaridagi holati va uni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan. Ta'limda qulay muhit yaratish zarurligini ilgari suradi[9]. Uning ishi BRM doirasida BRM-4 (Sifatli ta'lim) maqsadiga erishish uchun O'zbekistonda inklyuzivlikni ta'minlashda amaliy asos yaratadi. U ta'limda qulay muhit yaratish zarurligini ilgari surishi mutlaqo to'g'ri yondashuvdir.

BRM-4 bajarilishidagi markaziy nuqta: Inklyuziv ta'lim BRMning asosiy shartlaridan biridir.

Biroq ta'lim tizimini inklyuziv qilish faqat nogironligi bo'lgan bolalarni umumiy maktablarga qabul qilish bilan cheklanmaydi. G.N.Yusupova ta'kidlaganidek, qulay muhit yaratilmas ekan, ta'lim sifatli va teng bo'lmaydi. Qulay muhit deyilganda, faqat pandus va liftlar emas, balki o'quv materiallarining moslashtirilishi, o'qituvchilarning bilim darajasi va ijtimoiy munosabatlar ham tushuniladi.

Sh.R.Tursunov O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi muammolar va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy ishni amalga oshirgan[10]. Sh.R.Tursunovning tadqiqoti to'g'ridan-to'g'ri Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM)ning inklyuzivlik tamoyilini amalda qo'llash masalasini ko'taradi. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanishdagi muammolarni tahlil qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash uchun eng zarur amaliy qadamlarni aniqlashga yordam beradi. Muammoning haqiqiy ko'lami: ijtimoiy xizmatlar, masalan: protezlash, reabilitatsiya, yordamchi uskunalar bilan ta'minlash yoki uyda parvarishlash xizmatlari nogironligi bo'lgan shaxslarning mustaqil hayot kechirishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Agar Sh.R.Tursunov ta'kidlaganidek, ushbu xizmatlardan foydalanishda byurokratik to'siqlar, sifatsizlik yoki yetishmovchilik mavjud bo'lsa, bu BMT Konvensiyasining (Konvensiyaning 19-moddasi – mustaqil yashash va jamiyatga qo'shilish) buzilishiga olib keladi. BRMga Ta'siri: Ijtimoiy xizmatlarga cheklangan kirish BRM-1 (Kambag'allikka barham berish) va BRM-3 (Yaxshi sog'liq) maqsadlariga erishishni qiyinlashtiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar xizmatlarga o'z vaqtida ega bo'lmasa, ularning sog'lig'i yomonlashadi va ish qobiliyati pasayadi, bu esa oilani qashshoqlikka olib kelishi mumkin.

A.M.Rasulov nogironlikning huquqiy asoslarini tahlil qilib, amaliyotda uchraydigan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha takliflar bergan[11]. U huquqiy siyosatning eng muhim jihat – nazariyani amaliyot bilan bog'lash zaruratiga urg'u beradi. Uning tahlili shuni ko'rsatadiki, qonunlar qanchalik mukammal bo'lmasin, agar ijro jarayonida byurokratik to'siqlar

mavjud bo'lsa, huquqiy himoya o'z kuchini yo'qotadi. Huquqiy himoyaning obyekti: qonunchilikda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun yaratilgan imtiyoz va huquqlar bilan real hayotda ulardan foydalanish jarayoni o'rtasidagi tafovutni ko'rsatadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar ko'pincha yordam yoki xizmat olish uchun uzoq navbatlar, ortiqcha hujjatlar yig'ish, turli organlar oralab yurish kabi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Bu BRM-16 (Adolatli institutlar) maqsadiga erishishga to'sqinlik qiladi. Byurokratiya – inklyuziyaning dushmani: Byurokratik to'siqlar nafaqat vaqt va resurslarni isrof qiladi, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatiga ziyon yetkazadi hamda ularning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi. Misol uchun, nogironlikni tasdiqlash uchun tez-tez tibbiy ko'riklardan o'tish zaruriyati tibbiy modelning qoldig'i bo'lib, bu BMT Konvensiyasining (NHKTK) ruhiyatiga zid.

Taklif-tavsiyalar

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularning hayot darajasini yaxshilash maqsadida BRMga erishish uchun quyidagi tavsiyalar bildiriladi:

Inklyuziv budjetlash tizimini joriy etish: davlat budjetlarini (markaziy va mahalliy darajada) shakllantirish jarayonida ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa ijtimoiy yo'nalishlardagi xarajatlar nogironligi bo'lgan shaxslarning ehtiyojlarini inobatga olgan, ya'ni nogironlikka sezgir tahlil asosida rejalashtirilishi zarur. Bunday yondashuv nogironlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, infratuzilma va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. S.Mitra[4] va Jahon banki [12] tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, nogironlikka sezgir siyosat va budjetlash mexanizmlarini qo'llash nafaqat ijtimoiy inklyuziyaning ta'minlaydi, balki iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.

Kompleks reabilitatsiya markazlarini rivojlantirish: nogironligi bo'lgan shaxslarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, kasbiy tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv va psixologik qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olgan "bir darcha" tamoyiliga asoslangan reabilitatsiya markazlarini har bir viloyatda

tashkil etish zarur. Bunday yondashuv nogiron shaxslarning sogʻligʻi va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni taʼminlaydi. N.Groce tomonidan ilgari surilgan nazariyaga koʻra, sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarning integratsiyalashuvi inklyuziv jamiyat barpo etishning asosiy shartlaridan biridir[6].

Bandlik kvota tizimini kuchaytirish: davlat va xususiy sektor korxonalarida nogironligi boʻlgan shaxslar uchun ajratiladigan ish oʻrinlari kvotasini oshirish hamda ushbu kvotaga rioya qilmagan subyektlarga soliq imtiyozlari oʻrniga jarima va kompensatsion toʻlovlar tizimini joriy etish zarur. Bunday yondashuv nogiron shaxslarning mehnat bozoriga integratsiyasini ragʻbatlantiradi va ularning iqtisodiy faolligini oshiradi. I.A.Karimov[8] hamda C.Barnes va G.Mercer[13] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bandlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy integratsiya va inson qadr-qimmatini taʼminlashdagi muhim rolini asoslab beradi.

Oʻz-oʻzini himoya qilish harakatlarini qoʻllab-quvvatlash: nogironligi boʻlgan shaxslarning jamoat birlashmalari va nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat grantlari va xalqaro donorlik mablagʻlari orqali moliyaviy qoʻllab-quvvatlash, ularning huquqiy bilimini oshirish hamda oʻz huquqlarini himoya qilish salohiyatini mustahkamlash zarur. Bunday yondashuv nogiron shaxslarning jamiyatdagi faolligini kuchaytiradi, ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning teng huquqli ishtirokchisiga aylantiradi hamda inklyuziv boshqaruv tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish BRMga erishishning shunchaki ijtimoiy vazifasi emas, balki iqtisodiy va huquqiy zaruratidir. Oʻzbekistonning BMT Konvensiyasini ratifikatsiya qilishi kuchli huquqiy asos yaratdi. Endilikda ustuvor vazifa statistik tahlil[14] asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, inklyuziv siyosatni moliyalashtirish va nogironligi boʻlgan shaxslarning jamiyatdagi faol ishtirokini taʼminlashdan iborat. Faqatgina shu yoʻl bilan “Hech kim

eʼtibordan chetda qolmaydi” degan BRM shiorini amalda roʻyobga chiqarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Sen. Development as freedom. Oxford University Press // <https://global.oup.com/academic/product/development-as-freedom-9780192893307?lang=en&cc=nl>
2. R.Rieser. Implementing inclusive education: A Commonwealth guide to implementing Article 24 of the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Commonwealth Secretariat.
3. T.Shakespeare. Disability rights and wrongs revisited. Routledge.
4. S.Mitra. Disability and the sustainable development goals: A perspective from the global South // The Review of Disability Studies. – №14 (1).
5. A.Kanter. The right to live in the community: A new perspective on the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities // Human Rights Quarterly. – №37 (1). – P.105-132.
6. N.Groce. Global goals, disability, and health: A critical analysis // The Lancet Global Health. – №5 (7). – P.658-659.
7. A.X.Saidov. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar va O'zbekiston qonunchiligi. Yuridik fanlar axborotnomasi. – №2. – B.15-25.
8. I.A.Karimov. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat bozoridagi o'rnini va bandligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va moliya. – B.78-85.
9. G.N.Yusupova. O'zbekistonda inkluziv ta'lim: Muammolar va yechimlar // Pedagogik ta'lim. – №5. – B.60-65.
10. Sh.R.Tursunov. Ijtimoiy himoya tizimida nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirish. – №4. – B.101-110.
11. A.M.Rasulov. Nogironlik huquqining nazariy va amaliy masalalari // O'zbekiston huquqiy axborotnomasi. – №3. – B.45-50.
12. World Bank. (2011). Disability and inclusive development: A world report.
13. C.Barnes & G.Mercer. (2005). The social model of disability: Introducing the concept // Disability and Society. – №20 (3). – P.275-290.
14. Davlat statistika qo'mitasi. (2023). O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar statistikasi.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLARNI MEHNAT MASHG'ULOTLARIDA KAMSITISHNI TAQIQLASH

Abdullayev Aziz Xamidulloyevich

“SHAROIT PLUS” nogironlar jamoat birlashmasi (Toshkent shahar),

Inklyuziv mehnat masalalari bo'yicha tadqiqotchi

Tel.: +998 93 660 19 97

Elektron pochta: aziz.abdullayev.x97@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat faoliyatida kamsitilmaslik masalalari yoritilgan. Muallif milliy va xalqaro huquqiy manbalar asosida kamsitish tushunchasini tahlil qilib, amaliy muammolarni, jumladan ish joylarida zarur sharoitlarning yaratilmasligini ko'rsatadi. Esonova Nargiza Nuriddinovnaning misolida nogironligi bo'lgan xodimlarning duch kelayotgan kamsitish holatlari tahlil qilingan. Maqolada mehnat kodeksiga alohida modda kiritish, ma'muriy va jinoyat javobgarligini belgilash, sudga murojaat qilish uchun zarur sharoitlar yaratish, monitoring tizimini kuchaytirish hamda nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning jamoat birlashmalarining faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Tadqiqot inklyuziv mehnat muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: nogironligi bo'lgan shaxslar, mehnat huquqlari, kamsitish, inklyuziv mehnat, Mehnat kodeksi, sudga murojaat, ijtimoiy himoya, ish beruvchi, bandlik, BMT konvensiyasi.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются вопросы недопущения дискриминации лиц с инвалидностью в сфере трудовой деятельности. Автор, опираясь на национальные и международные правовые источники, анализирует понятие дискриминации и выявляет практические проблемы, в частности отсутствие необходимых условий на рабочих местах. На примере Эсановой Наргизы Нуриддиновны проанализированы случаи дискриминации, с которыми сталкиваются работники с инвалидностью. В статье предлагается внести отдельную статью в Трудовой кодекс, установить административную и уголовную ответственность, создать необходимые условия для обращения в суд, усилить систему мониторинга, а также обеспечить активное участие лиц с инвалидностью и их общественных объединений. Исследование направлено на формирование инклюзивной трудовой среды.

Ключевые слова: лица с ограниченными возможностями, трудовые права, дискриминация, инклюзивный труд, трудовой кодекс, обращение в суд, социальная защита, работодатель, занятость, Конвенция ООН.

ANNOTATION

The article examines issues related to preventing discrimination against persons with disabilities in the field of employment. Relying on national and international legal sources, the author analyzes the concept of discrimination and identifies practical problems, particularly the lack of necessary working conditions in workplaces. Using the example of Nargiza Nuriddinovna Esanova, cases of discrimination faced by employees with disabilities are analyzed. The article proposes introducing a separate article into the Labor Code, establishing administrative and criminal liability, creating the necessary conditions for access to justice, strengthening the monitoring system, and ensuring the active participation of persons with disabilities and their public associations. The study is aimed at fostering an inclusive working environment.

Keywords: persons with disabilities, labor rights, discrimination, inclusive labor, Labor Code, appeal to the court, social protection, employer, employment, UN Convention.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat mashg'ulotlarida kamsitish nima?

Mehnat mashg'ulotlarida kamsitish O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 4-moddasida quyidagicha aks ettirilgan[2]: *Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek, xodimlarning ishchanlik sifatleri va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek, biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitishdir.*

O'z navbatida, nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat mashg'ulotlarida kamsitish yoki nogironlik belgisi bo'yicha diskriminatsiya qilish masalalari BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasida alohida aks ettirilgan[1]. Konvensiyaning

2-moddasida “nogironlik belgisi bo'yicha kamsitish” – maqsadi yoki natijasi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaro yoki har qanday boshqa sohada boshqalar bilan teng holda insonning barcha huquqlari va asosiy erkinliklarining e'tirof etilishi yoki amalga oshirilishini kamsitadigan yoki rad etadigan har qanday tafovut, istisno yoki cheklashni anglatadi. U kamsitishning barcha shakllarini, shu jumladan oqilona moslashtirishdan voz kechishni qamrab oladi.

Shuningdek, Konvensiyaning 27-moddasida: a) bandlikning barcha shakllarida, shu jumladan ishga qabul qilish, yollash va bandlik, ish joyini saqlab qolish, xizmat lavozimida ko'tarilish, xavfsiz va sog'lom mehnat sharoitlariga taalluqli masalalarda nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishni man etish belgilangan [1; 7].

O'zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida”gi Qonunida ham nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha alohida normalar mavjud[3]. Masalan, bundan bir necha yil oldin I guruh nogironlikka ega shaxslarning nogironligini tasdiqlovchi hujjatlarida mehnat tavsiyalari bo'limida “ishga layoqatsiz” deb yozilar edi[5].

Nogironlarni ish bilan ta'minlashning asosiy to'siqlaridan biri – Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TIEK) tomonidan berilgan nogironlik to'g'risidagi guvohnomadagi «mehnatga yaroqsiz», «nogiron» yoki «maxsus yaratilgan sharoitlarda mehnatga yaroqli» deb yozilgan kamsituvchi xulosalaridir, - deyiladi *Gazeta.uz*da chop etilgan maqolada. Tabiiyki, nogironlikni tasdiqlovchi hujjatda bu kabi tavsiyalarning qayd etilishi nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat

mashg'ulotlarida kamsitish, ularning mehnat huquqlarini cheklash hisoblanadi. Amaliyotda mazkur hujjat ortidan ish topishda qiyinchiliklarga uchragan nogironligi bo'lgan shaxslar mavjud.

Bu holat ayniqsa nogironligi bo'lgan shaxslar ish so'rab bandlik organlariga murojaat qilganlarida, bandlik xodimlari nogironligi bo'lgan ish izlovchilarga hujjatdagi yozuvni o'zgartirish yoki hujjatga qaysi ishlarni shaxs bajara olishi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotni Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalaridan olish talabini qo'yanlar. Bundan tashqari, mustaqil ishga joylashmoqchi bo'lgan nogironligi bo'lgan shaxslar ham hujjatida “ishga layoqatsiz” yozuvi mavjudligi sababli ish beruvchi tomonidan rad javobini olgan. Bu holat nogironligi bo'lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarining buzilishi hisoblanar edi.

Bugungi kunda ham mehnat bozorida ish beruvchilar tomonidan shaxsning nogironligi mavjudligi sababli ishga qabul qilishni rad etish, nogironligi bo'lgan xodim uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratmaslik, nogironligi bo'lgan xodimlar uchun mehnat qonunchiligida belgilangan huquqlarni cheklash kabi bir qancha kamsituvchi holatlar mavjud[6]. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat mashg'ulotlarida kamsitishga uchrashi aslida tizimli muammo hisoblanib, mazkur holatlarning oldini olishga nafaqat ish beruvchilar balki butun jamiyat masul hisoblanadi. Ko'plab holatlarda nogironligi bo'lgan shaxslarning uyidan ish joyigacha mustaqil harakatlanish imkoniyatlari ham cheklanmoqda shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar mehnat mashg'ulotlarini amalga oshirish jarayonida ish joyida mustaqil harakatlanish, ish beruvchi bilan o'ziga qulay shaklda kommunikatsiyaga kirishish, va to'laqonli mehnat huquqlarini amalga oshirishda sharoitlarning yaratilmasligi ham kamsitish hisoblanadi. Nogironligi bo'lgan xodim uchun mehnat sharoitlarini yaratish ko'p jihatdan ish beruvchi tashkilotga bog'liq. Masalan Toshkent Shahar SHAROIT PLUS nogironlar jamoat birlashmasi Tomonidan 2021-yildan hozirgi kungacha www.ishplus.uz maxsus rekruting veb portali orqali ochiq mehnat bozorida nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligini ta'minlash loyihasini amalga oshirish jarayonida ish beruvchi nogironligi bo'lgan xodimi uchun mehnat sharoitlarini yaratmaganligi natijasida xodimning ishdan ketishi holatlari kuzatilgan. Masalan, Esonova Nargiza Nuriddinovna–2-guruh nogironligi bo'lgan fuqarolardan biri. U kasbi bo'yicha tikuvchi. 2022-yil 7-noyabrdan boshlab www.ishplus.uz loyihasi doirasida “GLOBAL TEXTILE GROUP” MChJda mehnat faoliyatini boshlagan. Biroq, 2022-yil 21-noyabrda o'z xohishiga ko'ra ishdan bo'shagan. Nargizaning so'zlariga ko'ra, ish joyi yaxshi tashkil etilgan bo'lib, barcha zarur sharoitlar mavjud edi. Ammo ayrim hollarda tayyor mahsulotlarni ko'tarish talab

qilinardi. Mazkur ishlarni bajarish Nargizaga ish beruvchi tomonidan xodimining nogironlik holatidan kelib chiqib zarur sharoitlarni yaratmaganligi natijasida qiyinchiliklar yuzaga keltirdi. Buning natijasida xodim o'z xohishiga ko'ra ish joyidan bo'shagan. Ish beruvchining ta'kidlashicha, Nargiza ish jarayonida bir qo'li bilan tikish jarayonida qiynalgan va ayniqsa qalin matodan tayyorlanadigan kiyimlarni tikishda yordamchi so'ragan. Biroq korxona tomonidan unga yordamchi ajratilmagan. Mazkur holatni ham nogironligi bo'lgan xodimni mehnat mashg'ulotlarida kamsitishga uchragan deb hisoblash mumkin. Bu holatda ish beruvchi muammoni nogironligi bo'lgan xodimdan deb bilmoqda. Asosiy muammo esa ish joyida zarur sharoitlarning yaratilmaganligi bilan bog'liq. Shu o'rinda etiboringizni BMT ning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida aks ettirilgan nogironlik tushunchasiga qaratmoqchimiz e) nogironlik – bu tadrijiy rivojlanib boruvchi tushuncha, nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to'siqlari o'zaro munosabatlari natijasi bo'lib, va bu ularning jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga xalaqit berishini tan olib[1] Konvensiya ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqlar mavjudligi natijasida nogironlik holati yuzaga kelishini qayd etmoqda.

Bir jihatni alohida ta'kidlash kerakki, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan alohida g'amxo'rlik kamsitish hisoblanmaydi. Bu jihat O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida: *Mehnat va mashg'ulotlar sohasida xodimlarning huquqlarini mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki yuqoriroq ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar (oilaviy vazifalarni bajarish bilan band bo'lgan shaxslar, voyaga yetmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va boshqalar) to'g'risidagi alohida g'amxo'rlik bilan bog'liq holda asoslangan tarzda farqlash, istisno etish, ularga afzallik berish, shuningdek ularni cheklash kamsitish deb hisoblanmaydi, [2]* deb belgilangan.

Mehnat mashg'ulotlarida kamsitishga uchragan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlash bilan bog'liq muammolar

Afsuski, mehnat mashg'ulotlarida nogironlik belgisi bo'yicha kamsitmaslik qonunchilikda aks ettirilgan bo'lsa-da, bu sohada kamsitilgan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini tiklash bilan bog'liq muammolar mavjud.

Mehnat kodeksining 4-moddasida: *Mehnat va (yoki) mashg'ulotlar sohasida o'zini kamsitilgan deb hisoblagan shaxs kamsitilish fakti ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilishi, shu jumladan kamsitishni bartaraf etish hamda o'ziga yetkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash va ma'naviy ziyonning kompensatsiya qilinishi to'g'risidagi*

ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin [2]; deb belgilangan.

Ammo nogironligi bo'lgan shaxs mehnat mashg'ulotlari sohasida kamsitilganda, ma'muriy javobgarlikning qaysi moddasi asosida kvalifikatsiya qilinishi haqida noaniqliklar mavjud. Shu kunga qadar tajribamizda o'zini mehnat mashg'ulotlarida nogironlik belgisi bo'yicha kamsitilgan deb hisoblagan nogironligi bo'lgan shaxs sudga murojaat qilib, o'z huquqlarini tiklaganligini bilmaymiz.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 51¹-moddasi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish" deb nomlanib, quyidagicha ifodalangan [4]. *Nogironligi bo'lgan shaxslarga binolardan, inshootlardan, transportdan, axborotdan va aloqa vositalaridan, shu jumladan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va tizimlaridan moneliqsiz foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, mehmonxonalarning mulkdorlari tomonidan umumiy xonalar fondining kamida bitta xonasini o'rindiqli aravachadan foydalanadigan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay tarzda jihozlash bo'yicha talablarni bajarmaganlik – mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi. Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.*

Ushbu choralar, tabiiyki, nogironligi bo'lgan shaxslarning ko'rsatilgan huquqlari cheklanganida o'z huquqlarini tiklash imkoniyatlarini yaratadi, ammo nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat mashg'ulotlarida kamsitilganlik holatlarini oldini olishga imkon bermaydi.

Mehnat kodeksida mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitish tushunchasi to'liq ochib berilgan bo'lsa-da, aynan nogironlik belgisi sababli mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitilish jihatlariga alohida e'tibor berilmagan. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: nogironlik belgisi sababli mehnat mashg'ulotlarida kamsitishning aniq holatlari qanday? Bu jihat ham milliy qonunchilikda tartibga solinmagan.

Bu holat aynan nogironlik belgisi bo'yicha mehnat mashg'ulotlarida kamsitilishga duch kelgan shaxslarning sudga qanday tartibda asoslantirilgan holda murojaat qilishlarini savol ostida qoldirmoqda. Bundan tashqari, mehnat va mashg'ulotlarda kamsitilish darajalari ishlab chiqilmagan.

Masalan, ayollarning nogironligi bo'lgan taqdirda, ular oila a'zolari yoki vasiylari tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka nogironligi

bo'lmagan ayollarga qaraganda 1,5 – 10 baravar ko'proq duch keladilar. Nogironligi bo'lgan ayollar orasida bandlik darajasi atigi 19,6 foizni tashkil etadi [8], nogironligi bo'lgan erkaklar orasida esa bu ko'rsatkich 52,8 foizga yetadi, nogironligi bo'lmagan ayollar orasida esa 29,9 foizni tashkil etadi.

Mazkur statistika aynan nogironligi bo'lgan ayollarning mehnat mashg'ulotlarida ko'proq kamsitilishi holatlarini taqdim qilmasa ham, jamiyatda ularning to'laqonli huquqlarini ta'minlash borasida qator muammolar borligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, mehnat mashg'ulotlarida kamsitish holatlarini bartaraf etish va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat mashg'ulotlarida kamsitilganlik darajalarini yuqoridagi omillardan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Kamsitilish darajalarini qonunchilikda belgilash muhim ahamiyatga ega. Kamsitilish oqibatlari ham nogironlik holatidan shaxsning ijtimoiy himoyaga muhtojlik darajasidan kelib chiqib belgilanishi kerak.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat mashg'ulotlarida kamsitilmaslik choralari ishlab chiqish bo'yicha takliflar

1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat mashg'ulotlarida kamsitilmaslik tushunchasini ochib beruvchi alohida modda kiritilishi kerak. Ushbu moddada nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat mashg'ulotlarida kamsitilish tushunchasi, kamsitilish turlari, kamsitilish darajalari hamda kamsitilish holatlari tushunchalari ochib berilishi va javobgarlik belgilanishi kerak.

2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasining Jinoyat javobgarligi to'g'risidagi kodeksida nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat mashg'ulotlarida kamsitilish darajalari, sabab va oqibatlarini hisobga olgan holda javobgarlikni belgilash.

3. O'zini mehnat mashg'ulotlarida kamsitilgan deb hisoblagan shaxs mustaqil ravishda sudga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish tartiblarini belgilash va murojaat qilish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash.

4. Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat mashg'ulotlarida kamsitilishining oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tarkibiga kiruvchi Ijtimoiy inspeksiya tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar ishlovchi korxona va tashkilotlarda doimiy monitoringlarni tashkil etish choralari ko'rish.

5. Nogironlik belgisi bo'yicha mehnat va mashg'ulotlar sohasida kamsitishni oldini olishga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirishda nogironligi bo'lgan shaxslar va ularning jamoat birlashmalarining ishtirokini ta'minlash.

Iqtibozlar/Сноски/References:

1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi (Convention on the Rights of Persons with Disabilities). OHCHR // <https://www.ohchr.org>.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi // Lex.uz – <https://lex.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuni // Lex.uz – <https://lex.uz>.
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi // Lex.uz – <https://lex.uz>.
5. Gazeta.uz. Nogironlikni tasdiqlovchi hujjatlardagi kamsituvchi yozuvlar haqida // <https://www.gazeta.uz>.
6. IshPlus loyihasi (Sharoit Plus nogironlar jamoat birlashmasi) // Maxsus rekruting veb-portali – <https://www.ishplus.uz>.
7. United Nations Department of Economic and Social Affairs (UNDESA). "Article 27 – Work and Employment" // <https://social.desa.un.org>.
8. International Disability Alliance (IDA). Article 27 CRPD: Work and Employment // <https://www.internationaldisabilityalliance.org>.

ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ КАФОЛАТЛАРИ

Umida Sharahmetova

Toshkent davlat yuridik universiteti
Fuqarolik huquqi kafedrası professori,
yuridik fanlar doktori
Elektron pochta: Sharahmetova74@list.ru
Tel.: +998 97 464 00 68

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada voyaga yetmaganlarning oilaviy-huquqiy maqomi, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlari nazariy hamda amaliy jihatdan yoritilgan. Oilaviy-huquqiy munosabatlarda sub'yektlarning huquqiy layoqati, huquq va majburiyatlarning kelib chiqishi, shuningdek, davlat tomonidan taqdim etiladigan kafolatlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida voyaga yetmaganlarning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi, ota-ona mas'uliyati, vasiylik va homiylik institutlari, shuningdek, surrogat onalik va reproduktiv texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy muammolar ko'rib chiqilgan. Amaldagi qonunchilikning ayrim bo'shliqlari hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlari asoslab berilgan. Muallifning fikricha, voyaga yetmaganlarning huquqlarini samarali himoya qilish uchun milliy qonunchilikni xalqaro normalarga uyg'unlashtirish, oilaviy-huquqiy munosabatlarda zaif qatlamlarga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu maqola oila institutini mustahkamlash va jamiyat barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, oilaviy-huquqiy munosabatlar, huquqiy layoqat, ota-ona mas'uliyati, vasiylik va homiylik, surrogat onalik, huquqlarni himoya qilish, qonunchilikni takomillashtirish, oilaviy huquqlar, ijtimoiy himoya.

ПРАВОВЫЕ ГАРАНТИИ ЗАЩИТЫ ПРАВ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Умида Шарахметова

Профессор кафедры гражданского права,
Ташкентский государственный юридический университет
Доктор юридических наук
E-mail: Sharahmetova74@list.ru

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются семейно-правовой статус несовершеннолетних, их права и механизмы защиты интересов в теоретическом и практическом аспектах. Анализируется правосубъектность участников семейно-правовых отношений, возникновение прав и обязанностей, а также значение гарантий, предоставляемых государством. В ходе исследования раскрыты вопросы права несовершеннолетних на проживание и воспитание в семье, ответственность родителей, деятельность институтов опеки и попечительства, а также правовые проблемы, связанные с суррогатным материнством и репродуктивными технологиями. Обоснованы отдельные пробелы действующего законодательства и направления их совершенствования. По мнению автора, для эффективной защиты прав несовершеннолетних необходимо гармонизировать национальное законодательство с международными нормами, уделить особое внимание уязвимым категориям в семейно-правовых отношениях. Настоящая статья направлена на укрепление института семьи и обеспечение стабильности общества.

Ключевые слова: несовершеннолетние, семейно-правовые отношения, правоспособность, ответственность родителей, опека и попечительство, суррогатное материнство, защита прав, совершенствование законодательства, семейные права, социальная защита.

LEGAL GUARANTEES FOR THE PROTECTION OF MINORS' RIGHTS

Umida Sharahmetova

Professor of the Department of Civil Law
Tashkent State Law University,
Doctor of Law
E-mail: Sharahmetova74@list.ru

ANNOTATION

This article examines the family-legal status of minors, their rights, and mechanisms for protecting their interests from both theoretical and practical perspectives. The analysis focuses on the legal capacity of participants in

family-legal relations, the emergence of rights and obligations, as well as the significance of state-provided guarantees. The study highlights the right of minors to live and be raised in a family, parental responsibilities, the role of guardianship and custody institutions, as well as legal issues related to surrogacy and reproductive technologies. Certain gaps in the current legislation and directions for its improvement are substantiated. According to the author, in order to ensure effective protection of minors' rights, it is necessary to harmonize national legislation with international norms and pay special attention to vulnerable groups within family-legal relations. This article aims to strengthen the institution of the family and ensure social stability.

Keywords: minors, family-legal relations, legal capacity, parental responsibility, guardianship and custody, surrogacy, protection of rights, legislative improvement, family rights, social protection.

O'zbekistonning oilaviy-huquqiy siyosatida oilani mustahkamlashga, er-xotin va ota-ona huquqiy munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan davlat-huquqiy ta'sirning ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda, bu esa fuqarolarga oilada o'z ehtiyojlarini qondirish va avlodni davom ettirish imkonini beradi. Davlat tomonidan huquqlarni amalga oshirish va ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan tashkiliy-huquqiy kafolatlar ushbu masalalarni qayta ko'rib chiqish orqali mazmun bilan to'ldirilmoqda.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarning sub'yektlari bo'lib, er-xotinlar, ota-onalar (ularning o'rnidagi shaxslar), oilaning boshqa a'zolari hisoblanadilar. Aynan ushbu shaxslar oila qonunchiligida belgilangan huquq va majburiyatlar bilan o'zaro bog'liq hisoblanadilar va oila a'zolaridan birining huquqi ikkinchisi uchun majburiyat vazifasini o'taydi. Yu.I.Grevsovning ta'kidlashicha, "huquqiy munosabatlar o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, ... ammo xulq-atvori qonun ustuvorligi ta'sirida bo'lgan shaxslarning faoliyati bilan shakllanadi"³. Shunday qilib, subyektlarning o'zlari muayyan harakatlarni amalga oshirish orqali huquqiy munosabatlarni yaratadilar, masalan, nikohga kirish orqali erkak va ayol oilaviy huquq va majburiyatlarga ega bo'ladilar, maxsus mulk rejimini yaratadilar. Oilaviy huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, oilaviy-huquqiy munosabatlarning sub'yektlari faqat fuqarolar bo'ladi: mehnatga layoqatsiz (voyaga yetmagan bolalar), nogironlar (alimentga muhtoj, ota-onalar, aka-uka, opa-singillar, homilador xotin va boshqalar) va alohida parvarishga muhtoj bo'lgan boshqa shaxslar. Oila qonunchiligida (oilaviy huquq va muomala layoqatining ta'rifi keltirilmagan).

Shu munosabat bilan, ba'zi olimlar fuqarolik huquq layoqati bilan bog'liq holda, uning inson hayotining turli davrlarida turlicha hajmi haqida fikr yuritishadi. V.A.Belovning fikricha, ba'zi huquqlarga ega bo'lish va ba'zi majburiyatlarni bajarish layoqati fuqaro uchun ma'lum yoshga yetishi bilan yuzaga keladi va ma'lum yoshga kirishi bilan, huquq layoqatining ayrim qismlari to'xtaydi⁴.

Shuningdek, oila huquqida umumiy fuqarolik qonunchiligidan tashqari, shaxsning ma'lum bir oila a'zosi sifatida alohida huquq layoqati ham mavjud bo'lgan yondashuv mavjud bo'lib, bu bunday sub'yektga oldindan belgilangan shaxslarga nisbatan muayyan huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo'lish imkoniyatini beradi, shaxs qonunda belgilangan asoslar bo'yicha (nikoh, tug'ilish, otalikni belgilash va hokazo) ma'lum bir oilaga "qo'shilgan" paytdan boshlab kelib chiqadi⁵. Ko'rinib turibdiki, oila huquqida huquq layoqati doirasi turlicha. Demak, insonning huquq layoqatining elementi sifatida oilada yashash va tarbiyalash huquqi tug'ilgan paytdan boshlab paydo bo'ladi va bola 18 yoshga to'lganida tugaydi, shaxsning o'z fikrini bildirish huquqi 10 yoshda paydo bo'ladi va 14 yoshgacha mavjud bo'lib uning rozilik berish huquqi bilan almashadi va hokazo. Shuni ta'kidlash kerakki, biz muomala layoqati emas, shaxsning ma'lum yoshga yetgandan so'ng mustaqil xarakatlarni amalga oshirish imkoniyatining vujudga kelishi bilan, oilada yashash va tarbiyalanish huquqining tugashi, balki huquq layoqatining paydo bo'lishi vaqtlariga e'tibor qaratmoqdamiz.

Oilaviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi shaxslarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning o'ziga xos ehtiyojlari tufayli oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish aniq ijtimoiy yo'nalishga ega bo'ladi, bu yerda davlatning maqsadi kam himoyalangan subyektlarga zarur yordam ko'rsatishdir. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda yordamchi reproduktiv texnologiyalar institutlari tobora rivojlanib bormoqda. Ushbu institutni joriy etish bo'yicha mutlaqo qarama-qarshi pozitsiyalar bildirildi, ammo A.A.Flyagin ta'kidlaganidek, "agar ijtimoiy hayot hodisasi paydo bo'lgan va kengayib borayotgan bo'lsa, huquqshunoslarning uni huquqiy tartibga solish mexanizmlarini tadqiq etib, joriy qilishdan boshqa iloji yo'q, xususan, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan huquqiy tartibga solishning eng samarali usullarini taklif qilishdan o'zga chora yo'q"⁶. Demak, oilaviy huquqiy munosabatlarni hisobga olgan holda, surrogat ona va

³ Гревцов Ю.И. Проблемы теории правового отношения. – Ленинград: ЛГУ, 1981. – С.52.

⁴ Белов В.А. Гражданское право. Т.2. Общая часть. Лица, блага, факты. – М., 2012. – С.83-85.

Прокурор назоратининг асосий мақсади — ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқ ва эркинликларининг адолатли таъминланишига эришиш, уларнинг ҳуқуқлари бузилишининг олдини олиш ҳамда камситиш ҳолатларига чек қўйишдан иборат. Бу жараёнда прокурор органлари нафақат қонун устуворлигини таъминлайди, балки ижтимоий адолат ва тенг имкониятлар принципларини амалга оширишда муҳим кафил сифатида фаолият юритади.

Халқаро амалиётга назар ташласак, кўплаб ривожланган давлатларда прокурор назорати инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг муҳим ҳуқуқий механизми сифатида шакллانган. Масалан, Францияда прокуратура инсон ҳуқуқлари соҳасидаги махсус суд ишларида иштирок этиб, ногиронлиги бўлган шахсларга нисбатан камситиш ҳолатларини аниқлаш ва бартараф этиш бўйича жавобгарликни таъминлайди, Германияда прокурор органлари меҳнат ва таълим тизимида ногиронлиги бўлган шахсларга нисбатан тенг имкониятларни таъминлаш юзасидан мунтазам мониторинг олиб боради, АҚШда Эҳтиёжманд шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш прокуратуранинг махсус бўлинмалари — Civil Rights Division орқали амалга оширилади, улар фуқаролик ҳуқуқларини таъминлаш бўйича федерал қонунларни ижро этилишини назорат қилади.

Шунингдек, Европа Иттифоқи мамлакатларида ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича прокурор назорати кўп ҳолларда миллий омбудсман институтлари билан ҳамкорликда амалга оширилади. Бу модел инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги ваколатларни институционал жиҳатдан мустаҳкамлайди.

Дарҳақиқат, халқаро тажриба таҳлили шуни кўрсатадики, прокуратура инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи мустақил орган сифатида таснифлаш мумкин. Гарчи халқаро миқёсда прокуратура фаолиятини ташкил этишнинг умумэтироф этилган стандартлари ҳали мавжуд бўлмаса-да, бир қатор давлатлар қонунчилигида бу органнинг умумий ҳуқуқий хусусиятлари сақланиб қолган. Унга хос асосий вазифалар — қонун устуворлигини таъминлаш, адолатни қарор топтириш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш ҳамда давлат органлари фаолияти устидан назорат ўрнатишдан иборатдир.

Ўзбекистон учун ҳам мазкур тажрибаларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Мамлакатимизда ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида прокуратура органларининг ваколатлари кенгайиб бормоқда. Хусусан, қонун ҳужжатларининг ижроси устидан назорат олиб бориш, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари бузилиши ҳолатларини аниқлаш ва уларни тиклаш юзасидан тезкор чоралар

кўриш прокуратура фаолиятининг ажралмас қисмига айланган.

Хусусан, Европа микёсида прокурор органларининг фаолияти фақат жиноят ҳукуки соҳаси билан чекланиб қолмасдан, жамиятнинг инсон ҳуқуқлари ва жамоат манфаатларини таъминлашга бўлган эҳтиёжи билан ҳам белгиланади. Бугунги кунда Европанинг кўплаб давлатларида прокуратура тизими ҳуқуқни муҳофаза қилувчи орган сифатида нафақат жиноят ишларини кўриб чиқишда, балки фуқароларнинг конституциявий ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, маъмурий соҳада қонун устуворлигини кафолатлаш ва давлат органлари фаолияти устидан назорат ўрнатишда ҳам муҳим рол ўйнайди.

Европа Кенгашига аъзо давлатлар томонидан тасдиқланган “Прокуратуранинг жиноят ҳукуки доирасидан ташқаридаги роли тўғрисида”ги тавсия¹⁵ ҳамда Европа Кенгаши Вазирлар Кўмитасининг “Жиноят судлов тизимидан ташқарида прокурорларнинг роли тўғрисида”ги тавсиялари прокуратура органларининг ваколатларини кенгайтириш ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида уларнинг ўрнини кучайтиришга қаратилган муҳим халқаро ҳужжатлар ҳисобланади. Ушбу ҳужжатларда белгиланишича, прокурор органлари қуйидаги асосий вазифаларни амалга ошириши лозим¹⁶:

Қонун устуворлигини таъминлаш ва давлат органлари ҳамда мансабдор шахслар томонидан қонунбузарлик ҳолатларига йўл қўйилмаслиги устидан назорат олиб бориш;

Инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш, хусусан, жамиятнинг заиф қатламлари – ногиронлиги бўлган шахслар, кекса фуқаролар, болалар ва кам таъминланган аҳолининг манфаатларини муҳофаза этиш;

Жамоат манфаатларини таъминлаш мақсадида судга даъво киритиш, давлат идораларининг фаолиятида адолат ва шаффофликни таъминлаш;

Маъмурий ва фуқаролик иш юритишда иштирок этиш, жиноят ишларидан ташқарида ҳам қонун бузилишининг олдини олиш чораларини кўриш.

Европа тажрибасида прокурор назоратининг ушбу кенгайтирилган модели прокуратуранинг инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича универсал институтга айланишини таъминламоқда. Масалан, Франция ва Бельгияда прокурорлар ижтимоий адолатни таъминлаш бўйича давлат органлари фаолиятини қонунийлик нуқтаи назаридан баҳолайди, Нидерландияда прокуратура ногиронлиги бўлган шахслар манфаатларига доир

давлат дастурларининг бажарилишини назорат қилади, Италияда эса прокурорлар судгача бўлган босқичда инсон ҳуқуқлари бузилиш ҳолатларини аниқлаш ва бартараф этиш ваколатига эга.

Бу каби халқаро тавсиялар ва амалиётлар прокуратура фаолиятининг жиноят ишлари билан чекланиб қолмасдан, кенг маънода қонун устуворлигини таъминлашга йўналтирилганини кўрсатади. Шу билан бирга, бу тажриба инсон ҳуқуқлари соҳасида давлат масъулиятининг институционал кафолати сифатида прокуратуранинг ролини янада мустаҳкамлайди.

Ўзбекистон учун Европа тажрибаси ўрганишга арзийдиган йўналишлардан бири ҳисобланади. Мамлакатимизда ҳам прокуратура органлари фуқароларнинг, жумладан ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш борасида фаол иштирок этмоқда. Бу борада Европа Кенгаши тавсияларига мос равишда прокурор назоратининг профилактик ва инсонпарварлик йўналишини кучайтириш, қонунчиликни халқаро стандартларга яқинлаштириш муҳим аҳамият касб этади.

Шу ўринда прокуратура институтини турли давлатлар тажрибаси асосида таснифлаш мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Зеро, мазкур соҳада бир қатор илмий-назарий ёндашувлар мавжуд бўлиб, улар прокуратура органларининг ҳуқуқий мақоми, давлат бошқаруви тизимидаги ўрни ва функцияларини англашда муҳим аҳамият касб этади.

Олим Е.Г. Князева фикрига кўра, дунё микёсида прокуратура фаолиятини ташкил этишнинг ягона, намунали тизими мавжуд эмас, чунки ҳар бир давлатнинг ҳуқуқий тизими, сиёсий тузуми ва маъмурий анъаналари прокуратуранинг шаклланишига бевосита таъсир кўрсатади¹⁷. Бошқача қилиб айтганда, прокуратура институти универсал моделга эга бўлмасдан, миллий ҳуқуқ тизими хусусиятларига мос равишда шаклланади.

Илмий адабиётларда ва амалиётда прокуратура органларини таснифлашнинг қуйидаги бешта асосий тоифаси ажратиб кўрсатилади:

Биринчи тоифа – АҚШ, Бельгия, Исроил, Польша, Франция ва Япония каби давлатларни қамраб олади. Бу мамлакатларда прокуратура органлари Адлия вазирлиги таркибида фаолият юритади, яъни ижро ҳокимияти тизимига қиради. Прокурорлар адлия вазирлига итоат этади ва кўп ҳолларда сиёсий тайинланади. Бу тизимда прокуратуранинг асосий вазифаси – жиноят таъқибини амалга ошириш ва суд ишларида давлат айбловини ифода этишдир.

Иккинчи тоифа – Болгария, Грузия ва Испания каби давлатлар прокуратурасини қамраб

¹⁵ Бондарь Н.С., Джагарян А.А. Конституционализация прокурорского надзора в Российской Федерации: проблемы теории и практики // Конституц. и муницип. право. 2015. – №5. – С.21.

¹⁶ Сборник заключений КСЕП, Март, 2017. – С.23. Электрон манба: agka.kz/cms/wpcontent/uploads/2017/04/Zakliuchenia_KSEP_No_1-10.pdf pdf (Мўрожаат вақти: 15.09.2025).

¹⁷ Князева Е.Г. Прокурорский надзор в зарубежных странах // Юристь-правоведь. 2009. – №1. – С.98-101.

олади. Бу мамлакатларда прокуратура суд ҳокимияти тизимининг таркибий қисми ҳисобланади. Прокурорлар судьяларга яқин мақомга эга бўлиб, уларнинг фаолияти мустақил суд ҳокимияти принципларига асосланади. Бу моделда прокуратуранинг вазифаси фақат жиноят таъқиби билан чекланмай, қонун устуворлигини таъминлашни ҳам ўз ичига олади.

Учинчи тоифа – Вьетнам, Куба, Хитой ва МДХ давлатлари (жумладан, Россия ва Қозғоғистон). Бу мамлакатларда прокуратура мустақил давлат органи сифатида фаолият юритади. У ҳеч бир ҳокимият тармоғига формал равишда кирмайди, лекин қонун устуворлигини таъминлашда ва давлат бошқаруви устидан назоратда марказий ўрин тутди. Бу модел собиқ совет ҳуқуқий тизимининг таъсирида шакллланган бўлиб, Ўзбекистондаги прокуратура тизими ҳам мазкур моделга яқиндир.

Тўртинчи тоифа – Буюк Британия мисолида кўрилади. Бу мамлакатда прокуратура институти анъанавий маънода алоҳида орган сифатида мавжуд эмас, аммо унинг вазифалари турли идоралар томонидан бажарилади. Масалан, жиноят таъқибини амалга ошириш Crown Prosecution Service (CPS) зиммасига юклатилган. Бунда асосий тамойил – жиноят ишларида мустақиллик ва суд ҳокимияти билан ўзаро мувозанатни таъминлашдир.

Бешинчи тоифа – Жанубий Америка давлатлари, айниқса Бразилия, Аргентина ва Чилидаги моделни ифода этади. Бу давлатларда прокуратура институти аралаш хусусиятга эга бўлиб, икки йўналишда фаолият юритади:

Биринчи йўналиш – жиноят таъқиби ва тергов фаолиятини амалга ошириш (масалан, Германиядаги каби)¹⁸;

Иккинчи йўналиш – қонунчилик ижроси устидан назорат ва инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш.

Бу моделда прокуратура жиноят ишларидан ташқарида ҳам фаол иштирок этиб, давлат органлари фаолиятида қонунийлик ва адолатни таъминлашда муҳим рол ўйнайди¹⁹.

Ўзбекистонлик олимлар Н.Т.Авазов ва А.Р.Матмуротов ҳам прокуратура органларини ташкил этишда айнан шу беш тоифали таснифни қўллаб-қувватлаган. Улар таъкидлаганидек, бу тизимнинг ҳар бири маълум бир сиёсий ва ҳуқуқий анъаналарга асосланади²⁰.

Шу билан бирга, ўзбек ҳуқуқшунослари орасидан О.М.Мамадалиев прокуратура вазифаларидан келиб чиқиб уни икки асосий турга ажратади:

Қонунлар ижроси устидан назоратни амалга оширувчи прокуратура;

Жиноят таъқибини амалга оширувчи прокуратура²¹.

Бу ёндашувни С.Абдрахманова ва А.Канатов каби олимлар ҳам қўллаб-қувватлаб, ўз тадқиқотларида прокуратура органларининг баъзи мамлакатларда ижро ҳокимияти тизимида (масалан, АҚШ, Эстония ва бошқалар), бошқаларида эса суд ҳокимияти тизимида (Грузия, Испания, Латвия ва ҳоказо) фаолият юритишини назарий жиҳатдан асослаб беришган²².

Шундай қилиб, дунё амалиёти прокуратура институтининг ягона модели мавжуд эмаслигини, балки ҳар бир давлатда унинг ваколатлари, вазифалари ва давлат бошқарувидаги ўрни миллий ҳуқуқ тизимининг хусусиятларига кўра белгиланишини кўрсатади. Бу ҳолат прокуратура фаолиятини таҳлил қилишда қиёсий ҳуқуқий ёндашувнинг муҳимлигини яна бир бор тасдиқлайди.

Шу тариқа, прокуратура органларини таснифлаш юзасидан турли илмий фикр ва ёндашувлар мавжуд бўлиб, бу соҳада ривожланган хорижий мамлакатлар тажрибасини ўрганиш жуда муҳим аҳамият касб этади. Хусусан, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва уларни ижтимоий жиҳатдан қўллаб-қувватлаш соҳасидаги илғор хорижий тажрибаларни таҳлил этиш, уларни миллий қонунчиликни такомиллаштиришда татбиқ этиш прокуратура фаолияти самарадорлигини оширишнинг долзарб шарти ҳисобланади.

Бу борада Европа мамлакатлари конституциявий қоидаларини таҳлил қилиш айни муддао бўлиб, прокуратура органларининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишдаги конституциявий мақомини англаш имконини беради. Қуйида айрим мамлакатлар мисолида мазкур масала кўриб чиқилади.

Венгрия Конституциясининг 29-моддасида прокуратура органларининг асосий вазифаси сифатида жисмоний ва юридик шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш белгиланган. Мазкур норма прокуратуранинг фақат жиноят таъқибига оид эмас, балки инсон ҳуқуқларини таъминлашга йўналтирилган кенг ижтимоий функцияга эга эканлигини кўрсатади. Шу муносабат билан Венгрияда ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги прокурор назорати Венгрия прокуратура органлари томонидан тизимли равишда амалга оширилади. Прокурорлар

¹⁸ Цмай В.В. Зарубежный опыт осуществления прокурорского надзора в сфере поддержания законности и правопорядка // В сборнике: НАУЧНАЯ СЕССИЯ ГУАП. Сборник докладов: в 3 ч. Санкт-Петербургский государственный университет аэрокосмического приборостроения. 2017. – С. 321-324.

¹⁹ Матушевский Р.Г., Пятаков В.А. Прокуратура и прокурорский надзор. – М., Приор-издат, 2005. – С.2.

²⁰ Авазов Н.Т., Матмуротов А.Р. Хорижий мамлакатларнинг прокуратура органлари фаолиятини тартибга солиш норматив-

ҳуқуқий ҳужжатларининг қиёсий таҳлили: илмий рисола. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – Б.20-21.

²¹ Мамадалиев О.М. Прокурор назорати. Дарслик. Махсус қисм. – Тошкент: ТДЮИ, 2012. – Б.430.

²² Абдрахманова С., Канатов А. К вопросам определения места и роли органов прокуратуры // Кўкык және мемлекет. 2016. – №4 (73). – С.26-31.

ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари бузилиши билан боғлиқ ҳолатлар бўйича текширувлар ва сўров-таҳқиқотлар ўтказиш, айбдор шахсларни жавобгарликка тортиш ҳамда жабрланувчиларнинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш бўйича судга даъво киритиш ваколатига эгадирлар. Бундан ташқари, Венгрия прокуратураси фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорликда ногиронлиги бўлган шахсларнинг қонуний манфаатларини ҳимоя қилишга қаратилган махсус дастурлар ва жамоат мониторингини амалга оширади. Бу эса прокуратура фаолиятининг инсонпарварлик ва ижтимоий адолат принципларига асосланганлигини кўрсатади.

Испания Қироллигининг 1978 йил 27 декабрда қабул қилинган Конституциясининг 124-моддасида прокуратура органларининг асосий вазифаси сифатида қонунийликни таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқлари ва жамиятнинг қонун билан муҳофаза қилинадиган манфаатларини ҳимоя қилиш, шунингдек суд мустақиллигини таъминлаш ва суд жараёнларида жамият манфаатларини ифода этиш белгиланган. Мазкур конституциявий асосдан келиб чиққан ҳолда, Испанияда ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида прокурор назорати Давлат прокуратураси (Fiscalía General del Estado) ва унинг ҳудудий бўлинмалари томонидан амалга оширилади. Бу орган ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларининг бузилиши бўйича келиб тушган шикоятларни кўриб чиқиш, текширув ва тергов ишларини олиб бориш, ҳамда суд орқали адолатни тиклаш ваколатига эга. Испания прокуратураси фаолиятида “Тенглик, интеграция ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонун (Ley de igualdad, integración y derechos de las personas con discapacidad) муҳим норматив асос сифатида хизмат қилади. Мазкур қонуннинг ижроси прокуратура органлари томонидан доимий назорат остида бўлиб, бу ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамият ҳаётида тўлиқ иштирокини таъминлашга қаратилган давлат сиёсатининг ҳуқуқий кафолатидир.

Молдова Республикаси Конституциясида ҳам прокуратура органларининг инсон ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилишдаги ўрни алоҳида эътироф этилган. Унга кўра, прокуратура давлатнинг қонунийликни таъминловчи органи сифатида жиноят таъқиби билан бирга фуқароларнинг ҳуқуқ ва манфаатларининг бузилиши ҳолатларига қарши чора кўриш, ижро ҳокимияти фаолиятида қонунийликни таъминлаш ва суд орқали адолатни тиклаш вазифаларини бажаради. Молдова прокуратураси тажрибасида ҳам ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида жамоатчилик иштирокини таъминлаш ва инсон ҳуқуқларига оид халқаро шартномаларнинг ижросини мониторинг қилиш амалиёти кенг қўлланилади.

Европа мамлакатлари тажрибаси шуни кўрсатадики, прокуратура органларининг

конституциявий мақоми инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш билан чамбарчас боғланган. Ушбу давлатларда прокуратура нафақат жиноят таъқиби билан, балки ижтимоий адолатни қарор топтириш, тенгликни таъминлаш ва жамиятнинг заиф қатламларини, хусусан, ногиронлиги бўлган шахсларни – ҳуқуқий ҳимоя қилиш билан ҳам шуғулланади. Ўзбекистон учун мазкур тажрибаларни ўрганиш қонунчиликни такомиллаштириш, прокуратура органлари фаолиятини инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасидаги халқаро стандартларга яқинлаштириш, шунингдек ногиронлиги бўлган шахслар манфаатларини таъминлашда институционал имкониятларни кучайтиришда муҳим аҳамиятга эга.

Вьетнам Социалистик Республикасининг 1992 йил 15 апрелда қабул қилинган Конституциясининг 126-моддасига мувофиқ, Олий халқ прокуратураси (Viện kiểm sát nhân dân tối cao)нинг асосий вазифалари сифатида социалистик тузумни ҳимоя қилиш, қонунийликни таъминлаш, ҳамда фуқароларнинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва кадр-қимматини муҳофаза қилиш белгиланган. Мазкур конституциявий асос прокуратура органларининг фаолиятини фақат жиноят ишлари билан чегаралаб қўймасдан, балки инсон ҳуқуқларининг тўлиқ ҳимоясини таъминлашга йўналтиради. Вьетнамда “Ногиронлиги бўлган шахсларни ҳимоя қилиш ва ривожлантириш тўғрисида”ги Қонун қабул қилинган бўлиб, прокуратура органлари ушбу қонун ҳужжатларининг ижроси, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлаш ҳамда уларнинг ҳуқуқларини бузган мансабдор шахслар устидан назоратни амалга оширади. Бу орқали Вьетнам прокуратураси давлатнинг ижтимоий сиёсатини ҳуқуқий таъминлашда муҳим бўғин вазифасини бажаради.

Гватемала Республикасининг 1956 йил 2 февралда қабул қилинган Конституциясининг 97-моддасида прокуратура органларига қонун устуворлигини таъминлаш ва жамият ҳамда ижтимоий манфаатларни ҳимоя қилиш вазифаси юклатилган. Гватемалада ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари устидан прокурор назорати Инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш прокуратураси (Procuraduría de los Derechos Humanos) томонидан амалга оширилади. Унинг асосий вазифаси – инсон ҳуқуқлари, жумладан, ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларига оид қонунчиликнинг ижросини таъминлаш, уларнинг манфаатларини суд ва маъмурий органлар олдида ҳимоя қилишдир. Бундан ташқари, Гватемалада “Ногиронлиги бўлган шахслар учун тенг имкониятлар тўғрисида”ги Қонун амал қилади. Мазкур қонун ногиронлиги бўлган шахслар учун тенг ҳуқуқ ва кафолатларни белгилаб, прокуратура органларига унинг ижросини назорат қилиш вазифасини юклайди. Бу прокуратуранинг

фаолиятини инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг асосий институционал механизмига айлантиради.

Бразилия Федератив Республикасининг 1988 йил 5 октябрда қабул қилинган Конституциясининг 127-моддаси прокуратура органларига ҳуқуқий тартиботни таъминлаш ва қонуний манфаатларни ҳимоя қилиш вазифасини белгилайди. Бразилия прокуратураси – Ministério Público – мустақил орган бўлиб, давлатнинг ижро ҳокимиятидан ажралган ҳолда фаолият юритади. У ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида “Ногиронлик тўғрисида”ги Қонун ижроси устидан назоратни амалга оширади. Прокурорлар фуқароларнинг, жумладан, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари бузилган ҳолатларда судга мурожаат қилиш, даъво киритиш ва ижро интизомини таъминлаш чораларини кўриш ваколатига эга. Бразилия тажрибаси прокуратура органларининг ижтимоий адолат ва тенгликни таъминлашдаги муҳим ролини намоён этади.

Японияда ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилишга оид ижтимоий муносабатлар “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг фаровонлиги тўғрисида”ги ҳамда “Асосий ногиронлик тўғрисида”ги қонунлар билан тартибга солинади. Прокуратура органлари мазкур қонун ҳужжатларининг ижроси устидан назоратни амалга ошириб, ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари бузилган ҳолатларда текширув ва тергов ишларини олиб боради. Шунингдек, прокуратура органлари давлат идоралари ва маҳаллий ташкилотлар фаолиятини ҳам назорат қилади. Япония қонунчилигида ногиронлиги бўлган шахсларнинг мустақилликка эришиши ва жамият ҳаётида фаол иштирокини таъминлаш прокуратура назоратининг асосий йўналишларидан бири этиб белгиланган. Бу

мамлакатда ногиронлиқнинг олдини олиш ва реабилитация соҳасида ҳам комплекс давлат дастурлари амалга оширилади.

Хитой Халқ Республикасида ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш 36 та қонун ва қўллаб-қувватлов ҳужжатлар билан тартибга солинади. Прокуратура органлари мазкур қонунлар ижросини таъминлаш, ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари бузилиши ҳолатларини аниқлаш ҳамда уларнинг ижтимоий ҳимоясини кучайтириш бўйича чоралар кўради. Хитойда ногиронлиги бўлган шахслар сони ва уларнинг ижтимоий аҳволи бўйича тўпланган статистик маълумотлар прокуратура фаолияти самарадорлигини оширишда муҳим аҳамиятга эга. Бу маълумотлар ногиронлиқнинг сабабларини таҳлил қилиш, унинг олдини олиш чораларини белгилаш ҳамда давлат бюджетига тегишли харажатларни режалаштириш имконини беради.

Шу тарика, таҳлил қилинган давлатлар тажрибаси прокуратура органларининг инсон ҳуқуқларини, жумладан ногиронлиги бўлган шахслар манфаатларини ҳимоя қилишда конституциявий ва институционал ўрнини мустаҳкам эканини кўрсатади. Бу мамлакатларда прокуратура нафақат жиноят таъқиби билан чекланмай, балки ижтимоий адолат, тенглик ва инсон кадр-қимматини ҳимоя қилиш каби кенг қамровли функцияларни бажаради. Ўзбекистон учун мазкур тажрибаларни ўрганиш прокуратура органлари фаолиятини халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш, ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини ҳимоя қилишда ҳуқуқий механизмларни кучайтириш ва ижтимоий адолатни таъминлаш йўлида муҳим илмий ва амалий аҳамият касб этади.

Иктибослар/Сноски/References:

1. Бондарь Н.С., Джагарян А.А. Конституционализация прокурорского надзора в Российской Федерации: проблемы теории и практики // Конституц. и муницип. право. 2015. – №5. – С.21.
2. Сборник заключений КСЕП, Март, 2017. – С.23. Электрон манбаа: [agka.kz/cms/wpcontent/uploads/2017/04/Zakliuchenia KSEP No 1-10.pdf](http://agka.kz/cms/wpcontent/uploads/2017/04/Zakliuchenia_KSEP_No_1-10.pdf) pdf (Мурожаат вақти: 15.09.2025).
3. Князева Е.Г. Прокурорский надзор в зарубежных странах // Юристы-правоведы, 2009. – №1. – С. 98-101.
4. Цмай В.В. Зарубежный опыт осуществления прокурорского надзора в сфере поддержания законности и правопорядка // В сборнике: НАУЧНАЯ СЕССИЯ ГУАП. сборник докладов: в 3 ч. Санкт-Петербургский государственный университет аэрокосмического приборостроения. 2017. – С.321-324.
5. Матушевский Р.Г, Пятаков В.А. Прокуратура и прокурорский надзор. – М., Приор-издат, 2005. – С.2.
6. Авазов Н.Т, Матмуротов А.Р. Хорижий мамлакатларнинг прокуратура органлари фаолиятини тартибга солиш норматив-ҳуқуқий ҳужжатларининг қиёсий таҳлили: илмий рисола. – Тошкент: ТДЮУ, 2018. – Б.20-21.
7. Мамадалиев О.М. Прокурор назорати. Дарслик. Махсус қисм.– Тошкент: ТДЮИ, 2012. – Б.430.
8. Абдрахманова С., Канатов А. К вопросам определения места и роли органов прокуратуры // Қўқык және мемлекет. 2016. – №4 (73). – С.26-31.

ИЖТИМОЙ ДАВЛАТ ҒОЯСИ ҲАМДА НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАР ҲУҚУҚЛАРИНИНГ КАФОЛАТЛАРИ

**ТУЛЯГАНОВ Абдуманноп Абдуҷаббарович
ТУРСУНБОЕВ Сардор Муроджон ўғли
ЎНГБОЕВ Арслон Бердиёр ўғли**

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Давлат ва ҳуқуқ институти

АННОТАЦИЯ:

Мазкур мақолада ижтимоий давлат концепсияси доирасида ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларининг ҳуқуқий асослари, халқаро ва миллий меъёрий ҳужжатлар контекстида таҳлил этилади. Хусусан, БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенсияси, Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонуни ва бошқа тегишли норматив ҳужжатлар асосида ногиронлиги бўлган шахсларнинг таълим, соғлиқни сақлаш, бандлик, инфратузилмага кириш имконияти ва ижтимоий интеграциядаги ҳуқуқлари ёритилади. Шунингдек, мақолада Ўзбекистон тажрибаси халқаро стандартлар билан солиштирилиб, мавжуд камчиликлар ва уларни бартараф этиш бўйича таклиф ва тавсиялар илгари сурилади. Тадқиқотда ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилишда давлат сиёсатининг барқарорлиги ва фуқаролик жамияти институтларининг роли муҳимлиги асосланган.

Калит сўзлар: Конституция, ижтимоий давлат, ногиронлик, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари, имплементация, кодификация, инклюзив жамият, Конвенция, таълим ва бандлик, ижтимоий тенглик, миллий қонунчилик.

ИДЕЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА И ГАРАНТИИ ПРАВ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ

**ТУЛЯГАНОВ Абдуманноп Абдуҷаббарович
ТУРСУНБОЕВ Сардор Муроджон ўғли
ЎНГБОЕВ Арслон Бердиёр ўғли**

Институт государства и права Академии наук Республики Узбекистан

АННОТАЦИЯ:

В данной статье анализируются правовые основы прав лиц с инвалидностью в рамках концепции социального государства, в контексте международных и национальных нормативных документов. В частности, рассматриваются Конвенция ООН о правах инвалидов, Конституция Республики Узбекистан, Закон “О правах лиц с инвалидностью” и другие соответствующие нормативные акты, освещающие права лиц с инвалидностью на образование, здравоохранение, занятость, доступ к инфраструктуре и социальную интеграцию. Также в статье проводится сравнение опыта Узбекистана с международными стандартами, выявляются существующие недостатки и выдвигаются предложения и рекомендации по их устранению. В исследовании обосновывается важность стабильности государственной политики и роли институтов гражданского общества в эффективной защите прав лиц с инвалидностью.

Ключевые слова: Конституция, социальное государство, инвалидность, права лиц с инвалидностью, имплементация, кодификация, инклюзивное общество, Конвенция, образование и занятость, социальное равенство, национальное законодательство.

THE CONCEPT OF A SOCIAL STATE IN THE CONSTITUTION OF UZBEKISTAN AND INTERNATIONAL AND NATIONAL GUARANTEES OF RIGHTS FOR PERSONS WITH DISABILITIES

**TULAGANOV Abdumannop Abdujabbarovich
TURSUNBOYEV Sardor Murodjon ugli
UNGBOEV Arslon Berdiyoy ugli**

Institute of State and Law of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

ABSTRACT:

This article analyzes the legal foundations of the rights of persons with disabilities within the framework of the welfare state concept, in the context of international and national regulatory documents. In particular, it examines the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities, the Constitution of the Republic of Uzbekistan, the Law "On the Rights of Persons with Disabilities," and other relevant regulatory acts that address the rights of persons with disabilities to education, healthcare, employment, access to infrastructure, and social integration. The article also compares Uzbekistan's experience with international standards, identifies existing shortcomings, and puts forward proposals and recommendations for their elimination. The study substantiates the importance of stability in state policy and the role of civil society institutions in effectively protecting the rights of persons with disabilities.

Keywords: Constitution, welfare state, disability, rights of persons with disabilities, implementation, codification, inclusive society, Convention, education and employment, social equality, national legislation.

Глобаллашув шароитида замонавий демократик жамиятларнинг асосий белгилардан бири бу – инсон ҳуқуқларини кафолатлаш ва ижтимоий тенгликни таъминлашдир. Айниқса, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ҳимоя қилиш ижтимоий давлат тамойилларининг ажралмас қисми ҳисобланади. “Ижтимоий давлат” тушунчаси, аввало, аҳолининг заиф қатламларидан бири бўлган ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш, уларга тенг имкониятлар яратиш, ҳаёт сифатини оширишга қаратилган давлат сиёсатини англатади. Президентимиз таъбири билан айтганда: **“Ижтимоий давлат бу, энг аввало, инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун тенг имкониятлар, одамлар муносиб ҳаёт кечиришига зарур шароитлар яратиш, камбағалликни қисқартириш, демакдир”**[1]. Бугунги кунда дунё миқёсида ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлаш масаласи инсон ҳуқуқлари бўйича глобал кун тартибининг муҳим йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда.

Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, ногиронлик бузилган саломатлик ҳамда муносабат ва муҳит тўсиқлари ўзаро муносабатлари натижаси бўлиб, бу ногиронларни жамият ҳаётида бошқалар билан тенг ва самарали иштирок этишига ҳалакит беради. Халқаро ҳамжамят буни ҳисобга олган ҳолда, ногиронларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳурмат қилиш ва буни инсоний турфа хилликнинг таркиби ва инсониятнинг узвий ажралмас бир қисми сифатида қабул қилиш, уларнинг жамиятнинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳаётида тўлақонли иштирок этишларини таъминлашнинг ҳуқуқий асосларини яратган.

Хусусан, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Бош Ассамблеяси томонидан 2006 йил 13 декабрдаги 61/106-резолюцияси билан қабул қилинган “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция”[2] ҳамда “Ногиронларнинг ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияга Факультатив протокол”[3] ана шу халқаро ҳужжатларнинг асосийлари ҳисобланади. Уларда ногиронларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва кадр-қимматларини рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш, шахсий, сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ва маданий ҳуқуқларини ва бу ҳуқуқлардан бошқалар билан тенг равишда фойдаланиш имкониятларини кафолатлаш тамойиллари белгилаб қўйилган[4. С–5]. Ўзбекистон Республикаси ҳам мазкур конвенцияни ратификация қилиб, миллий қонунчилик ва амалиётда ногиронлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш борасида муҳим ислохотларни амалга оширмоқда.

Хусусан, Ўзбекистон Республикаси “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида” қонунида таъкидланганидек, бу шахслар ҳеч қандай камситилишга учрамасликлари, ўз

шахсий ҳаётлари, оила ва уй-жойлари дахлсизлигини ҳимоя қилишлари ва тенг ҳуқуқларга эга бўлишлари керак. Улар таълим олиш, ишга жойлашишда, касбга тайёрлаш ва қайта тайёрлашда, соғлиқни сақлаш хизматларидан тенг фойдаланишда ҳуқуққа эгадирлар. Иш берувчилар ногиронлиги бўлган шахсларга меҳнат функцияларини бажариш учун зарур шарт-шароитларни яратиши, уларни камситмасликлари талаб этилади. Меҳнат ҳаққи, иш вақти ва дам олиш вақти каби меҳнат шарт-шароитлари ногиронлиги бўлган шахслар учун ҳам адолатли ва қонунчиликка мувофиқ бўлиши шарт.

Ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари мураккаб ҳуқуқий масала, чунки турли хил ижтимоий-сиёсий, маданий ва ҳуқуқий шароитларда ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари бузилади. Мисол тариқасида шуни айтишимиз мумкики, Ногиронлиги бўлган шахслар дуч келадиган умумий тўсиқлар ишга жойлашиш, ижтимоий объектлар ва жамоат транспортларида эркин ҳаракатланиш ҳамда таълим олиш билан боғлиқ ҳисобланади. Хусусан, иш берувчилар кўпинча ногиронлиги бўлган шахсларнинг меҳнат функцияларини самарали бажаришлари учун зарур шарт-шароитларни яратишни хоҳламайдилар ёки таъминлай олмайдилар. Шу сабабли, ногиронлиги бор шахсларни қўллаб-қувватлаш ва уларнинг жамият ҳаётида иштирок этишига қаратилган саъй-ҳаракатлар бу хилма-хилликни тушуниш ва унга индивидуал ёндашувни таъминлашга қаратилиши лозим.

Такидлаш жоизки, бу борада яъни ногиронлиги бўлган шахслар учун бир қатор имконият яратиш борасида саъй-ҳаракатлар олиб борилмоқда. Хусусан улар учун қулай шароит – инклюзив жамият қуришга қаратилган қатор чоратadbирлар амалга оширилмоқда. Бунга яққол мисол тариқасида шуни айтиш мумкинки, Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан, фуқаролик жамиятини ривожлантириш соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар натижасида 2018 йилда Ўзбекистон ногиронлар уюшмаси ташкил этилди. У бугунги кунда ногиронлиги бўлган шахсларнинг 35 та нодавлат нотижорат ташкилотини бирлаштиради. Бундай жамоат ташкилотларини бирлаштиришдан асосий мақсад БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясини ратификация қилиш ва амалга ошириш жараёнларини илгари суриш, шунингдек, инклюзив жамият қуришга қўмаклашиш эди ва бунга эришилди. Яъни Мазкур Конвенция Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги ЎРҚ-695-сонли Қонуни билан ратификация қилинган[5].

Ўзбекистонда қабул қилинган янги таҳрирдаги Конституция “ижтимоий давлат” ғоясини давлат тузумининг асосий устуни сифатида белгилади[6]. Ижтимоий давлат – инсон

манфаатларини, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатли ҳимоя қиладиган, ижтимоий тенглик ва имкониятлар баробарлигини таъминлашни давлат сиёсатининг ўзагига қўядиган ҳуқуқий моделдир. Сўзимиз исботи ўларок, шуни таъкидлаш керакки, янги таҳрирдаги Конституциянинг 1, 20, 22, 52, 57 ва айниқса 47-моддаларида давлатнинг инсонпарвар, ижтимоий йўналтирилган сиёсатни амалга ошириш мажбурияти аниқ белгилаб қўйилган. Унга кўра:

- давлат фуқароларнинг муносиб турмуш даражасини таъминлаш,
- камситишга йўл қўймаслик,
- ижтимоий ҳимоя тизимини кафолатлаш,
- имконияти чекланган шахсларни қўллаб-қувватлаш
- каби вазифаларни ўз зиммасига олади.

Конституциянинг 47-моддасида “Давлат ногиронлиги бўлган шахслар учун қулай муҳит яратиш ва уларнинг жамиятда тўла иштирокини таъминлайди” деб белгилаб қўйилган. Бу норма ижтимоий давлатнинг конкрет тарзда БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси принципларини амалга оширишини англатади.

БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияси ногиронликни тиббий ёки шахсий нуқсон эмас, балки жамиятдаги тўсиқлар натижасида юзага келувчи ижтимоий феномен сифатида баҳолайди. Демак, ногиронликни камайтирувчи асосий омил – жисмоний нуқсон эмас, балки муҳитни мослаштириш, ҳуқуқни таъминлаш ва ижтимоий хизматларни кучайтириш ҳисобланади. Бу ёндашувни чуқур англаган ҳолди ижтимоий давлат концепцияси ишлаб чиқилди шу билан бирга жамиятнинг асосий ғоясига айлантириш борасида саъй-ҳаракатлар олиб борилмоқда. Том маънода бу ғоянинг замирида фаол ижтимоий давлат, превентив, инклюзив ҳамда фуқароларнинг имкониятларини реал баробарлаштирувчи давлат қуриш масаласи ётипти десак муболаға бўлмайди.

Ногиронлиги бўлган шахсларнинг жамиятда тўлақонли иштирокини таъминлашда таълим ва бандлик давлатнинг ижтимоий сиёсатининг ўзаро боғлиқ ва бир-бирини тўлдирувчи таркибий қисмларидандир. БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияси мазкур соҳаларда давлатнинг фаол мажбуриятларини аниқ белгилаб, ногирон шахсларнинг камситилмасдан, тенг имкониятларда таълим олиши ва меҳнат бозорида қатнашиши учун ҳуқуқий шароитларни яратишни талаб қилади. Ўзбекистоннинг янги таҳрирдаги Конституциясида эса ижтимоий давлат тамойили, инсон қадрининг устуворлиги ва тенг имкониятлар сиёсатини амалга ошириш давлатнинг соҳавий фаолияти учун асосий мезон сифатида белгилангани таълим ва бандлик соҳаларидаги масалаларни янада долзарб аҳамият касб этишини кўрсатади. Инклюзив таълимнинг ижтимоий давлат концепциясидаги аҳамияти шундаки, давлат таълимни фақат билим бериш жараёни деб эмас, балки жамиятнинг

ижтимоий тузилмасини тенг имкониятлар асосида шакллантирувчи стратегик институт сифатида қабул қилади. Илмий таҳлиллар шуни кўрсатадики, инклюзив таълимга инвестиция қилиш узок муддатда ногирон шахсларнинг бандлик имкониятларини оширади, ижтимоий адаптация ва мустақиллик даражасини кўтариб, камбағаллик хавфини камайтиради. Тегишли инфратузилма, методик қўллов, коррекцион-педагогик ёрдам ва таълим муассасаларининг архитектур мослашуви ижтимоий давлатнинг фаол ижтимоий функцияларидан бири сифатида намоён бўлади.

Таълим ва бандлик ўртасидаги мустаҳкам боғлиқлик илмий жиҳатдан ҳам, ҳуқуқий жиҳатдан ҳам асосланган. Инклюзив таълим ногиронлиги бўлган шахсларнинг малакасини оширади, ижтимоий кўникмаларини ривожлантиради, бандликка тайёрлайди. Бандлик эса ўз навбатида уларнинг жамиятда мустақил субъекти сифатида фаол иштирокини таъминлайди, ижтимоий изоляцияни камайтиради, инсон қадрини юксалтириб, ижтимоий давлат ғоясининг амалий натижаларини намоён этади.

Ижтимоий тенглик тамойили замонавий демократик ҳукуматлар фаолиятининг устувор йўналишларидан бири бўлиб, у фуқароларнинг келиб чиқиши, жисмоний ёки руҳий имкониятларидан қатъи назар, тенг ҳуқуқ ва имкониятларга эга бўлишини кафолатлайди. Ўзбекистоннинг 2023 йилда қабул қилинган янги таҳрирдаги Конституциясида “ижтимоий давлат” ғоясининг мустаҳкамланиши ушбу принципнинг ҳуқуқий асосларини янада мустаҳкамлади. Ижтимоий давлат концепциясига кўра, давлат аҳолининг барча қатламларини, хусусан ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлаш, уларнинг ижтимоий ҳаётда фаол иштирокини таъминлаш, тенг ҳуқуқ ва имкониятларни кафолатлаш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенциясида ҳам ижтимоий тенглик масаласи асосий ўринда туриб, 5-моддада давлатлар барча шахслар қонун олдида тенглигини таъминлаши шартлиги белгилаб қўйилган. Конвенциядаги тенглик тушунчаси фақат формал ҳуқуқий тенглик эмас, балки реал имкониятлар тенглиги, бошқа сўз билан айтганда, ногиронлиги бўлган шахсларнинг тўлиқ ижтимоий интеграцияси учун зарур шароитларни барпо этишни назарда тутди. Мазкур ёндашув ижтимоий тенгликни фақат запрет ва чекловларни бартараф этиш эмас, балки актив қўллаб-қувватлаш сиёсати орқали мустаҳкамлашни талаб қилади.

Ўзбекистонда бу принцип Конституциянинг 57-моддасида ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари давлат томонидан ҳимоя қилиниши, уларнинг жамият ҳаётида тўлиқ иштирок этиши учун зарур шароитлар яратилиши шартлиги орқали мустаҳкамланган. Шу билан бирга, Конституциянинг

инсон қадрини олий қадрият сифатида белгилаган 14-моддаси ижтимоий тенгликнинг бош ҳуқуқий таянчи бўлиб хизмат қилади. Бу нормалар ногиронлиги бўлган шахслар учун таълим, бандлик, тиббий хизмат, ижтимоий инфратузилма ва сиёсий-ижтимоий фаоллик соҳаларида тенг имкониятлар яратишни талаб қилади.

Хулоса

Ижтимоий давлат концепциясининг мамлакат конституцион асосларида мустаҳкамланиши ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини кафолатловчи миллий ҳамда халқаро механизмларнинг уйғунлашуви Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида янги бир босқични юзага келтирди. Янги таҳрирдаги Конституция инсон қадрини олий қадрият сифатида эътироф этар экан, фуқароларнинг ижтимоий тенглиги, камситишга йўл қўймаслик ва ижтимоий ҳимоя тизимининг барқарор амал қилишини давлатнинг тўғридан-тўғри мажбурияти сифатида белгилади. Ушбу тамойиллар ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларининг қонунчилик ва амалиётдаги кафолатларини такомиллаштириш учун мустаҳкам ҳуқуқий асос бўлиб хизмат қилади.

Конвенциядаги тенглик, инклюзивлик, универсал дизайн, адекват мослашув каби замонавий ҳуқуқий категорияларнинг миллий ҳуқуқ тизимида киритилиши ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқий мақомига нисбатан инсон ҳуқуқларига асосланган ёндашувнинг шаклланишини тезлаштирди. 2020 йилда қабул қилинган “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонун эса ушбу конвенцион нормаларни миллий ҳуқуқий механизмларга имплементация қилишда ҳал қилувчи аҳамият касб этди. Қонуннинг қабул қилиниши натижасида таълим, бандлик, инфратузилма, тиббий-ижтимоий хизматлар, давлат бошқаруви ва электрон хизматлар соҳаларида ислохотлар янги мазмун касб этди.

Шу билан бирга, тадқиқот натижалари шундан далолат бердики, миллий қонунчилик нормалари амалиётда тўла ишлаши учун фақат ҳуқуқий базани такомиллаштиришнинг ўзи етарли

эмас. Ижтимоий давлат тамойилларини ҳаётга татбиқ этиш самараси, аввало, давлат органларининг институционал салоҳияти, фуқаролик жамияти институтларининг фаоллиги ва ижтимоий инфратузилманинг инклюзивлик даражасига боғлиқ. Масалан, инклюзив таълимда ҳали ҳам педагог кадрлар малакаси, таълим муассасаларини мослаштириш, махсус ресурс марказлари етарли эмаслиги каби муаммолар мавжуд. Бандлик соҳасида квоталаш тизими қонунан белгиланган бўлса-да, унинг амалий ижроси барча ҳудудларда бир хил даражада таъминланмаган. Инфратузилмани мослаштириш борасида ҳам шаҳар ва туманлар ўртасида сезиларли фарқлар сақланиб қолмоқда.

Тадқиқот шуни кўрсатадики, ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини таъминлашда энг асосий муаммолардан бири – жамиятдаги стереотиплар ва ҳуқуқий маданиятнинг етарли даражада эмаслигидир. Конвенциядаги ижтимоий модель асосига кўра, ногиронлик шахснинг хусусияти эмас, балки жамиятнинг архитектуравий, ахборот ва ижтимоий тўсиқлари билан боғлиқ жараёндир. Демак, ҳуқуқий нормаларни амалга ошириш учун фақат давлатнинг институционал салоҳияти эмас, балки аҳоли онгида инклюзив тафаккурни шакллантириш ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, ижтимоий давлат ғояси ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини таъминлаш масаласи Ўзбекистонда кенг қамровли ҳуқуқий, институционал ва ижтимоий ислохотларни талаб қиладиган устувор йўналишдир. Мавжуд ҳуқуқий асослар халқаро стандартларга мос бўлса-да, уларнинг тўлиқ амалга оширилиши учун узлуксиз мониторинг, соҳавий сиёсатлар интеграцияси ва фуқаролик жамияти билан ҳамжиҳатликда иш юритиш зарур. Ижтимоий тенглик ва инклюзив жамиятни қуриш давлатнинг фақат ҳуқуқий мажбурияти эмас, балки мамлакатнинг барқарор ривожланиши, инсон капитали салоҳияти ва цивилизацион тараққиёт даражасини белгилаб берувчи асосий омиллардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // 20.12.2022.
2. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция // 61/106. БМТ - 2006
3. Ногиронларнинг ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенцияга Факультатив протокол // 61/106. БМТ - 2006
4. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция — Toshkent: Baktria press, 2013, 56 b.
5. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 7 июндаги ЎРҚ-695-сонли Қонуни
6. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон

Интернет манбалари

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисида”ги Қонуни.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони. Ногиронлиги бўлган шахсларни қўллаб-қувватлашни янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарори. Инклюзив таълимни ривожлантириш концепцияси ва амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида.
4. Degener, T. 2016. Disability in a Human Rights Context. Oxford University Press.
5. Quinn, G., & Degener, T. 2002. Human Rights and Disability: The Current Use and Future Potential of United Nations Human Rights Instruments. United Nations Publications.
6. Lawson, A., & Priestley, M. 2019. The Social Model of Disability and the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities. Cambridge University Press.
7. Shakespeare, T. 2018. Disability: The Basics. Routledge Publishing.
8. Barnes, C., & Mercer, G. 2010. Exploring Disability. Polity Press.
9. World Health Organization. 2011. World Report on Disability. WHO–World Bank.
10. European Union Agency for Fundamental Rights. 2017. Inequalities and Discrimination of Persons with Disabilities in the EU.
11. Харитонов, С. А. 2015. Социальное государство и его правовые основы. Москва: Юрайт.
12. Саидов, А. Х. 2022. Инклюзив жамият ва инсон ҳуқуқлари: миллий тажриба ва халқаро стандартлар. – Тошкент
13. Ражабов, А. 2021. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқий мақоми ва ижтимоий давлат концепцияси. «Юриспруденция» журналы, №4.
14. International Labour Organization. 2019. Employment of Persons with Disabilities: Guidelines for Policymakers.
15. OECD. (2020). Disability, Education and Employment: Policy Insights.
16. Хакимов, М. 2023. Ўзбекистонда ижтимоий давлат тамойилларининг конституциявий асослари. ТДЮУ Илмий ахборотномаси, №2.

RIGHTS OF PERSONS WITH DISABILITIES: A NATIONAL LEGAL ANALYSIS

Sardor Djalilov,

*PhD student of the Institute of State and Law of the
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
e-mail: bozorovsardor9807@gmail.com*

ANNOTATION

This article describes the documents adopted to promote, ensure, and protect the rights of persons with disabilities, their content and significance, as well as which aspects of the rights of this category of persons they regulate or what privileges they provide. In addition, the foundations for protecting the rights of persons with disabilities, as set forth in our national legislation and the new edition of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, are presented.

Key words: social assistance, commission, state program, "Sahavat" and "Muruvat" houses, needy category, register, "Opportunities Center", "pro bono".

Джалилов Сардор Шавкатович,

*докторант Института государства и права
Академии наук Республики Узбекистан
e-mail: bozorovsardor9807@gmail.com*

ПРАВА ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ: НАЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны документы, принятые в целях продвижения, обеспечения и защиты прав инвалидов, их содержание и значение, а также какие аспекты прав этой категории лиц регулируются или какие льготы предоставляются. Кроме того, представлены принципы защиты прав лиц с ограниченными возможностями, закрепленные в нашем национальном законодательстве и новой редакции Конституции Республики Узбекистан.

Ключевые слова: социальная помощь, комиссия, государственная программа, дома «Сахават» и «Муруват», категория нуждающихся, реестр, «Центр возможностей», «pro bono».

Джалилов Сардор Шавкатович

*Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси
Давлат ва ҳуқуқ институти докторанти
e-mail: bozorovsardor9807@gmail.com*

НОГИРОНЛИГИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ҲУҚУҚЛАРИ: МИЛЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ

АННОТАЦИЯ

Ушбу мақолада ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини рағбатлантириш, таъминлаш ҳамда қийинчиликларни қўлдош қилиш бўлими қабул қилинган ҳужжатлар ва уларнинг мазмун-моҳияти ҳамда аҳамияти, шунингдек, ушбу тоифадаги шахсларнинг ҳуқуқларининг қайси жиҳатларини тартибга солиб турилиши ёки қандай имтиёзлар бериши қабилар ёритиб берилган. Бундан ташқари, миллий қонунчилигимиз ва бош қомусимиз Ўзбекистон Республикаси Янги таҳрирдаги Конституциясида кўрсатилган ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини қийинчиликларни қўлдош қилишнинг асослари келтирилган.

Калит сўзлар: ижтимоий мадад, комиссия, давлат дастури, “Саховат” ва “Муруват” уйлари, эҳтиёжманд тоифа, реестр, “Имкониятлар маркази”, “pro bono”.

During the years of independence, large-scale efforts have been undertaken in the Republic to establish an effective system of state support for socially vulnerable groups of the population. A number of state programs have been adopted with the aim of improving the living standards and quality of life of the elderly and persons with disabilities, enhancing the pension system and social assistance mechanisms, organizing systematic healthcare and expanding access to modern methods of treatment.

National legal norms occupy one of the most important places in the protection of the rights of persons with disabilities. A number of regulatory legal acts aimed at ensuring, protecting, and promoting the rights of this category of persons have been duly adopted in Uzbekistan. Among them is the Law of the Republic of Uzbekistan “On Social Protection of Persons with Disabilities in the Republic of Uzbekistan” (No. 422-XII of November 18, 1991, subsequently adopted in a new edition), which enshrines provisions related to the social protection of the rights of persons with disabilities.

Article 1 of this Law provided, for the first time in national legislation, a legal definition of the term “disability.” In addition, the article established that the recognition of a person as disabled shall be carried out in accordance with the procedure prescribed by the Medical-Labor Expert Commission (MLEC) [1].

Subsequently, a number of resolutions of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan (under the President of the Republic of Uzbekistan) were adopted. These resolutions determined, inter alia, the list of data required for establishing disability, the procedure for assigning and paying allowances to persons disabled since childhood, the rules for assigning and paying pensions to elderly persons and citizens incapable of work who do not have the required work record, the State Program on “Maternal and Child Screening” aimed at early detection of congenital and other pathologies in newborns and pregnant women, the Program of measures to strengthen social protection of persons with disabilities in Uzbekistan, as well as the Regulation on the individual rehabilitation program for a disabled person. These documents also established supervision over training personnel among persons with disabilities and creating workplaces for them, while providing a number of additional benefits. The key resolutions include:

- Resolution No. 328 of the Cabinet of Ministers of July 17, 1992 “On Issues of Social Protection of Persons with Disabilities in the Republic of Uzbekistan” (invalid as of 01.09.2024) [2].

- Resolution No. 319 of the Cabinet of Ministers of June 24, 1994 “On the Procedure for Assigning and Paying Allowances to Persons Disabled Since Childhood, the Elderly, and Citizens Incapable of Work” (invalid as of 07.04.2011) [3].

- Resolution No. 433 of the Cabinet of Ministers of November 11, 1995 “On the State Program of the Republic of Uzbekistan for the Rehabilitation of Persons with Disabilities for 1996–2000” (invalid as of 22.02.2021).

- Resolution No. 140 of the Cabinet of Ministers of April 1, 1998 “On the Establishment of the State System of ‘Maternal and Child Screening’ for Early Detection of Congenital and Other Pathologies in Newborns and Pregnant Women in order to Prevent the Birth of Children with Disabilities” (invalid as of 22.07.2022) [4].

- Resolution No. 520 of the Cabinet of Ministers of December 7, 1999 “On the Program of Measures to Strengthen Social Protection of Lonely Elderly Persons, Pensioners, and Persons with Disabilities for 2000–2005” (invalid as of 22.02.2021) [5].

- Resolution No. 106 of the Cabinet of Ministers of March 29, 2002 “On Strengthening Social Assistance for Lonely Elderly Persons, Pensioners, and

Persons with Disabilities in Need of Care” (invalid as of 18.12.2023) [6].

- Resolution No. 89 of the Cabinet of Ministers of May 17, 2006 “On the Establishment of the National Center for Rehabilitation and Prosthetics of Persons with Disabilities” [7].

- Resolution No. 75 of the Cabinet of Ministers of March 18, 2009 “On the Approval of the Regulation on the Individual Rehabilitation Program for a Disabled Person” (invalid as of 23.12.2010) [8].

uch yildan besh yilgacha ish stajiga ega xodimlar uchun – o'rtacha oylik ish haqining yetmish besh foizidan;

besh yildan o'n yilgacha ish stajiga ega xodimlar uchun — o'rtacha oylik ish haqining yuz foizidan;

o'n yildan o'n besh yilgacha ish stajiga ega xodimlar uchun — o'rtacha oylik ish haqining bir yuz ellik foizidan;

o'n besh yildan ortiq ish stajiga ega xodimlar uchun — o'rtacha oylik ish haqining ikki yuz foizidan kam bo'lishi mumkin emas.

⁴⁴ “Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 15.10.2020 yildagi O'RQ-641-son// <https://lex.uz/docs/-5049511>.

⁴⁵ Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari // <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/nogironligi-blgan-shaxslar-uulari>.

⁴⁶ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 30.04.2023 // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.

⁴⁷ O'sha joyda.

Mehnat kodeksi 100-moddasiga ko'ra, xodim tibbiy xulosaga muvofiq yengilroq boshqa ishga o'tishni rad etgan yoki ish beruvchida yengilroq boshqa ish mavjud bo'lmaganda mehnat shartnomasi bekor qilinsa, ish qidirish davrida ikki oylik o'rtacha ish haqi saqlanib qolinishi kafolatlangan. Ya'ni, agar ish beruvchida sizning sog'lig'ingiz ko'taradigan ish o'rinlari bo'lmasa yoki shunday ish o'rni bo'lib, sizga taklif qilganda siz uni rad etsangiz mehnat shartnomasi bekor qilinadi. Lekin, ikki oygacha o'rtacha ish haqingiz saqlab qolinadi⁴⁸.

Mehnat kodeksining 167-moddasiga ko'ra korxona yoki muassasada texnologik yoki ishlab chiqarish jarayonlaridagi o'zgarishlar natijasida xodimlar sonini qisqartirish zarur bo'lganda, avvalo yuqori malaka va mehnat samaradorligiga ega bo'lgan ishchilarga ishda qolish huquqi beriladi⁴⁹. Masalan, korxonaga bir necha xodimning vazifasini bajaradigan zamonaviy uskuna olib kelinsa va bu ishni faqat bitta xodim kuzatib, boshqarsa yetarli bo'lsa, malakasi mos keladigan va samaradorligi yuqori bo'lgan xodimgina ushbu lavozimda saqlanib qolishi mumkin. Masalan, korxonada 2-guruh nogironligi mavjud xodim bo'lsa va korxonada xodimlar sonini qisqartirish jarayoni boshlangan bo'lsa, ish beruvchi avvalambor xodimlarni ularning kasbiy malakasi va mehnat samaradorligi asosida ishda saqlashga intilishi kerak. Bunda nogironlik holati ustunlik bermaydi. Ammo agar nogironligi mavjud xodim va boshqa xodimlarning malakasi hamda samaradorligi mutlaqo bir xil bo'lsa, nogironlik mavjudligi xodimga afzallik berishi mumkin.

Agar xodimlarning malakasi va mehnat samaradorligi teng darajada bo'lsa, moddaning ikkinchi bandida ko'zda tutilgan ayrim toifalarga ustunlik beriladi. Bunday toifalarga, jumladan, mazkur korxonada mehnat jarayonida jarohatlangan yoki kasbiy kasallikka duchor bo'lgan shaxslar, shuningdek nogironligi mavjud bo'lgan fuqarolar kiradi.

Konvensiyaga qo'shilgan davlatlar nogiron shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, mustaqil hayot kechirishi va ijtimoiy-siyosiy hayotda teng ishtirok etishi uchun imkoniyatlar yaratish, transport, axborot va aloqa tizimlaridan foydalanishni ta'minlash majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Nogiron shaxslar huquqlari turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlarda buzilishi tufayli murakkab xususiyatga ega. Eng keng tarqalgan to'siqlardan biri mehnatga joylashishdagi

qiyinchiliklardir. Ish beruvchilar ko'pincha nogiron shaxslarning samarali mehnat qilishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashdan qochadi, bu esa ularning ishga qabul qilinishini cheklaydi. Shuningdek, mehnat kodeksi 360-moddasiga muvofiq, nogironligi bo'lgan shaxslar dastlabki (mehnat shartnomasi tuzilayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi lozim. Ushbu kodeksning 426-moddasiga muvofiq, ular har yili majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishlari lozim. Nogironligi bo'lgan shaxslarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish xarajatlari ish beruvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi⁵⁰.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning ish vaqti davomiyligi bo'yicha milliy qonunchiligida bir qator imtiyozlar belgilangan. Jumladan, mehnat kodeksining 427-moddasiga asosan, I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun ish vaqtining davomiyligi haftasiga o'ttiz olti soatdan oshmasligi belgilangan. I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlar uchun kunlik ishning (smenaning) davomiyligi tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasining tavsiyalariga muvofiq belgilanadi. Lekin olti kunlik ish haftasida — kuniga olti soatdan, besh kunlik ish haftasida — kuniga yetti soat-u o'ttiz daqiqadan ortib ketmasligi kerak⁵¹.

Mehnatga oid munosabatlarda kamsitish amaliyoti uchun ish beruvchilarni javobgarlikka tortuvchi samarali ijro mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu mexanizmlar ma'muriy organlar, tenglik yoki inson huquqlari bo'yicha ixtisoslashgan komissiyalar, odil sudlari yoki nizolarni hal qilishning boshqa mexanizmlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu organlar shaxslarga shikoyat qilish va o'z huquqlarini himoya qilish yo'llarini taqdim etishi hamda fuqarolarning kamsitish haqidagi da'vo arizalarini ko'rib chiqishi, audit tekshiruvini o'tkazish orqali bandlik sohasida kamsitishlarni kamaytirishga erishish mumkin.

Mamlakatimizda mehnat munosabatlarida tengligini ta'minlash hamda nogironligi mavjud shaxslarga mehnat faoliyati bilan samarali shug'ullanishi uchun teng imkoniyat yaratib berish maqsadida nogiron xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini o'zgartirish va bekor qilishga oid qoidalarni yanada takomillashtirish lozim. Jumladan, nogironligi bor xodimlarga masofaviy hamda moslashuvchan ish muhitini yaratib bergan ish beruvchiga imtiyozlar ro'yxatini kengaytirish lozim.

Иқтибослар/Сноски/References:

1. Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya // <https://lex.uz/docs/-5501227>.
2. Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mita // <http://nhrc.uz/oz/menu/nogironlar-uulari-bjicha-mita>.
3. Nogironlar huquqlarini ta'minlash: Milliy va xalqaro yondashuvlardagi o'zaro mushtaraklik// <https://parliament.gov.uz/articles/310>.

⁴⁸ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 30.04.2023 // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.

⁴⁹ O'sha joyda.

⁵⁰ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 30.04.2023 // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi 30.04.2023 // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.

4. O'zbekistonda 1 mln nafardan ortiq nogironligi bo'lgan shaxslar bor// <https://www.gazeta.uz/oz/2025/04/15/disability/>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022-yildagi PF–60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/-5841063>.
6. <https://parliament.gov.uz/articles/310>.
7. O'zbekiston Respublikasining **"Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"** 15.10.2020-yildagi O'RQ–641-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/-5049511>.
8. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari // <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/nogironligi-blgan-shahslar-uulari>.
9. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (30.04.2023) // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.

HAR KIM UCHUN TENG IMKONIYATLAR: INKLYUZIV JAMIYAT VA IJTIMOIIY ADOLAT

Nurullayeva Laylo Xayrulloevna,

Trnava universiteti (Slovakiya) Huquq fakulteti 4-bosqich talabasi

Telefon: +998 94 200 09 21

laylonur77@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada inklyuziv jamiyat qurish masalasi, alohida ehtiyojga ega shaxslarning huquqlari va ijtimoiy himoyasi masalalari keng qamrovda tahlil qilingan. 2025-yil birinchi choragi yakunlari bo'yicha mamlakatda kuzatilgan statistik ko'rsatkichlar, jumladan, nogironlikning asosiy sabablari, yosh-guruhlar kesimidagi taqsimot, hududlar bo'yicha farqlar batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish, bandlikni ta'minlash, sog'liqni saqlash xizmatlarining sifatini oshirish hamda jamoat joylarini moslashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Muammolar sifatida huquqiy normalarning amaliyotga to'liq tatbiq etilmasligi, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli darajada moslashtirilmaganligi, nogiron shaxslar uchun ijtimoiy xizmatlardan foydalanishda to'siqlar mavjudligi qayd etilgan. Ilmiy tahlil davomida xalqaro tajribalar bilan solishtirish asosida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari ko'rsatilib, xususan, davlat va nodavlat sektor hamkorligini kuchaytirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kengaytirish hamda ijtimoiy innovatsiyalarni tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv jamiyat, teng imkoniyatlar, inson huquqlari, ijtimoiy adolat, ijtimoiy himoya, huquqiy asoslar.

АННОТАЦИЯ

В статье всесторонне анализируются вопросы построения инклюзивного общества, прав и социальной защиты лиц с особыми потребностями. На основе итогов первого квартала 2025 года подробно проанализированы статистические показатели по стране, включая основные причины инвалидности, распределение по возрастным группам и региональные различия.

Кроме того, в статье освещаются работы по развитию системы инклюзивного образования, обеспечению занятости, повышению качества медицинских услуг и адаптации общественных мест. В качестве проблем отмечаются неполное применение правовых норм на практике, недостаточная адаптация инфраструктуры в отдельных регионах, а также наличие барьеров в доступе лиц с инвалидностью к социальным услугам.

В ходе научного анализа, на основе сопоставления с международным опытом, предложены пути устранения существующих недостатков, в частности: усиление сотрудничества государства и негосударственного сектора, расширение участия институтов гражданского общества в защите прав лиц с инвалидностью, а также внедрение социальных инноваций.

Ключевые слова: инклюзивное общество, равные возможности, права человека, социальная справедливость, социальная защита.

ANNOTATION

The article provides a comprehensive analysis of the issues related to building an inclusive society, the rights, and social protection of people with special needs. Based on the results of the first quarter of 2025, statistical indicators observed in the country are analyzed in detail, including the main causes of disability, distribution by age groups, and regional differences.

Furthermore, the article highlights ongoing efforts to develop an inclusive education system, ensure employment, improve the quality of healthcare services, and adapt public spaces. Among the identified challenges are the incomplete implementation of legal norms in practice, insufficient infrastructure adaptation in certain regions, and barriers faced by persons with disabilities in accessing social services.

Through scientific analysis and comparison with international experience, the article suggests ways to address existing shortcomings, in particular: strengthening cooperation between the state and the non-governmental sector, expanding the role of civil society institutions in protecting the rights of persons with disabilities, and introducing social innovations.

Keywords: inclusive society, equal opportunities, human rights, social justice, social protection.

KIRISH (INTRODUCTION)

So'nggi yillarda inklyuziv jamiyatni barpo etish masalasi jahon hamjamiyati kun tartibidagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Chunki inson huquqlarini kafolatlash va teng imkoniyat yaratish demokratik jamiyatning asosiy tamoyilidir. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya

(CRPD) barcha davlatlardan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini tan olish, diskriminatsiyani bartaraf etish va ularni ijtimoiy hayotga to'laqonli jalb etishni talab qiladi[1][2]. Mamlakatimizda ham mazkur hujjatni ratifikatsiya qilib, milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish bo'yicha qator islohotlarni amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2021-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi, 2023-yilda esa yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida belgilandi[3]. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirish so‘nggi besh-yetti yilda faol bosqichga kirdi. Hukumatning “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi” va 2021-yilda qabul qilingan “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun muhim huquqiy asos bo‘ldi[4]. Ushbu huquqiy asoslar nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim, bandlik, sog‘liqni saqlash va transport sohalarida teng imkoniyatlardan foydalanishini ta’minlashga qaratilgan.

Masalaning ijtimoiy-falsafiy jihati ham muhim. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy yutuqlar, balki adolat, inson qadr-qimmati va birdamlik tamoyillarining amal qilish darajasi bilan belgilanadi. Shuning uchun inklyuziv jamiyat qurish huquqiy kafolatlar bilan bir qatorda, ijtimoiy ong va madaniy-ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligida rivojlanmoqda.

METODLAR (METHODS)

Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2025-yilning birinchi choragidagi ma’lumotlariga asoslanadi. Unda statistik tahlil, hududiy taqqoslash va demografik tahlil usullari qo‘llanildi. Statistik tahlil orqali nogironlik sabablari, yosh va ijtimoiy guruhlar kesimidagi taqsimot, shuningdek jins va nogironlik guruhlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar foizlarda ifodalandi. Hududiy taqqoslash usuli yordamida viloyatlar kesimida nogironligi bo‘lgan shaxslarning taqsimlanishi solishtirildi va mintaqaviy tafovutlar aniqlandi. Demografik tahlil jarayonida esa nogironligi bo‘lgan shaxslarning yosh tarkibi, jamiyatdagi ulushi va ijtimoiy faollik darajasi o‘rganildi. Ushbu metodologiya nogironlik masalasining ijtimoiy, mintaqaviy va demografik jihatlarini kompleks tahlil qilish imkonini berdi.

NATIJALAR (RESULTS)

2025-yilning birinchi choragi yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan e’lon qilingan statistik ma’lumotlar mamlakatda nogironligi bo‘lgan shaxslarning soni, ularning demografik tarkibi va ijtimoiy ahvolini ko‘rsatib bermoqda. Ushbu ma’lumotlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari bo‘yicha mavjud vaziyatni chuqurroq tahlil qilish va inklyuziv siyosatni rivojlantirish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

1-jadval.

2025-yil 1-chorak yakuni bo‘yicha nogironligi bo‘lgan shaxslarning asosiy ko‘rsatkichlari⁵²

Ko‘rsatkichlar	Soni	Ulushi (%)
Jami shaxslar	1 031 609	2,7 %
18 yoshgacha bolalar	173 285	16,8 %
I guruh	94 722	9,2 %
II guruh	695 372	67,4 %
III guruh	67 006	6,5 %
Ayollar	465 645	45 %
Erkaklar	565 964	55 %
30 yosh – pensiya yoshi	493 879	47,8 %

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jami soni 1 031 609 nafarni tashkil etib, bu O‘zbekiston aholisi tarkibida 2,7 % ulushga ega. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy hayotda katta qatlamni qamrab olayotganini ko‘rsatadi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslarning katta qismi II guruh nogironlariga to‘g‘ri keladi. Bu shaxslarning ko‘pchiligi qisman mehnatga layoqatli bo‘lsa-da, bandlikka jalb etilish darajasi past.

Yosh taqsimoti shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan shaxslarning deyarli yarmi mehnatga layoqatli yoshda. Bu mehnat bozorida inklyuziv siyosatni kuchaytirish va maxsus ish o‘rinlari yaratishni talab etadi. Shuningdek, 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar sonining 16,8 % ni tashkil etishi ham alohida tashvish uyg‘otadi, chunki bu kelajak avlodning ta’lim va ijtimoiy integratsiyasi jarayonida qo‘shimcha muammolarni yuzaga chiqaradi. Bolalar ulushi ijtimoiy himoya va ta’lim tizimida inklyuzivlikni kengaytirishni talab etmoqda. Bu ta’lim tizimida inklyuzivlikni kuchaytirish zarurligini ta’kidlaydi.

Gender tafovutiga ko‘ra, erkaklar ayollarga nisbatan ustun. Bu esa gender asosida xizmatlarni turlicha yo‘naltirish zarurligini bildiradi.

Shaxslarning umumiy tarkibi va demografik ko‘rsatkichlari mamlakat miqyosidagi umumiy tendensiyalarni ochib beradi. Biroq, bu raqamlar hududlar kesimida sezilarli farqlanishi bilan ham ajralib turadi. Ya’ni, ayrim viloyatlarda nogironligi bo‘lgan shaxslar soni yuqori bo‘lsa, boshqalarida ancha past darajada qayd etilgan. Shu bois, masalaning hududiy taqsimotini tahlil qilish inklyuziv siyosatni manzilli tarzda amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval.

Hududlar kesimidagi ko‘rsatkichlar⁵³

№	Viloyat	Shaxslar soni
1.	Samarqand	110 189
2.	Qashqadaryo	108 041
3.	Farg‘ona	94 395
4.	Andijon	88 470

⁵² Manba: Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2025-yil birinchi choragi yakunlari bo‘yicha statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵³ Manba: Ijtimoiy himoya milliy agentligining 2025-yil birinchi choragi yakunlari bo‘yicha statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

5.	Surxondaryo	88 470
6.	Sirdaryo	38 123
7.	Jizzax	44 496
8.	Navoiy	48 172
9.	Buxoro	60 446

Hududiy taqsimot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, aholining nogironligi bo'lgan qismining soni barcha viloyatlarda bir xil emas va demografik hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bevosita bog'liqdir.

Eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida qayd etilgan. Bu holat ushbu hududlarda aholining ko'pligi, shuningdek, surunkali kasalliklarning keng tarqalishi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lishi asosiy sabab sifatida ko'rsatilishi mumkin. O'rta ko'rsatkichlar Farg'ona, Andijon va Surxondaryo viloyatlariga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu mintaqalarda ham ijtimoiy himoya xizmatlari uchun yuqori ehtiyoj mavjudligini bildiradi. Ushbu viloyatlar yuqori aholi zichligi va mehnat migratsiyasi oqibatida tibbiy-ijtimoiy muammolarga duch kelmoqda. Eng past ko'rsatkichlar Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan. Buning asosiy sababi – aholining son jihatdan nisbatan kamligi bilan izohlanadi. Buxoro viloyati 60 446 nafar ko'rsatkich bilan o'rta pog'onada turib, hududlar kesimida farqlarning qanchalik sezilarli ekanini ko'rsatadi.

Hududlar kesimida Samarqand va Qashqadaryo yetakchilik qilmoqda, Sirdaryo va Jizzax esa eng past ko'rsatkichlarga ega. Bu tafovutlar:

- aholining soni,
- iqtisodiy rivojlanish darajasi,
- sog'liqni saqlash infratuzilmasi imkoniyatlari bilan bevosita bog'liq.

Hududiy siyosatni ishlab chiqishda ushbu tafovutlarni hisobga olish zarur. Masalan, Janubiy Koreya tajribasida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash hududiy dasturlar asosida amalga oshiriladi va aholisi ko'p mintaqalarga qo'shimcha moliyaviy resurslar yo'naltiriladi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aholining soni ko'p va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan faol hududlarda ko'rsatkichlar yuqori, nisbatan kichik viloyatlarda esa past. Hududiy farqlar shuni anglatadiki, inklyuziv siyosatni amalga oshirishda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib manzilli yondashuv zarur. Samarqand va Qashqadaryoda keng qamrovli reabilitatsiya xizmatlari talab qilinsa, Sirdaryo va Jizzaxda profilaktika va sog'lomlashtirish dasturlari muhimroqdir.

Ikkala jadvalning tahlili O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslar soni aholining sezilarli qismini tashkil etishini va hududiy tafovutlar

mavjudligini ko'rsatmoqda. Bu esa davlat siyosatida kompleks, hududiy va demografik omillarga asoslangan inklyuziv strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Statistik tahlil natijalariga ko'ra, bir nechta muammolar ajralib chiqadi. Birinchidan, mehnatga layoqatli yoshdagilar ko'pligiga qaramay, ularning ko'pchiligi iqtisodiy faoliyatga jalb etilmagan. Bu mehnat bozorida teng imkoniyatlarning yetarlicha ta'minlanmaganidan dalolat beradi. Ikkinchidan, hududlar kesimida sezilarli tafovut mavjud: Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lsa, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida ancha past. Bu farqlar hududiy rivojlanishdagi nomutanosiblikni ko'rsatadi. Uchinchidan, nogironlikning asosiy sabablari orasida qon aylanish tizimi kasalliklari, suyak-mushak tizimi kasalliklari va tug'ma nuqsonlar yetakchi o'rinni egallamoqda. Bu esa profilaktika, erta tashxis va reabilitatsiya tizimining takomillashtirilishini talab etadi.

Statistik tahlil quyidagi muammolarni ochib bermoqda:

- nogironligi bo'lgan shaxslarning katta qismi mehnatga layoqatli yoshda bo'lsa-da, ularning bandligi past;
- hududlar o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud;
- inklyuziv ta'lim va reabilitatsiya tizimlari yetarli darajada rivojlanmagan;
- gender tafovutlari nogiron ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda cheklanishiga olib kelmoqda.

Hududiy ko'rsatkichlar mamlakat bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash siyosati manzilli va hududlarning o'ziga xos demografik hamda iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib amalga oshirilishi lozimligini anglatadi. Aholisi ko'p hududlarda qo'shimcha resurslar safarbar etilishi zarur, aholi soni kam hududlarda esa xizmatlarni sifat va samaradorlik nuqtayi nazaridan kuchaytirish muhimdir.

Xalqaro tajribaga murojaat etish mavjud muammolarni hal etishda samarali yondashuvlarni ko'rsatadi. Masalan: Germaniyada ish beruvchilar nogiron shaxslarni ishga qabul qilish kvotalariga rioya qilishi shart, aks holda ular maxsus jamg'armaga to'lov amalga oshiradi. Bu usul inklyuziv bandlikni rag'batlantirishda ijobiy natija bergan. Skandinaviya mamlakatlarida nogironlar uchun "yagona ijtimoiy paket" amalda bo'lib, ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va bandlik integratsiyalashgan holda ta'minlanadi. Bu model inklyuziv jamiyatni barpo etishda muhim omil bo'lgan. Yaponiyada esa texnologiyalardan keng foydalanilib, nogiron bolalar uchun moslashtirilgan o'quv dasturlari va maxsus infratuzilma joriy qilingan. Natijada, nogiron bolalarning 90 foizdan ortig'i umumta'lim maktablarida tahsil olmoqda.

Mazkur xorijiy tajribalar mamlakatimiz uchun ham dolzarb bo'lishi mumkin. Jumladan, Germaniya

modeliga o'xshash tarzda ish beruvchilar uchun inklyuziv bandlik kvotalarini belgilash, Skandinaviya tajribasi asosida ijtimoiy xizmatlarni yagona tizimga integratsiya qilish, Yaponiya amaliyotidan kelib chiqib esa maktablarda texnologik moslashtirishlarni keng joriy etish mamlakatda inklyuziv jamiyatni shakllantirishning samarali mexanizmlaridan biri bo'lishi mumkin. Shu orqali nafaqat ijtimoiy adolat ta'minlanadi, balki nogironligi bo'lgan shaxslarning iqtisodiy faoliyati va jamiyat hayotiga to'liq integratsiyasi ham amalga oshadi.

Xorijiy tajriba asosida takliflar

- Skandinaviya davlatlari tajribasi: nogironlar uchun "keng qamrovli ijtimoiy paket" joriy etilgan, bunda nafaqat moddiy yordam, balki sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va mehnatga joylashtirish masalalari bir tizimda hal etiladi.

- Germaniya modeli: ish beruvchilar nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilish majburiyatiga ega va bunga amal qilmagan korxonalar maxsus jamg'armaga to'lov qiladi.

- Yaponiya tajribasi: nogironligi bo'lgan bolalar uchun zamonaviy inklyuziv ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular uchun maxsus texnologiyalar va moslashtirilgan o'quv dasturlari ishlab chiqiladi.

- O'zbekiston sharoitida nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash siyosatini yanada takomillashtirish uchun:

- mehnat bozorida inklyuziv siyosatni kuchaytirish,

- hududiy tafovutlarni kamaytirish maqsadida manzilli dasturlar ishlab chiqish,

- inklyuziv ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish,

- xorijiy tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish zarur.

Shu asosda nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtiroki va iqtisodiy faolligini ta'minlash mumkin.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

O'zbekiston sharoitida nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda to'laqonli ishtirok etishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy muammolardan biri — ijtimoiy infratuzilmaning yetarli darajada inklyuziv emasligidir. Jumladan, jamoat joylari, transport vositalari, ta'lim muassasalari va sog'liqni saqlash tizimida universal dizayn va maxsus moslashtirilgan sharoitlar yetarlicha joriy etilmagan. Bu esa, inson huquqlarining to'liq ro'yobga chiqishini cheklaydi.

Falsafiy nuqtayi nazardan, adolatli jamiyat tushunchasi barcha a'zolarining teng imkoniyatlarga ega bo'lishini taqozo etadi. J. Rolzning adolat nazariyasiga ko'ra, "adolat – bu ijtimoiy institutlarning birinchi va eng muhim fazilati" bo'lib, u resurslar va imkoniyatlarning

adolatli taqsimlanishini ta'minlashni talab etadi [5]. Shu jihatdan, inklyuziv jamiyat g'oyasi faqat nogironligi bo'lgan shaxslar manfaatlariga emas, balki butun jamiyatning ijtimoiy birdamligi va barqarorligiga xizmat qiladi.

Muammoni bartaraf etish yo'llari quyidagilardan iborat:

1. Inklyuziv ta'limni rivojlantirish. BMTning 2006-yilda qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" (CRPD) 24-moddasida barcha shaxslar uchun sifatli va inklyuziv ta'lim huquqi mustahkamlab qo'yilgan. Shu bois, umumta'lim muassasalarida qo'shimcha resurs markazlari va maxsus pedagogik yondashuvlarni kengaytirish muhim.

2. Mehnat bozorida qo'llab-quvvatlash. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarning bandlik darajasi dunyo bo'yicha o'rtacha 36 % ni tashkil etsa, umumiy aholining bandlik darajasi 60 % dan yuqori. Bu tafovutni qisqartirish uchun kvotalar tizimi, maxsus ish o'rinlari va masofaviy mehnat imkoniyatlarini rivojlantirish zarur.

3. Tibbiy reabilitatsiya tizimini takomillashtirish. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 2022-yilgi hisobotida reabilitatsiya xizmatlari sog'liqni saqlash tizimining ajralmas qismi sifatida barcha uchun ochiq va arzon bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi[6].

Xorijiy tajribaga murojaat qilsak, Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) inklyuziv siyosatning ilg'or namunalari taqdim etadi. Masalan, Shvetsiyada ijtimoiy himoya tizimi "universal xizmatlar modeli" asosida tashkil etilgan bo'lib, nogironligi bo'lgan shaxslar uy sharoitida ham, jamoat joylarida ham to'liq qo'llab-quvvatlanadi[7]. Norvegiyada esa har bir shaxsning bandligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanib, "faol ishtirok" tamoyili asosida maxsus kasb-hunar dasturlari ishlab chiqilgan.

Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, Skandinaviya tajribasi ijtimoiy adolat va inklyuziya masalasini nafaqat huquqiy kafolatlar, balki moliyaviy, tashkiliy va institutsional mexanizmlar orqali ham mustahkamlashga asoslangan. Mamlakatimizda ushbu tajribani tatbiq etilishi, xususan, ijtimoiy xizmatlarni mahalliy darajada ham kengaytirish, davlat va nodavlat sektor o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA (CONCLUSION)

Inklyuziv jamiyat g'oyasi zamonaviy demokratik taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Chunki, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyada ta'kidlanganidek, har bir inson qadr-qimmat, erkinligi va huquqlari teng va ajralmas hisoblanadi. Shu ma'noda, inklyuzivlik nafaqat huquqiy

majburiyat, balki ijtimoiy adolat va falsafiy qadriyat sifatida ham qaralishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi tajribasi shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda qabul qilingan Konstitutsiya islohotlari hamda "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun ushbu sohada muhim normativ-huquqiy asos yaratdi[3][4]. Biroq statistik tahlillar mamlakat miqyosida muammo dolzarbligicha qolayotganini ko'rsatadi: 2025-yilning birinchi choragi yakunlariga ko'ra, 1 milliondan ortiq fuqaro ijtimoiy himoya tizimida ro'yxatga olingan bo'lib, ularning katta qismi mehnatga layoqatli yoshdagilarni tashkil etadi[8]. Bu esa, inklyuziv bandlik siyosatini kuchaytirishni taqozo etadi.

Jahon tajribasi ham ushbu yo'nalishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Masalan, Skandinaviya davlatlarida ijtimoiy inklyuziya siyosati huquqiy, iqtisodiy va madaniy mexanizmlar uyg'unligida amalga

oshiriladi. Norvegiyada "faol ishtirok" modeli asosida nogironligi bo'lgan shaxslar mehnat bozoriga integratsiya qilinsa, Shvetsiyada esa universal ijtimoiy xizmatlar modeli barcha fuqarolar uchun teng imkoniyatlarni kafolatlaydi[7].

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv jamiyat barpo etish uchun quyidagilarni uyg'unlashtirish muhim:

- huquqiy yondashuv – xalqaro normalar va milliy qonunchilikni to'liq amalga oshirish;

- ijtimoiy yondashuv – ta'lim, bandlik va rehabilitatsiya tizimlarini moslashtirish;

- falsafiy yondashuv – adolatli jamiyat g'oyasini, inson qadr-qimmatini va tenglik qadriyatlarini mustahkamlash.

Shunday qilib, inklyuziv jamiyat qurish demokratik taraqqiyotning poydevori bo'lib, u nafaqat nogironligi bo'lgan shaxslarning balki butun jamiyatning barqarorligi va farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Iqtiboslar/Snoski/References:

1. United Nations. Convention on the Rights of Persons with Disabilities (CRPD) // New York: UN. 2006.
2. UNDP. Inclusive development and social protection in Central Asia // New York: United Nations Development Programme. 2023
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2023-yil tahriri.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni, 2020. Toshkent sh.
5. Rawls, J. A Theory of Justice. Harvard University Press // Justice is the first virtue of social institutions, as truth is of systems of thought. 1971.
6. World Health Organization (WHO). *World Report on Disability*. Geneva: WHO, 2023.
7. Swedish Social Insurance Agency. *Disability Policy in Sweden: Annual Report*. Stockholm, 2021.
8. Ijtimoiy himoya milliy agentligi. *2025-yil I-chorak yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotlar*. Toshkent, 2025.
9. OECD. *Social Inclusion of People with Disabilities: Policy Frameworks and Practices* // Paris: OECD Publishing, 2020.
10. Shakespeare, T. *Disability Rights and Wrongs* // 2nd Edition. London: Routledge, 2014.
11. Mitra, S. – The Capability Approach and Disability // *Journal of Disability Policy Studies*, vol. 16, no. 4, 2006, pp. 236 — 247.
12. European Union Agency for Fundamental Rights (FRA). *From Institutions to Community Living: EU Report on Disability Inclusion*. Vienna, 2022.
13. United Nations Development Programme (UNDP). *Disability Inclusive Development in Asia-Pacific*. Bangkok, 2018.

NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXS TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

Biz sizlarning bunday oliyjanob intilishlaringizni yuksak qadrlaymiz va ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi faol ishtirokingiz uchun barchangizga chuqur minnatdorlik bildiramiz.
Shavkat Mirziyoyev

ANNOTATSIIYA

Ushbu maqolada "nogironligi bo'lgan shaxs" tushunchasi bo'yicha turli xil yondashishlar haqida va uning huquqda, huquqiy hujjatlardagi o'rni va roli haqida fikr yuritilgan. Maqolada nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashning o'ziga xos jihatlari haqidagi fikrlar ilgari surilgan. Nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi haqida yondashilgan fikrlar yuzasidan yakuniy to'xtamga kelingan. Muayyan taklif va tashabbuslar berilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari va erkinliklari bo'yicha bir nechta xalqaro, milliy normativ hujjatlardan misollar keltirilgan. Nogironligi bo'lgan shaxslarga davlat tomonidan berilgan imtiyoz va imkoniyatlar haqida va ularni belgilash tizimi bo'yicha atroflicha yondashilgan. Yakunida nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi va uning huquqdagi o'rni va roli bo'yicha yakuniy xulosalar qilingan.

Kalit so'zlar: Nogironligi bo'lgan shaxs, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, deklaratsiya, inson huquqlari, sensor, kompensatsiya.

ANNOTATION

This article discusses various approaches to the concept of "person with disabilities" and its place and role in law and legal documents. The article puts forward ideas on the specific aspects of ensuring the rights, freedoms and legitimate interests of persons with disabilities. A final conclusion is made on the approaches to the concept of a person with disabilities. Specific proposals and initiatives are given. Examples from several international and national normative documents on the rights and freedoms of persons with disabilities are given. A comprehensive approach is taken to the privileges and opportunities provided by the state to persons with disabilities and the system for determining them. Finally, final conclusions are made on the concept of a person with disabilities and its place and role in law.

Key words: Person with disabilities, Convention on the Rights of Persons with Disabilities, World Health Organization, Medical Labor Expertise Commission, Constitution of the Republic of Uzbekistan, declaration, human rights, sensor, compensation.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются различные подходы к понятию «человек с ограниченными возможностями», его место и роль в законодательстве и правовых документах. В статье излагаются соображения относительно особенностей обеспечения прав, свобод и законных интересов лиц с ограниченными возможностями. Сделан окончательный вывод о подходах к понятию человека с ограниченными возможностями. Даны конкретные предложения и инициативы. Приведены примеры из ряда международных и национальных нормативных документов о правах и свободах лиц с ограниченными возможностями. Комплексно рассматривается вопрос о льготах и возможностях, предоставляемых государством лицам с ограниченными возможностями, и системе их определения. В заключение сделаны окончательные выводы относительно понятия «человек с ограниченными возможностями», его места и роли в праве.

Ключевые слова: Инвалид, Конвенция о правах инвалидов, Всемирная организация здравоохранения, Врачебно-трудовая экспертная комиссия, Конституция Республики Узбекистан, декларация, права человека, цензура, компенсация.

Nogironligi bo'lgan shaxs. Jamiyatimizning ajralmas qismi ishtirokchilari bo'lgan shaxslardir ular. Bu doim ta'kidlangan va e'tirof etilgan. Hozir biz birinchi navbatda nogironligi bo'lgan shaxslarga emas, balki nogironligi bo'lgan shaxs tushunchasi haqida to'xtalmoqchiman. Xususan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti professori Ravshan Hakimov va shu soha tadqiqotchisi Sardor

Jalilov bu tushuncha haqida quyidagicha fikrdalar "Hozirgi zamonda nogironligi bo'lgan shaxslarning hayoti to'g'risida insoniyat nimaga ega? Savol qiyin, ammo shu bilan birga, turmush darajasi boy yoki kambag'al bo'lishidan qat'i nazar, barcha mamlakatlar uchun juda dolzarbdir. Noaniqlik zamonaviy yuridik fanlarda ham mavjud bo'lib, u yerda "nogiron" tushunchasining umumiy qabul qilingan ta'rifi hali

mavjud emas, bu borada xalqaro tashkilotlar (BMT, XMT, JSST va boshqa) va olimlarning nuqtai nazari xilma-xil va g'ayrioddiy, xuddi shu narsa xalqaro va milliy huquq normalariga ham tegishli". Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti esa bu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Sog'liqni saqlash tajribasi nuqtai nazaridan, buzilish, psixologik, fiziologik yoki anatomik tuzilish yoki funksiyaning har qanday yo'qolishi yoki anormaligidir. Sog'liqni saqlash tajribasi nuqtai nazaridan, nogironlik – bu inson uchun odatiy deb hisoblangan tarzda yoki doirada faoliyatni amalga oshirish qobiliyatining har qanday cheklanishi yoki yetishmasligi hisoblanadi. Sog'liqni saqlash tajribasi kontekstida nogironlik – bu nogironlik yoki nogironlik natijasida yuzaga keladigan, normal bo'lgan rolni bajarishni cheklaydigan yoki to'sqinlik qiladigan kamchilikdir"⁵⁴.

O'zbekistonning O'zbekistonda esa nogironlik tibbiy va xayriya modellarining birlashuvidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Nogironligi bo'lgan shaxs – o'zining jismoniy yoki aqliy zaifliklari oqibatida mehnat qilishi cheklanganligi tufayli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj insondir. Inson ishlashining, mehnat qilishining cheklanishi ularning o'ziga o'zi xizmat qilish qobiliyati, atrofda harakatlanish, yo'nalishni aniqlash, muloqot qilish, o'zining xatti-harakatlarini nazorat qilish va ishlash, mehnat qilish salohiyatini to'liq yoki qisman yo'qotish bilan tavsiflanadi. Ushbu kamchiliklarga asoslangan rasmiy ta'rif "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya (keyingi o'rinlarda Konvensiya)⁵⁵da mavjud bo'lgan nogironlikning ijtimoiy ta'rifidan farq qiladi. Konvensiyada berilgan ta'rif inson huquqlarini mustahkamlash, ta'minlash va kafolatlashga qaratilgan bo'lib, atrof-muhitni baholashni o'z ichiga oladi va yetarli darajada qo'llab-quvvatlanayotgan, o'z-o'ziga ishongan shaxsni ifodalaydi. Nogironlikning rasmiy aniqlanishi Konvensiyadagi ta'rif bilan uyg'un bo'lmagan tibbiy baholashga asoslanadi. Mavjud yondashuv bilan bog'liq protsessual tashvishlar mavjud. Mavjud kasalliklar ro'yxati cheklanishni emas, balki faqat kasallikni tasvirlaydi, lekin ko'pincha og'irlik darajasini aniqlashga urinadi. Shu bilan birga, jarayonning nisbatan soddaligiga qaramasdan, ular quyidagicha aniqlanadi:

1) kasalliklar ro'yxati to'liq emas;

2) dalillar kasallikning og'irligi va cheklanish darajasi o'rtasida hech qanday o'xshashlik yo'qligini ko'rsatmoqda;

3) o'rnatilgan metodologiya va maxsus vositalarning mavjud emasligi baholashda ixtiyoriy vakolatlariga imkon beradi;

4) madaniy va ekologik omillarni e'tiborga olmaydi.

"Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasida quyidagicha ta'rif keltiriladi: *Nogironlik* – bu tadrijiy rivojlanib boruvchi tushuncha, nogironlik buzilgan salomatlik hamda munosabat va muhit to'siqlari o'zaro munosabatlari natijasi bo'lib, va bu ularning jamiyat hayotida boshqalar bilan teng va samarali ishtirok etishiga xalaqit berishini tan olib, nogironlarga turli to'siqlar bilan o'zaro munosabatda ularning boshqalar bilan teng holda jamiyat hayotida to'la va samarali ishtirok etishiga xalaqit beradigan barqaror jismoniy, psixik, intellektual yoki sensor buzilishlari bo'lgan shaxslar taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra esa ushbu quyidagicha ta'rif nogironlik tushunchasi uchun berib o'tilgan. Nogironligi bo'lgan shaxs – ijtimoiy yordam va himoyaga, jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotida boshqalar bilan birga teng to'liq va samarali ishtirok etish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga muhtoj barqaror jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxs. Yuqoridagilarni ko'rib bundan shunday xulosa qilishimiz mumkin, nogironligi bo'lgan shaxs hayot faoliyatida, harakatlanishda va jamiyat bilan muomalaga kirishishida cheklavlar mavjud bo'lgan shaxs hisoblanar ekan. Yana xuddi shu "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra shaxs hayotining cheklanganligi bo'yicha ham quyidagi ta'rif keltirilgan. Shaxs hayot faoliyatining cheklanganligi – shaxsning o'ziga o'zi xizmat qilish, harakatlanish, yo'lni topa olish, muloqot qilish, o'z xulq-atvorini nazorat qilish, shuningdek o'qish va mehnat faoliyati bilan shug'ullanish qobiliyatini yoki imkoniyatini to'liq yoxud qisman yo'qotganligidir.

Izlanishlar natijasi o'laroq, nogironlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *"Nogironlik, invalidlik – kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum*

⁵⁴ <https://www.who.int/ru>.

⁵⁵ Konvensiya Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan 2006-yil 13-dekabrda qabul qilingan va 2007-yil 30-martda imzolash uchun ochilgan. 20 ta davlat tomonidan ratifikatsiya qilinganidan keyin 2008-yil 3-mayda kuchga kirgan. 2022-yil aprel holatiga ko'ra, 163 ta imzolovchi davlat va 185 ta a'zo bo'lgan davlat, ya'ni 184 ta davlat va Yevropa Ittifoqi (Yevropa Ittifoqi Konvensiyani 2010-yil 23-

dekabrda ratifikatsiya qilgan) // https://uz.wikipedia.org/wiki/Nogironlar_huquqlari_to'g'risidagi_Konvensiya. Konvensiya O'zbekiston Respublikasining 07.06.2021 yildagi O'RQ–695-son Qonuni bilan ratifikatsiya qilingan // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.06.2021-y., 03/21/695/0536-son. Konvensiya matni: URL.: <https://lex.uz/docs/-5501227>.

muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi".

Keyingi masala bu nogironlikni belgilash masalasi. O'zbekistonda nogironlikni belgilash Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan amalga oshiriladi. Nogironlikni belgilash mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab 3 guruhga bo'linib, asosiy 2 turda ya'ni vaqtincha (6-12 oy) yoki muddasiz qilib tayinlanadi. 1-guruh Nogironligiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqaning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar.

2-guruh nogironiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat'i nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar. 3-guruh nogironligiga mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslar davlat nafaqasi bilan ta'minlanadi, zarur bo'lganda davolanadi, ularga protezlar beriladi, ishga, maxsus maktablarga joylashtirish uchun sharoit yaratiladi. Nogironlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy rehabilitasiya qilish orqali faol hayotga, mehnatga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi. Ularni davolash, kasbiy rehabilitasiya qilish davlatning eng asosiy vazifasi bo'lib qoladi. Bu borada davlat rahbarining hurmatli O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir necha harakatlar boshlangan. Xususan, nogironligi bo'lgan fuqarolarni qo'llab quvvatlash, ularning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Davlat rahbari o'z chiqishlarida nogironligi bo'lgan shaxslar jamiyatning to'laqonli a'zosi ekanligini ta'kidlab, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini qayd etgan. O'zbekiston Prezidenti 3-dekabr – "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan qilgan murojaatida quyidagi taklif va tashabbuslarni ilgari surdi:

1. Uy-joy sharoitlarini yaxshilash: "Yangi O'zbekiston" massivlarida nogironligi bo'lgan shaxslarga subsidiya va imtiyozli kreditlar asosida uy-joylar ajratiladi.

2. Doimiy muloqot tizimi: Davlat idoralari va rahbarlar nogironligi bo'lgan shaxslarning muammolarini o'rganish va hal qilish bo'yicha doimiy muloqot tizimini yo'lga qo'yadi.

3. Ijtimoiy modelga o'tish: Nogironlikni belgilashda eskirgan tibbiy modeldan ijtimoiy modelga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan.

4. To'siqsiz muhit yaratish: Bino va inshootlarni qurish, jamoat transporti va axborot

vositalarini ishlab chiqarishda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun to'siqsiz muhit yaratishga ustuvor ahamiyat beradi.

5. Rehabilitasiya markazlarini kengaytirish: Nogironligi bo'lgan shaxslarni rehabilitasiya qilish va protezlash markazlarining qamrov hajmi ikki baravar oshiriladi, mavjud markazlar zamonaviy uskunalar bilan jihozlanadi.

O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning bu tashabbuslari nogironligi bo'lgan fuqarolarning hayot sifatini yaxshilash, ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan. Prezident shuningdek, har bir fuqaroning qadr-qimmatini va sha'nini ulug'lash, mehr-oqibat va g'amxo'rlik tamoyillarini jamiyat hayotining asosiy qoidasi sifatida belgilagan.

Keyingi masala, bu nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari tushunchasi va ta'rifi. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlariga to'xtaladigan bo'lsak, avvalo, ular inson ekanini inobatga olib, hamma qatori teng yashash huquqiga ega va bu davlat tomonidan kafolatlanganligini e'tirof etish lozim bo'ladi ya'ni bu avvalo inson huquqidir. Bunga dalil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ma'lum belgilangan normasidir. Unga ko'ra, Konstitutsiyaning 25-moddasida quyidagicha belgilangan. "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi"⁵⁶. 26-moddasida esa "Insonning sha'ni va qadr-qimmatini daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas. Hech kimda uning roziligisiz tibbiy va ilmiy tajribalar o'tkazilishi mumkin emas" deb belgilangani ham bevosita va bilvosita bu normalar nogironligi bo'lgan shaxslarga bog'liqdir. 57-moddada "Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir" deb belgilangan.

Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarni ko'radi.

Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-

⁵⁶ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (25-modda) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон. URL: <https://lex.uz/ru/docs/6445145>.

<http://lex.uz/docs/-5501227> Nogironlar huquqlari to'g'risida konvensiya.

sharoitlar yaratadi, ularning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi" deb belgilangan.

70-modda "O'zbekiston Respublikasida kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, olimlarning jamiyatlari, xotin-qizlar tashkilotlari, faxriylar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar tashkilotlari, ijodiy uyushmalar, ommaviy harakatlar hamda fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari sifatida e'tirof etiladi. Jamoat birlashmalarini tarqatib yuborish, ularning faoliyatini taqiqlab yoki cheklab qo'yish faqat sud qarori asosidagina amalga oshiriladi" deb belgilangan normada ham nogiron so'zini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek Konstitutsiyaning

115-moddasida ya'ni Vazirlar Mahkasining konstitutsiyaviy vakolatlari belgilangan moddaning 3-qismida "aholini, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi" degan norma mavjud va bu shuni ko'rsatadiki, ularni ijtimoiy himoya qilish konstitutsiya darajasida belgilangan va hukumatning mutlaq konstitutsiyaviy vakolatiga kiradi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 19-moddasida nogironlarning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi ham quyidagicha belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda tajovuzlardan himoya qilinish, o'z shaxsiy hayoti, oilasi, uy-joyi yoki xat-xabarlari daxlsizligi, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilinishi huquqiga ega.

Keyingi masalamiz bu nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqi va qonuniy manfaatlarini xalqaro va xorijiy qonunchilikda belgilanganidir. Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari bo'yicha eng asosiy xalqaro hujjat – Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi" (UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities – CRPD) hisoblanadi. Yana "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" (1948) – barcha insonlar teng huquqlarga ega ekanligini e'lon qiladi. BMTning 1993-yildagi "Standart Qoidalar" – nogironlar uchun imkoniyatlarni tenglashtirishga doir qoidalar. "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" (1966) – nogironlar bu sohalarida ham teng huquqlarga ega ekanini tan oladi. Bu hujjatlardagi normalarni barcha davlatlar qo'llaydimi? Unda qo'llangan normalar har bir inson bolasi uchun qo'llanadimi? Degan savollar ko'plab uchraydi amaliyotda. Bu chuqur o'ylanadigan va tadqiq etiladigan savollardir. Lekin bizning javobimiz hozirda quyidagicha bo'ladi. "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ning 10-moddasida quyidagicha belgilangan. "Ishtirok etuvchi davlatlar har bir insonning yashash huquqi ajralmas huquqi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi va nogironlar boshqalar bilan teng ravishda bu huquqni samarali amalga oshirishlarini ta'minlash

uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Demak ishtirok etuvchi davlatlar ekan. Ha, xavotirga o'rin yo'q. O'zbekiston bu hujjatni 28-iyul 2021-yilda ratifikatsiya qilgan va hujjatda belgilangan shartlarga qo'shilgan. Bu degani bu xalqaro hujjatdagi barcha normalar O'zbekistonning har bir fuqarosiga to'g'ridan to'g'ri amal qiladi. Endigi masala bu xalqaro hujjatdagi nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari bo'yicha belgilangan bir necha normalarga qarashdir.

Yuqorida shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi Konstitutsiya darajasida belgilanganidan misol keltirgan bo'lsak, endi xalqaro hujjatlardan misollar keltiramiz. Xususan, "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ning

22-moddasida nogironlarning shaxsiy hayot daxlsizlik huquqi quyidagicha belgilangan. "Birorta nogiron, yashash joyi yoki turar joy sharoitlaridan qat'i nazar, shaxsiy hayoti, oilasi, turar joyi yoki yozishmalari va boshqa muomala turlarining daxlsizligiga asossiz yoki noqonuniy tajovuz qilinishiga yoki uning sha'ni va obro'siga noqonuniy xurujlarga duchor bo'lmasligi kerak. Nogironlar bunday tajovuzlar yoki xurujlardan himoyalaniş huquqiga ega. Keyingi masala nogironligi bo'lgan shaxslarning tengligi va kamsitilishlarga yo'l qo'yilmasligidir". Konvensiyaning 5-moddasida tenglik va kamsitilish normasi belgilangan. Unga ko'ra, "ishtirok etuvchi davlatlar barcha shaxslar qonun oldida teng ekanligini va unga ko'ra qonun tomonidan biror kamsitishsiz teng himoyalaniş hamda undan teng foydalanish huquqiga egaligini tan oladi. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlik belgisi bo'yicha har qanday kamsitishni man etadi hamda nogironlarga har qanday asosda kamsitishdan teng va samarali huquqiy himoyani kafolatlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar tenglikni rag'batlantirish va kamsitishni bartaraf etishda oqilona moslashishni ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

Endi yana milliy qonunchilikka qaytamiz. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5-moddasida nogironlarni kamsitish va tenglik prinsipi o'rin olgan. Xususan unda, "nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan har qanday ajratib qo'yish, istisno etish, chetlatish, cheklash yoki afzal ko'rish, shuningdek nogironligi bo'lgan shaxslarning obyektlar va xizmatlardan foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishni rad etish taqiqlanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar tengligini ta'minlashga hamda ularni jamiyat va davlat hayotiga jalb etishga qaratilgan maxsus choralar boshqa fuqarolarga nisbatan kamsituvchi choralar hisoblanmaydi".

Keyingi masala nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ifodalovchi asosiy prinsiplarni xalqaro va milliy qonunchilik misolida ko'rish. Ya'ni misol Konvensiyada nogironlar huquqlarini ifodalovchi

asosiy prinsiplar sifatida quyidagilar belgilangan. Insonga xos bo'lgan qadr-qimmatni, uning shaxsiy mustaqilligi, shu jumladan mustaqil tanlovi erkinligini hamda mustaqilligini hurmat qilish, kamsitmaslik, jamiyatga to'la va samarali jalb etish va qo'shish, nogironlarning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish va buni insoniy turfa xillikning tarkibi va insoniyatning bir qismi sifatida qabul qilish, imkoniyatlarning tengligi, to'siqsiz foydalanish, erkaklar va ayollarning tengligi, nogiron bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatlarini hurmat qilish va nogiron bolalarning o'z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolish huquqini hurmat qilish. Xuddi shuningdek, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida ham shu prinsiplar o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat: nogironligi bo'lgan shaxslarning qadr-qimmatini, ularning mustaqilligini, tanlash erkinligini hurmat qilish, nogironlik belgisiga ko'ra kamsitilishga yo'l qo'ymaslik, insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirishdagi imkoniyatlar tengligi, nogironligi bo'lgan bolalarning rivojlanayotgan qobiliyatini va o'z individualligini saqlab qolish huquqini hurmat qilish, obyektlar va xizmatlarning qulayligi, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlatning hayotiga jalb etish. Shuningdek, nogironligi kelib chiqish sababidan qat'iy nazar, u xoh tug'ma bo'lsin yoki baxsiz falokat yoxud og'ir mehnat qilish sababi, nima bo'lishidan qat'iy nazar, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat ishlarida faol qatnashishini ta'minlash zarur deb hisoblaymiz.

Navbatdagi tadqiq etadigan masalamiz, bu – nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olish, mehnat qilish, dam olish va boshqa ijtimoiy hayotdagi faoliyati bilan bog'liq masalalar bo'ladi. 1-masala – ta'lim. Ta'lim olish masalasida ham shu bugunga qadar 18 yoshga to'lmagan o'quvchi nogiron bolalar alohida tartibda, yakka tartibda o'qitib kelinayotgan edi. Bizningcha, bu maqbul ish emas. Ruhiy va psixologik holatiga qarab o'quvchi maktab yoshidagi nogiron bolalarni hamma qatori tengdoshlari bilan birga o'qitish tizimini qo'llash o'rinlidir. Bu borada Prezidentimizning ham taklif va fikrlari bildirilgan edi. Xususan, bular jumlasiga ko'rishida, eshitishida va harakatlanishida nuqsoni bor bolalarni tegishli shifokor va psixolog tavsiyasi bilan o'rta ta'lim maktablarida tengdoshlari bilan o'qitish o'rinli deb hisoblaymiz. Bundan maqsad nogironligi bo'lgan bolalarda jamoat bilan ishlash, faoliyat olib borish, tengdoshlari bilan muloqot qilish va hayotga bo'lgan ishtiyoq va kurashuvchanlikni oshirishdir. Shu bilan birga, qolgan o'quvchi yoshlarni ham shunga mos ruhda tarbiyalash, nogironligi bo'lgan bolani kamsitmaslik, ayirmaslik, tahqirlamaslik prinsiplarini muddao qilib aytganda, ushbu tushunchalarni tarbiyani o'rgatish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bizning

jamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarni u xoh yosh yoki keksa xoh ayol yoxud erkak bo'lmasin uni o'z safida olib yurishi va g'amxo'rlik qilishi zarur. Nogironligi bo'lgan shaxslarga g'amxo'rlik va muruvvat qilish bo'yicha davlat o'ziga qator vazifa, majburiyat va vakolatlarni o'z zimmasiga oladi. Xususan, Konstitusiyaning 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekanligi qayd etilgan. Davlat ushbu normadan kelib chiqib nogironlarni ijtimoiy himoya qiladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish – hayot faoliyatiga doir cheklavlarni yengib o'tish, ularning o'rmini qoplash (kompensatsiya qilish) uchun nogironligi bo'lgan shaxslarga shart-sharoitlarni ta'minlaydigan hamda ularga jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishning boshqa fuqarolar bilan teng imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan, davlat tomonidan kafolatlangan iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy chora-tadbirlar tizimidir. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni ayirib qo'ymasdan, ularni davlat va jamiyat ishlariga jalb qilish o'rinlidir. Xususan, bu borada "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasida nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish prinsipi belgilangan. Xususan, unda nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat va davlat hayotiga jalb etish ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishini har tomonlama rag'batlantirish hamda cheklavlarning har qanday shakllariga yo'l qo'ymaslik orqali amalga oshiriladi.

Davlat organlari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotiga jalb etishni ta'minlashga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Nogironligi bo'lgan shaxslarni ta'lim olish masalasi ham eng muhim dolzarb masala ekanini aytib o'tdik. Bu bo'yicha xalqaro hujjatdagi normadan misol. Ishtirok etuvchi davlatlar nogironlar kamsitilmasdan va boshqalar bilan teng ravishda oliy ta'lim, kasbiy ta'lim, kattalar uchun ta'lim olish va butun hayotlari davomida o'qitilish imkoniyatlariga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Ishtirok etuvchi davlatlar shu maqsadlarda nogironlar uchun oqilona moslashtirishni ta'minlaydi. Konvensiyaning yana bir normasida ham quyidagicha belgilanadi. Jumladan, "ishtirok etuvchi davlatlar nogironlarning ta'lim olish huquqini e'tirof etadi. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni kamsitmasdan va imkoniyatlar tengligi asosida amalga oshirish maqsadlarida barcha darajalarda inklyuziv ta'limni va butun umri davomida o'qitilishlarini ta'minlaydi. Nogironlarga erkin jamiyat hayotida samarali ishtirok etish imkoniyatini yaratish. Ishtirok etuvchi davlatlar ushbu huquqni amalga oshirishda quyidagilarni ta'minlaydi:

1. Nogironlar nogironligi sababiga ko'ra umumiy ta'lim tizimidan, nogiron bolalar esa bepul va majburiy boshlang'ich ta'lim yoki o'rta ta'lim tizimidan chiqarilmasligi.

2. Nogironlar boshqalar bilan teng ravishda o'z yashash joylarida inklyuziv, sifatli va bepul boshlang'ich ta'lim va o'rta ta'limni olish imkoniyatiga ega bo'lishi.

3. Nogironlar umumiy ta'lim tizimi doirasida samarali ta'lim olishlarini engillashtirish uchun talab qilinadigan qo'llab-quvvatlashga ega bo'lishi.

Shuningdek, qulay ta'limdan foydalanish maqsadida quyidagi sharoitlar ham yaratilishi zarur. Brayl alifbosi, muqobil shriftlarni, muomalani kuchaytiradigan va muqobil usullar, vositalar va shakllarni, shuningdek mo'ljal olish va harakatlanish ko'nikmalarini egallashlariga hamda tengdoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishga va murabbiylikka ko'maklashadi. Ishorali tilni egallash va karlarning o'ziga xos tilini egallashga yordam beradi. Shaxslarni o'qitish, jumladan ko'zi ojizlar, karlar yoki ko'zi ojiz va kar bo'lgan bolalarni o'qitish ularga eng maqbul bo'lgan til va usullarda, muomala vositalarida hamda bilimlarni egallash va ijtimoiy rivojlanishga iloji boricha eng ko'p yordam beradigan vaziyatda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida nogironligi bor bolalarga qulay shart sharoit yaratilmaganligi sababli 70 % ota-onalar o'z farzandlarini doimiy turar joyidan uzoqda maxsus maktablarda o'qitishga majbur bo'lmoqda. Ularni doimiy turarjoyidan oila a'zolaridan uzoqda bo'lishi ular uchun katta psixologik muammodir. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarning atigi 3 % i reabilitatsiya bilan qamrab olingan. Bu borada Prezidentimiz tomonidan ularni ishga joylash, o'qitish, sportga jalb qilishda milliy tizim yaratish zarurligi taklif etilgan.

Yana bir masala. Nogironligi bo'lgan shaxslarni mehnat va bandlik masalasi. Fikrimizcha, hech qaysi nogironligi bo'lgan shaxs mehnat qilish imkoniyatidan ajratilmasligi zarur. To'g'ri, bu borada davlatning vazifalari mavjud. Lekin shu bilan bir qatorda nogironligi bor shaxslarga nafaqat mehnat qilish huquqi, balki bu borada etarli imkoniyatni ham yaratish zarur. Ularni faol hayotga jalb qilish va daromadli qilish, kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish shuningdek iqtidorini kashf etish ham asosiy vazifamiz bo'lib qoladi. Bu borada jamoat tashkilotlari, nodavlat notijorat tashkilotlarining ham o'rni va ro'li qo'shadigan hissasi va ishtiroki juda ham zarur. Muhimi, nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtidorlarini kashf etish. Yaratgan zot nogironligi bo'lgan shaxslarni bir tomondan jismoniy yoki aqliy kamchilik bilan yaratgani bilan, uni ikkinchi tomondan juda iqtidorli qilib yaratgan bo'ladi. Ular nogironligi bo'lmagan shaxslarga qaraganda ham ancha muncha iqtidorliroq va irodaliroq bo'lishadi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyat hayotiga faol jalb qilish va iqtidorlarini kashf etishda jamoat tashkilotlari

bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarining roli va hissasi ham mavjud. Ommaviy axborot vositalari nogironligi bor shaxslarni faol hayotga jalb qilish, yuksak natijaga erishgan xuddi shunday shaxslar hayoti va faoliyati haqida videorolik va film tayyorlash zarur. Ibratli materiallar tayyorlash va uni jamoatchilikka faol targ'ib qilish lozim.

Nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnat qilish masalasi va tadbirkorlar tomonidan ishga yo'llash, ularning aqliy va qo'l mehnatidan foydalanish qisqacha qilib aytganda ularni mehnat bozoriga faol jalb qilish masalasida davlatning tashabbusi ayni o'rindir. Xususan, nogironligi bo'lgan shaxsni ishga olgan ish beruvchi 6 oy davomida subsidiya oladi. Kamida 50 % nogironligi bor shaxslardan iborat ishchisi bor ish beruvchi foyda va aylanma soliqdan ozod etiladi. Lekin shunga qaramasdan, 500 000 dan ortiq korxona va tashkilotlardan 9 % i yoxud 42 000 tasi nogironligi bor shaxslarni ish bilan ta'minlagan. Bu nihoyatda past ko'rsatgich. Davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ish bilan ta'minlamagan ish beruvchilarga bir talay imkoniyatlar berilgani bilan, bundan ko'zlangan maqsadlarimizga etolmayapmiz. Buning asosiy sababi sifatida nogironligi bo'lgan shaxslarning qobiliyati va iqtidorini, ta'limini, bilimni yuksak darajada tashkil etmayotganimiz bo'ladi. O'ylab ko'raylig-a, qaysi ish beruvchiga kuchli, etuk salohiyatli kadr kerak emas. Albatta, kerak. Kerak bo'lsa, ish beruvchining o'zi topadi bunaqa kadri. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, nogironligi bo'lgan shaxslarni yuksak o'rta va oliy ta'limini ta'minlash bilan birga, ularning iqtidorini kashf etib, salohiyatli kadr qilib yaratishimiz zarur. Keyingi alohida to'xtaladigan masalamiz bu nogironligi bor shaxslarni sport va san'atga keng jalb etishdir. Bu borada Sport vazirligi, Madaniyat vazirligi, shuningdek boshqa idora, ijro hokimiyat organlariga vakolatlarini kengaytirish lozim. Har bir hududda nogironligi bor shaxslarga alohida sport komplekslari yoki mavjud sport komplekslarida musiqa maktablari va madaniyat markazlarida ularga alohida burchaklar yani shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlashimiz zarur. Nogironligi bo'lgan shaxslarning sportiga berilgan e'tiborining yorqin timsolini Parijda o'tkazilgan 2024-yilning yozgi paralimpiya o'yinlarida 10 ta oltin, 9 ta kumush, 7 ta bronza medalini qo'lga kiritib umumjamoa hisobida 13 o'rinni, Osiyo davlatlari orasida esa, Xitoy va Yaponiyadan so'ng 3 o'rinni, islom davlatlari, turkiy tilli davlatlar va Mustaqil davlatlar hamdo'stligida esa, faxrli birinchi o'rinni egallagani bu sohaga sportga ayniqsa nogironligi bor shaxslarning sportiga qanchalar e'tibor berilayotganing yorqin timsolidir.

Izlanishlar natijasida shu narsa aniqlandiki, turmush qurish yoshiga etgan nogironligi bo'lgan shaxslar taqdiri ham asosiy masala hisoblanadi. Bu

borada xorij tajribasi ham no‘noq ahvolda. Xorijiy tajribada shu narsa aniqlandiki, bu hatto ilg‘or fuqarolik jamiyati rivojlangan mamlakatlarda ham tartibsiz ahvolda. Xo‘sh, bizda-chi? Bu haqida atroflicha o‘ylab ko‘rish va masalaga real boqishimiz zarur. Bizningcha, bu masalada jamoatchilik, mahalla instituti va jamoatchilik tashkilotlari yanada faol bo‘lishi lozim. To‘g‘ri, biz milliy urf-odatlariga, an‘analarga tayanib ish ko‘radigan millatmiz. Lekin shu bilan birgalikda qo‘shimcha ravishda yana bitta narsani hisobga olishimiz darkor. Bu ham bo‘lsa nogironligi bo‘lgan shaxslarning yangi oilaga ko‘nikishi, oila qurish va turmush qiyinchiliklarini inobatga olishidir. Aksariyat holatlarda nogironligi bo‘lgan shaxs bilan faqat nogironligi bo‘lgan shaxsning turmush qurishi kerak, degan yoki amalda shunday bo‘layotgan holatlarga ko‘zimiz tushadi. Biz sog‘lom, ya‘ni ma‘nan sog‘lom fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, bu masalani ham atroflicha o‘rganishimiz va jamiyatimizni shunga tayyorlash va moslashtirishimiz lozim. Bu, avvalo, tarbiya o‘rgatilayotgan tushuncha va olib borilayotgan targ‘ibot orqali bo‘ladi. Fikrimizcha, bu borada diniy ulamolar, imomlar, Diniy ishlar bo‘yicha qo‘mitaning faoliyatini ham yanada kuchaytirish lozim. Ular jamoatchilikka aynan yoshlarga nogironlarga qanday odob bilan muomala qilinishini, ularning jamiyatimizda tutgan o‘rni va roli qanchalar ahamiyatli ekanini boshqa fuqarolik institutlari bilan birgalikda tushuntirishlari zarur deb hisoblaymiz. Eng muhim va eng asosiy yuksak maqsadimiz erkin fuqarolik jamiyatini barpo etar ekanmiz, bu maqsadda har bir shaxs, har bir yurt farzandining hissasi va o‘rni naqadar muhim va zarur ekanini ta‘kidlaymiz.

Xulosa: Yakunda ushbu xulosani bildirishimiz mumkinki, nogironligi bo‘lgan shaxs huquqi va erkinligi maxsus huquqdan farqli o‘laroq avvalo inson huquqi ekanini ta‘kidlaymiz. Bu degani avvalo nogironligi bo‘lgan shaxsning yashash huquqi mavjudligi. Malakali tibbiy xizmatdan, ta‘lim olish, mehnat qilish va dam olish huquqidan erkin foydalanish zarurligidir. Jamiyatda erkin harakatlanishi uchun, ajratilmasligi uchun, qiynalmasligi uchun va farovon hayot kechirishi uchun davlat tomonidan ham ko‘plab maxsus erkinlik va imkoniyatlar berilgan. Nogironligi bo‘lgan shaxs eng muhimi faol hayotdan ajratilmasligi, boshqalar bilan teng mehnat qilishiga zamin yaratish, ta‘lim olishiga shart-sharoit yaratish zarurdir.

Erkin fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lida ildamlar ekanmiz, bu jamiyatda har bir shaxsning, xususan, nogironligi bo‘lgan shaxslarning ham o‘rni va roli naqadar katta va muhim ekanini bilamiz. Nogironligi bo‘lgan shaxslar bu sog‘lom jamiyatning qusurlari emas balki jamiyatning qanchalar sog‘lomligining, shuningdek, davlatning naqadar ijtimoiyligining bir ko‘rinishidir deb hisoblaymiz. Yana shuni qo‘shimcha

qilib bir nechta taklif va tashabbuslarimizni ham bildirib o‘tamiz. Eng birinchisi, bu nogironligi bo‘lgan shaxs tushunchasidagi farqni yo‘q qilib, yakdil bir qarorga kelib, maxsus aniq tushunchani qabul qilishimiz zarur deb hisoblaymiz. Keyingisi bu nogironlikni belgilash tizimini isloh etishdir. Amaliyotda nogironlikni belgilash ya‘ni mehnatga qobiliyasizlikni belgilash amalga oshirilgandan so‘ng mehnat qobiliyatini mehnatni amalga oshirish davomiyligida yo‘qotgan shaxsqa qaysidir mehnat yoki faoliyatga ruxsat berilishi mehnatga qobiliyasizlik varaqasida belgilanadi. Bu ko‘pincha 2-guruh nogironligi bo‘lgan shaxslarda uchraydi. Yani taklifimiz shu bo‘ladiki, davlat mehnat qobiliyatini yo‘qotgan shaxsga o‘sha mehnatga qobiliyasizlik varaqasida belgilangan, ruxsat berilgan faoliyatni amalga oshirishga zamin yaratib, qo‘llab-quvvatlab, shart-sharoit yaratishi zarur.

Amaliyotdan bir misol. 20 yillik davlat xizmatidagi tinimsiz mehnatdan so‘ng bir fuqaro mehnatga qobiliyasiz bo‘lib 2-guruh nogironligiga chiqqan. Uning mehnatga qobiliyasizlik varaqasida asalarichilik yo‘nalishi bilan shug‘ullanishiga ruxsat berilgan. Fuqaro bu faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun shart-sharoit yaratish zarur. Ayniqsa mahalliy hokimiyat organlari buni nazoratga olib, shu fuqaroga ruxsat etilgan faoliyat bilan shug‘ullanishiga kerak bo‘lsa o‘z tashabbusi bilan imkoniyat yaratishi zarur. Bu davlatning nogironligi bo‘lgan shaxsni kasbiy reabilitasiya qilish vazifasining amaliyoti ham nogironligi bo‘lgan shaxsning jamiyatdan ajralmasligi uchun muhim amaliyot bo‘ladi. Taklif bu bo‘yicha yagona dastur yoki loyiha, grantlar tuzish zarur. Navbatdagi taklif bu nogironlikni belgilashni xorij tajribasi bilan solishtirgan holda o‘rganish. O‘zbekistonning xalqaro tashabbuslariga taklifimiz ham bo‘ladi – bu. Ya‘ni butun dunyoda kuni kelib, bir xil nogironlikni belgilash tizimi (bu tizim bitta emas, uni belgilash o‘xshashligini nazarda tutayapmiz) bo‘lishi zarur. Buning uchun eng ijtimoiy davlatda mavjud bo‘lgan nogironlikni belgilash tizimini o‘rganish va buni faol targ‘ib etish, xalqaro doiralarda taklif etish bo‘ladi. To‘g‘ri barcha davlatlar iqtisodiy va siyosiy holatiga qarab buni birxillashtirish qiyin bo‘lishi mumkindir ammo imkonsiz emas. Keyingi taklifimiz, nogironlikni keltirib chiqaradigan muammolarini bartaraf etishdir. Nogironlikni keltirib chiqaradigan sabablarga sabab bo‘layotgan havoning ifloslanishi, suv ta‘minoti taqchilligi, tibbiy xizmat kamchiligi va boshqa sabablar ham umumiy global sababimiz bo‘lib qoladi. Umumiy sabablardan farqli ravishda, maxsus sabablarni ham bartaraf etish mumkin qadar osonroq bo‘lgan muammo va sabablarni ham bartaraf etishimiz zarur. Bularga mehnat qilish, sport sohasi, xizmat sohasidagi kamchiliklar asos bo‘ladi. Mehnat qilish qiyinligi yoki noqulayligidan nogironlik kelib chiqqan shaxslar talaygina amaliyotda.

Umuman olganda, jamiyatimiz oldida bu sohada turgan masalalar talaygina. Biz avvalo inson huquqini, inson qadrini ulug'laymiz, maxsus ravishda nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari va qonuniy manfaatlarini qadrlaymiz va e'tirof etamiz. Biz barchamiz u xoh nogironligi bo'lgan shaxs yoki bo'lmagan shaxs bo'lsin

biz bir jamiyatmiz, fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida farovon jamiyat qurish yo'lida ildamlayotgan jamiyatmiz. Bu degani nogironligi bo'lgan shaxslar bizning ajralmas, ajratib bo'lmaz qismimiz, bo'lagimizdir va shunday bo'lib qoladi.

Иқтибослар/Сноски/References:

- 1.R.T.Xakimov, S.Sh.Djalilov Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari [Matn]: O'quv qo'llanma /. – T.: Komron Press nashriyoti, 2024, 160 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 938-XII son Qonuni // <https://lex.uz/acts/-112314>.
- 3.O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuniga sharhlar. – Toshkent: 1996.
- 4.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
- 5.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi // <https://lex.uz/docs/-6445145>.
- 6.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi // <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
- 7.BMTning "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasi // <https://lex.uz/acts/-5501227>.
- 8.O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslar to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni // <https://lex.uz/acts/-5049511>.

НОГИРОНЛАР ҲУҚУҚЛАРИ: ҚОНУНЧИЛИК ТРАНСФОРМАЦИЯСИ

Саидакмал Мамасолиев,

Тошкент давлат юридик университети
Хусусий ҳуқуқ факултети 1-босқич талабаси

АННОТАЦИЯ

Мақолада ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлашда миллий қонунчилик ва халқаро стандартлар ўртасидаги трансформация жараёнлари таҳлил этилган. Хусусан, БМТнинг “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенцияси ва Ўзбекистон қонунчилигидаги асосий принциплар қиёсий ўрганилган. Миллий қонунларда Конвенция талабларининг акс эттирилиши, айрим ҳолларда уларнинг модификация қилингани ёритиб берилган. Муаллиф ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқларини таъминлашда қонунчилик трансформациясининг ижтимоий адолат ва инсонпарварлик тамойилларини ҳаётга татбиқ этишдаги ўрнини кўрсатиб берган.

Калит сўзлар: Ногиронлар ҳуқуқлари, қонунчилик трансформацияси, БМТ Конвенцияси, ижтимоий ҳимоя, инклюзив жамият, тенг имкониятлар, дискриминацияга йўл қўймаслик, халқаро ҳуқуқий стандартлар.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются процессы трансформации национального законодательства и международных стандартов в обеспечении прав лиц с инвалидностью. В частности, проводится сравнительное исследование Конвенции ООН о правах инвалидов и основных принципов законодательства Узбекистана. Освещено отражение требований Конвенции в национальном законодательстве, а в некоторых случаях и их модификация. Автор показывает роль законодательной трансформации в обеспечении прав лиц с инвалидностью, в реализации принципов социальной справедливости и гуманности.

Ключевые слова: Права лиц с инвалидностью, законодательная трансформация, Конвенция ООН, социальная защита, инклюзивное общество, равные возможности, недискриминация, международно-правовые стандарты.

ANNOTATION

The article analyzes the transformation processes between national legislation and international standards in ensuring the rights of persons with disabilities. In particular, the UN Convention on the Rights of Persons with Disabilities and the main principles of Uzbek legislation are studied comparatively. The reflection of the requirements of the Convention in national laws, and in some cases their modification, is highlighted. The author shows the role of legislative transformation in ensuring the rights of persons with disabilities in implementing the principles of social justice and humanity.

Keywords: Rights of persons with disabilities, legislative transformation, UN Convention, social protection, inclusive society, equal opportunities, non-discrimination, international legal standards.

Жамият тараққиётининг муҳим мезонларидан бири — инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг таъминланиш даражасидир. Айниқса, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини кафолатлаш, уларни ижтимоий ҳаётнинг тўлақонли иштирокчисига айлантириш масаласи замонавий ҳуқуқий давлат концепциясининг асосий йўналишларидан бири ҳисобланади. Сўнгги йилларда дунё миқёсида ногиронлар ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида кенг қонунчилик ислохотлари амалга оширилмоқда. Хусусан, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенцияси (2006) глобал ҳуқуқий ислохотларнинг пойдевори сифатида хизмат қилмоқда. Ушбу халқаро ҳужжат ногиронликни жисмоний чекланиш эмас, балки ҳуқуқий ва ижтимоий тенглик нуқтаи назаридан баҳолашга асос бўлди. Ўзбекистонда ҳам ногиронлар ҳуқуқларини таъминлаш соҳасида тизимли ўзгаришлар кузатишмоқда. Янги қонунлар қабул қилиниши, миллий дастурлар ишлаб чиқилиши ва халқаро

стандартларни миллий ҳуқуқ тизимига интеграция қилиш жараёнлари ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳаёт сифати ва имкониятларини оширишга қаратилган. Шу билан бирга, қонунчилик трансформацияси нафақат ҳуқуқий кафолатларни мустаҳкамлайди, балки ижтимоий адолат ва инсонпарварлик тамойилларини ҳаётга татбиқ этишга хизмат қилади.

Жаҳон қонунчилик амалётида жуда кўплаб Халқаро ҳужжатлар бугунги кунда ўз долзарблиги билан аҳамиятли. Ўзбекистон ҳукумати БМТнинг Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясини 2009 йил 27 февралда имзолаган. Ўшанда мамлакатимиз конвенцияни келгусида ратификация қилишга ишонч билдирган. Афсуски, Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенцияни муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган айти ратификация масаласи чўзилиб кетди. Шу маънода кейинги йилларда бу борадаги амалий ишлар шиддатли тус олгани диққатга лойиқ. Ўзбекистон Республикасининг Ногиронлар ҳуқуқлари

тўғрисидаги конвенцияга қўшилишига оид масала давлат раҳбарининг қуйидаги дастурий ҳужжатларида:

биринчидан, “Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармонида (2017 йил 1 декабрда қабул қилинган);

иккинчидан, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси қабул қилинганининг 70 йиллигига бағишланган тадбирлар дастурида (2018 йил 5 майдаги фармон билан тасдиқланган);

учинчидан, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясида (2020 йил 22 июндаги фармон билан тасдиқланган);

тўртинчидан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг БМТ Инсон ҳуқуқлари бўйича кенгашининг 2021 йил 22 февралда бўлиб ўтган 46-сессиясидаги нутқида назарда тутилган .

Шу жиҳатдан, ратификация кечикса-да, унинг ортидан амалга оширилган қонунчилик трансформацияси ва институционал ислохотлар бу жараёни мустаҳкам пойдевор билан таъминлади. Бу эса ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини нафақат ҳуқуқий, балки амалий жиҳатдан ҳам ҳимоя қилиш имкониятини яратилди. БМТ Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясининг халқаро стандартлари ва талаблари, энг муҳими, асосий фалсафасини ҳисобга олиш, шунингдек, “ногирон” сўзи ўрнига “ногиронлиги бўлган шахс” атамасидан фойдаланишга эътибор қаратсак. Ушбу сўз чет тилларида ҳар хил эшитилсада, бир маънони англатади. Ўзбекистонда қабул қилинган, “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари” тўғрисидаги қонунда, “ногиронлиги бўлган шахс” деб “ижтимоий ёрдам ва ҳимояга, жамият ва давлатнинг сиёсий, иқтисодий, ижтимоий ҳаётида бошқалар билан бирга тенг бўлиқ ва самарали иштирок этиш учун шарт-шароитлар яратилишига муҳтож барқарор жисмоний, ақлий, сенсор (сезги) ёки руҳий нуқсонлари бўлган шахс ” тушунилади. Қомусий лугатларда, “ жисмоний ва ақлий нуқсонлари туфайли турмуш фаолияти чекланганлиги муносабати билан ижтимоий ёрдам ва ҳимояга муҳтож бўлган шахс- ногиронлиги бўлган шахс ”деб юритилган. Мазкур таърифдан келиб чиқиб, ногиронлиги бўлган шахслар-ҳуқуқий макоми уларнинг алоҳида эҳтиёжлари ва имкониятларини инобатга олган ҳолда белгиланади. Бу ҳолатда эътибор қаратиладиган асосий йўналишлар қуйидагилардан иборат:

◆ Ижтимоий ҳимоя – ногиронлиги бўлган шахсларни моддий қўллаб-қувватлаш, тиббий ва ижтимоий реабилитация хизматлари билан

таъминлаш, уларнинг турмуш сифати яхшиланишига шароит яратиш.

◆ Тенг ҳуқуқлар кафолати – таълим олиш, меҳнат қилиш, соғлиқни сақлаш, турли маданий ва спорт тадбирларида иштирок этиш имкониятларининг бошқаларники каби бўлиқ таъминланиши.

◆ Инклюзив жамият – давлат ва жамият томонидан ногиронлиги бўлган шахсларнинг тўсиқсиз ҳаракатланиши, ахборот ва коммуникация воситаларига эркин кириши учун шароитлар яратилиши.

◆ Дискриминацияга йўл қўймаслик – ногиронлиги бўлган шахсларга нисбатан турли хил камситишларнинг олдини олиш, уларнинг шахсий кадр-қимматини ҳурмат қилиш.

Конвенция ва қонун ўртасида жуда кўплаб ўзгаришлар учрайди. Бу бевосита трансформацион ҳолатни юзага келтиради. Трансформация-бирор нарсанинг кўриниши, шакли, муҳим хусусиятлари ўзгариши маъноси билан ҳамоҳанг. Қонунчиликда халқаро ҳужжатни миллат нормаларга тадбиқ этиш кўп учрайди. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенциясининг 3-моддасида, “Ушбу Конвенциянинг принциплари қуйидагилардан иборат:

а) инсонга хос бўлган кадр-қимматни, унинг шахсий мустақиллиги, шу жумладан мустақил танлови эркинлигини ҳамда мустақиллигини ҳурмат қилиш;

б) камситмаслик;

с) жамиятга бўла ва самарали жалб этиш ва қўшиш;

д) ногиронларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳурмат қилиш ва буни инсоний турфа хилликнинг таркиби ва инсониятнинг бир қисми сифатида қабул қилиш;

е) имкониятларнинг тенглиги;

ф) тўсиқсиз фойдаланиш;

г) эркалар ва аёлларнинг тенглиги;

ҳ) ногирон болаларнинг ривожланаётган қобилиятларини ҳурмат қилиш ва ногирон болаларнинг ўз шахсий хусусиятларини сақлаб қолиш ҳуқуқини ҳурмат қилиш”, деб белгиланган. Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқлари тўғрисидаги қонуннинг 4-моддасида, “Ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлашнинг асосий принциплари қуйидагилардан иборат:

ногиронлиги бўлган шахсларнинг кадр-қимматини, уларнинг мустақиллигини, танлаш эркинлигини ҳурмат қилиш;

ногиронлик белгисига кўра камситилишга йўл қўймаслик;

инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликларини амалга оширишдаги имкониятлар тенглиги;
ногиронлиги бўлган болаларнинг ривожланаётган қобилятини ва ўз индивидуаллигини сақлаб қолиш ҳуқуқини ҳурмат қилиш;

объектлар ва хизматларнинг қулайлиги;
ногиронлиги бўлган шахсларни жамият ва давлатнинг ҳаётига жалб этиш” деб келтирилган.

Миллий қонун тузилганда Конвенция тамойиллари асос сифатида олинган. Бу ерда қонунчилик трансформацияси яққол кўринади.

Асосий ўхшашликлар сифатида, Иккаласида ҳам инсон шаъни, кадр-қиммати, танлаш эркинлиги ва мустақиллиги биринчи принцип сифатида белгиланган. Иккаласи ҳам камситишни қатъиян рад этади. Имкониятлар тенглиги жихатдан, Иккаласида тенг ҳуқуқ ва имкониятлар тамойили асосий ўринда.

Миллий қонуннинг трансформация хусусиятлари сифатида, конвенцияда инсоният турфа хиллигини ҳурмат қилиш (ногиронликни жамиятнинг табиий қисми сифатида қабул қилиш) алоҳида принцип сифатида белгиланган. Миллий қонун матнида бу тамойил алоҳида келтирилмаган, балки умумий кадр-қиммат ва тенглик ичида ифода этилган. Конвенцияда гендер тенглиги (эркаклар ва аёлларнинг тенглиги) алоҳида принцип сифатида бор. Қонунда бу мустақил принцип сифатида акс этмаган. Конвенцияда барқарор ривожланишга боғлиқ ҳолда тўлиқ ижтимоий интеграция кенгрок маънода олинган. Қонунда эса асосий эътибор “жамият ва давлат ҳаётида иштирок”га қаратилади. Бу биргина мисол.

Амалёт нуқтаий назардан олганда, Ногиронлари ҳуқуқлари тўғрисидаги конвенция қоидаларини амалга ошириш орқали ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш соҳасида замонавий усуллар ва халқаро стандартларни жорий этиш имкони ортади. Бу, шунингдек Барқарор ривожланиш мақсадларининг Ҳеч қимми ортда қолдирманг» тамойилини амалга оширишга ёрдам беради. Академик А.Саидовнинг фикрича, “Конвенция қоидаларини амалга ошириш натижасида;

биринчидан, ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини халқаро норма ва стандартларга мувофиқлаштириш;

иккинчидан, ногиронлиги бўлган шахсларни ижтимоий ҳимоя қилишни кучайтириш бўйича халқаро ташкилотларнинг мақсадли ресурсларини жалб қилиш имкониятини кенгайтириш мумкин бўлад”. Шуниси муҳимки, халқаро стандартнинг бажарилиши мамлакатимизнинг аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишдаги ижобий халқаро имиджини янада юксалишига тўртки беради. Ногиронларни

ижтимоий ҳимоя қилиш борасида миллий қонунчилигимиздан, 2008 йилда қабул қилинган 2021 йил 17-январдан кучга кирган “ Ўзбекистон Республикасида ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш тўғрисида”ги қонунни мисол қилиб келтириш мумкин. Қонунда, “ногиронларни ижтимоий ҳимоя қилиш – ногиронларга турмуш фаолияти чекланганлигини бартараф этиши, қоплаши (компенсация қилиши) учун шарт-шароитларни таъминловчи ҳамда уларга жамият ҳаётида бошқа фуқаролар билан тенг иштирок этиш имкониятларини яратишга қаратилган, давлат томонидан кафолатланган иқтисодий, ижтимоий ва ҳуқуқий чора-тадбирлар тизими” сифатида эътироф этилади. Бу эса бевосита халқаро стандартларга тўла мос келади. Бу дегани фақат ногиронларни “айнаб қўйиш” эмас, балки уларнинг ҳақиқий тенг фуқаро бўлиб яшашлари учун зарур барча шарт-шароитларни яратиш – ижтимоий ҳимоянинг асосий мақсадидир. Бу жараёнда давлат қандай мажбурият олади деган савол туғилиши мумкин. Қонуннинг 5-моддасида, “ Давлат ногиронлар турмуш фаолиятининг чекланганлигини баҳолаш асосида уларнинг ижтимоий ёрдам ҳамда ҳимоя чора-тадбирларига бўлган эҳтиёжлари ҳисобга олиниши таъминланишини, ногиронларни реабилитация қилиш ва ижтимоий ҳимоя қилишнинг қонун ҳужжатларида назарда тутилган турларидаги дастурлар амалга оширилишини, ногиронларнинг жамият билан уйғунлашиши учун шароитлар яратилишини, ногиронларни камситишнинг барча шаклларида ҳимоя қилишни таъминлаш юзасидан зарур чора-тадбирлар кўрилишини кафолатлайди. ” Қонуннинг ушбу қисми конвенция нормаларига интеграция қилинган десак муболаға бўлмайди. Конвенцияда мажбуриятлар умумий келтирилган бўлиб, давлатга вазифа юклайди. Халқаро ҳужжатнинг 4-моддасида, “Иштирок этувчи давлатлар барча ногиронлар томонидан ногиронлик белгиси бўйича ҳеч қандай камситишсиз инсоннинг барча ҳуқуқларини амалга ошириш ва асосий эркинликларини тўла таъминлаш ва рағбатлантириш мажбуриятини олади. Шу мақсадда иштирок этувчи давлатлар қуйидаги мажбуриятларни олади:

а) ушбу Конвенцияда эътироф этиладиган ҳуқуқларни амалга ошириш учун барча зарур қонунчилик, маъмурий ва бошқа чораларни кўриш;

б) ногиронларга нисбатан камситиш хусусиятига эга мавжуд қонунлар, қарорлар, урф-одатларни ўзгартириш ёки бекор қилиш учун барча зарур чораларни, шу жумладан қонунчилик чораларини кўриш;

с) барча стратегиялар ва дастурларда ногиронлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва рағбатлантиришни ҳисобга олиш;

d) Ушбу Конвенцияга тўғри келмайдиган ҳар қандай ҳаракатлар ёки усуллардан тийилиш ҳамда давлат органлари ва муассасалари ушбу Конвенцияга мувофиқ иш тутишларини таъминлаш;

e) ҳар қандай шахс, ташкилот ёки хусусий корхона томонидан ногиронлик белгиси бўйича камситишни бартараф этиш учун зарур чораларни кўриш;

f) ногиронларнинг аниқ эҳтиёжлари учун мослаштириш иложи борида кам ўзгартириш ва харажат талаб қиладиган товарлар, хизматлар, жиҳозлар ва универсал дизайн объектларининг (ушбу Конвенциянинг 2-моддасида белгилаб қўйиладиган) илмий-тадқиқот ва конструкторлик ишланмаларини олиб бориш ёки рағбатлантириш, уларнинг мавжуд бўлишига ва улардан фойдаланишга ёрдам бериш, шунингдек стандартлар ва кўрсаткич мўлжалларини ишлаб чиқишда универсал дизайн ғоясини илгари суриш;

g) ногиронлар учун мос тушадиган янги технологиялар, шу жумладан ахборот-коммуникация технологиялари, ҳаракатчанлик, қурилмалар ва ассистив технологияларни енгиллаштирадиган воситаларнинг илмий-тадқиқот ва конструкторлик ишланмаларини олиб бориш ёки рағбатлантириш, бунда арзон технологияларга биринчи даражали эътибор бериш;

h) ҳаракатчанлик, қурилмалар ва ассистив технологияларни енгиллаштирадиган воситалар, шу жумладан янги технологиялар, шунингдек ёрдам кўрсатиш, қўшимча хизматлар ва объектлар тўғрисида фойдаланиш имконияти бўлган ахборотларни ногиронларга тақдим этиш;

i) ушбу Конвенцияда эътироф этилган ҳуқуқларни мазкур ҳуқуқларда қафолатланган ёрдам ва хизматларни тақдим этишни такомиллаштириш учун мутахассислар ва ногиронлар билан иш олиб борадиган персонални ўқитишни рағбатлантириш.”

БМТнинг Ўзбекистондаги доимий вакили, С. Приснер фикри билан айтганда, “Конвенция нафақат давлатлар томонидан ногиронлиги бор одамларни камситилмасликларини аниқлаштириб беради, балки улар жамиятда кадр-қиммати билан ҳаётдан завқлана олишлари учун қулай шароитлар яратиб беришда кўплаб қадамларни баён қилади. Шундай қилиб, Конвенция, бошқа инсон ҳуқуқлари шартномаларидан фарқли ўлароқ, давлатлар томонидан камситилишни тақиқлаш ва ҳамма учун тенг ҳуқуқликка эришиш борасида чора-тадбирларни ўрнатиш йўлида янада чуқурроқ ёндошишга имкон яратиб беради”.

Юқоридаги таҳлилдан кўриниб турибдики, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини

таъминлаш ва уларнинг жамият ҳаётида тўлақонли иштирокини қафолатлаш – замонавий ҳуқуқий давлат концепциясининг ажралмас қисми ҳисобланади. Ўзбекистонда БМТнинг “Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисида”ги Конвенцияси қоидаларини миллий қонунчиликка тадбиқ этиш жараёнида қатор ижобий натижаларга эришилди. Хусусан, янги қонунлар қабул қилиниши, давлат дастурларининг ишлаб чиқиши ва ижтимоий ҳимоя тизимининг такомиллашиши ногиронлиги бўлган шахслар ҳаёт сифатини яхшилашга хизмат қилмоқда. Бироқ, амалиёт шунини кўрсатмоқдаки, қонунчилик трансформацияси билан бирга, унинг самарали ижросини таъминлайдиган институционал механизмларни кучайтириш зарур. Шу боис қуйидаги таклифларни илгари суришимиз мумкин:

1. Институционал механизмларни кучайтириш – Ногиронлиги бўлган шахслар ҳуқуқлари бўйича миллий мониторинг тизимини мустақил ва шаффоф фаолият юритадиган орган сифатида шакллантириш.

2. Инклюзив муҳитни кенгайтириш – таълим муассасалари, иш жойлари, маданий ва спорт объектларини тўлиқ инклюзив талабларга мослаштириш, айниқса рақамли муҳитда тўсиқсиз кириш имкониятларини яратиш.

3. Жамоатчилик назорати – фуқаролик жамияти институтлари ва ННТларнинг ногиронлар ҳуқуқлари соҳасидаги давлат сиёсатини мониторинг қилишдаги иштирокини кучайтириш.

4. Ижтимоий стереотипларни енгиллаш – оммавий ахборот воситалари орқали ногиронлиги бўлган шахсларнинг тенг фуқаро сифатидаги мақомини кенг тарғиб қилиш, жамиятда дискриминация ва камситиш ҳолатларини бартараф этиш.

5. Халқаро ҳамкорликни ривожлантириш – БМТ ва бошқа халқаро ташкилотлар билан ҳамкорликда инновацион реабилитация технологиялари ва ижтимоий хизматларни жорий этиш.

6. Қонунчиликдаги бўшлиқларни тўлдириш – Конвенцияда алоҳида қайд этилган гендер тенглиги ва ногиронликнинг инсоният турфа хиллигининг бир қисми сифатида эътироф этилиши масалаларини миллий қонунчиликда ҳам мустақил принцип сифатида мустаҳкамлаш.

Шундай қилиб, қонунчилик трансформацияси ва институционал ислохотларни изчил давом эттириш, ногиронлиги бўлган шахсларнинг ҳуқуқларини таъминлашда нафақат ҳуқуқий, балки ижтимоий ва маънавий адолат мезонларини амалга оширишга хизмат қилади.

- 1.<http://pravacheloveka.uz/uz/news/ozbekiston-va-nogironlar-huquqlari-togrisidagi-konvensiya>.
- 2.Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.10.2020 й., 03/20/641/1389-сон.
- 3.Юридик атамалар қомусий луғати / Маъсул муҳаррир: Ҳ.Р.Раҳмонқулов; Адабий муҳаррир: Б.А.Эшпўлатов. – Тошкент: Шарқ, 2003. 432-б.
- 4.Давлат бошқарувига оид терминлар изоҳли луғати / Ўқув қўлланма. Тўхтасинов Н. – Тошкент: ТДЮУ, 2025. 94-б.
- 5.lex.uz/acts/5501227 <https://share.google/1Euvq1O91ZtBer8nc>.
- 6.Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.10.2020 й., 03/20/641/1389-сон.
- 7.А.Саидов. Инсон қадри учун (Юридик публицистика). – Тошкент: Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2022. 105-б.
- 8.Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 29-30-сон, 277-модда.
- 9.Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция. – Toshkent: Baktria press, 2013. – В/17-18.
10. Ногиронлар ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция тўпламига сўз боши. – Toshkent: Baktria press, 2013. 10-б.

TAXRIRIYAT | EDITORIAL STAFF

Abdumannop TULYAGANOV	Javlon ABDULLAYEV	Davron MIRAZOV
Jo‘raboy TOSHQULOV	Dilshod ARIPOV	Mirzatilla TILLABOYEV
Ra‘no TURDIBOEVA	Sobir XOLBAYEV	Asqar G‘OFUROV
Nig‘monjon AZIZOV	Gulchexra TULAGANOVA	Kamola XUJAMOVA
Omonboy OQYULOV	Ahror XUDAYBERDIYEV	Dildora UMARXANOVA
Mirodiljon BOROTOV	Ixtiyor Jo‘RAYEV	Umidjon SAYDAHMEDOV
Akbarshox TESHABOYEV	Baxritdin TALAPOV	Luqmon ISOQOV
Muzaffar MAMASIDDIQOV	Olim NARZULLAYEV	Erkin RUSTAMOV
Oybek ISOQOV	Abrorjon OTAJONOV	Saodat GULYAMOVA
Jumanazar XOLMUMINOV	Akrom TOSHPO‘LATOV	Zarnigora XOKIMJONOVA
		Shavkatjon RAXMATULLAYEV

Nogironlik: jamiyat va huquq, 1/2025

Materiallar “Nogironlik: jamiyat va huquq” jurnalidan ko‘chirib olinganda jurnal nomi ko‘rsatilishi shart.

E‘lon qilingan materiallarda keltirilgan fakt va raqamlar, ko‘chirmalar, iqtisodiy-statistik ma‘lumotlar rostligi va aniqligi uchun mualliflar javob beradi. Muallif fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin. Tahririyatga kelgan qo‘lyozma taqriz qilinmaydi va qaytarilmaydi.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani, Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 81-uy. Tel: +998973439898

Veb-sayt: quvvatlov.uz

islas.academy.uz

Elektron pochta:

info@islas.uz

Jurnal elektron tarzda tayyorlanib taqdim etiladi.